

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
A.AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA‘LIMI MUAMMOLARINI
O‘RGANISH
VA ISTIQBOLLARINI BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Pedagogik texnologiyalar”
moduli bo‘yicha
O‘QUV–USLUBIY MAJMUUA

Tuzuvchi: N.F.Saydalixodjaeva

Toshkent 2021

MUNDARIJA

I. Ishchi dastur

II. Modulni o'qitishda foydalaniladigan interefaol ta'lim metodlari.

III. Nazariy mashg'ulot materiallari

IV. Amaliy mashg'ulot materiallari

V. Keyslar banki

VI. Mustaqil ta'lim mavzulari

VII. Glossariy

VIII. Adabiyotlar ro'yxati

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda xalq ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, o'qitishning ilg'or texnologiyalaridan boxabar bo'lib va ta'lim amaliyotiga tadbiiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Dastur xalq ta'lim muassasalari pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, ularning interaktiv metodlar, pedagoglarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion metodikalar, masofadan o'qitishni, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlar olib borish malaka va ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan.

SHu bilan birga, hozirgi vaqtda o'quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni faqat nazariy bilimlarni chuqur o'rgangan holda emas, balki ayni vaqtda buyuk insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta egallagan mohir mutaxassis bo'lishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi ta'lim muassasalaridagi barcha o'qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va texnika ko'nikmalari bilan qurollangan, o'z pedagogik faoliyatiga kreativ yondosha oladigan, kompetentli va madaniyatli shaxs sifatida bo'lishlarini yana bir bor ta'kidlab bermoqda.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Pedagogik texnologiyalar” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini innovatsion ta'lim texnologiyalariga doir bilimlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, joriy etish, ta'lim amaliyotida qo'llash va yaratish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, shuningdek, pedagogik kompetentlik, kreativlik asoslari, pedagogik mahorat, pedagogik takt, pedagogik texnika va madaniyati nazariyasi hamda amaliyoti bo'yicha bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashdir.

“Pedagogik texnologiyalar” modulining vazifalari:

- **Pedagogik** innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'ziga xosliklari va qo'llanilish sohalarini aniqlashtirish;
- tinglovchilarda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;

- tinglovchilarda **Pedagogik** innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalash va rejalashtirishga doir proektiv, prognostik va kreativ kompetentlikni rivojlantirish.

- o'quv-tarbiyaviy jarayon asosida yotgan qonuniyatlarni egallash, pedagogik kompetentlik, kreativlik asoslari, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, takt va texnikasi bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

“Pedagogik texnologiyalar” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- innovatsion ta'lim texnologiyalarining funktsiyalari;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarining turlari va qo'llanilish sohalari;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning pedagogik-psixologik va metodik shart-sharoitlari;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalash qoidalari;
- pedagogik kompetentlik, kreativlik asoslari, pedagogik madaniyat, takt va texnika asoslari haqida **bilimlarga ega bo'lishi**;

Tinglovchi:

- aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini shakllantirish;
- interfaol ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini loyihalash va rejalashtirish;
- shaxsga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish;
- ta'lim oluvchilarning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;
- interfaol ta'lim texnologiyalarini oliy ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish;
- o'quv jarayonini boshqarish, kompetentlik talablariga muvofiq pedagogik faoliyat olib borish **ko'nikmalarini egallashi**;

Tinglovchi:

- innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayonini “jonli”, ijodiy tashkil etish;
- **Pedagogik** innovatsion faoliyatni tashkil etish;
- **Pedagogik** innovatsion tafakkur yuritish orqali ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarining oqilona tanlab olish;
- mutaxassislik bilan bog'liqlikda innovatsion ta'lim texnologiyalarini real amaliyot bilan uyg'unlashtirishga erishish;
- **Pedagogik** innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ommalashtirish **malakalarini egallashi**;

Tinglovchi:

- innovator, tʻyutor, ingilator va fasililatorlik faoliyatini samarali amalga oshirish;
- innovatsion taʻlim muhitini boshqarish;
- innovatsion taʻlim texnologiyalariga asoslangan oʻquv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- talabalarning izlanishli-ijodiy faoliyatga jalb etish **kompetentsiyalarni egallashi lozim.**

Modulni tashkil etish va oʻtkazish boʻyicha tavsiyalar

“Pedagogik texnologiyalar” modulini oʻqitish jarayonida quyidagi innovatsion taʻlim shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qoʻllanilishi nazarda tutilgan:

- zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida interfaol maʼruzalarni tashkil etish;
- virtual amaliy mashgʻulotlar jarayonida keys, loyiha va assisment texnologiyalarini qoʻllash nazarda tutiladi.

Modulning oʻquv rejadagi boshqa modullar bilan bogʻliqligi va uzviyligi

“Pedagogik texnologiyalar” moduli boʻyicha mashgʻulotlar oʻquv rejasidagi **“Pedagogik texnologiyalar”** oʻquv modulining **“Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari”** va **“Zamonaviy taʻlim va innovatsion texnologiyalar boʻyicha ilgʻor xorijiy tajribalar”** submodullari hamda **“Taʻlim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qoʻllash”** oʻquv moduli bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning xalq taʻlimdagi oʻrni

Modulni oʻzlashtirish orqali tinglovchilar innovatsion taʻlim texnologiyalarini oʻzlashtirish, joriy etish va amaliyotda qoʻllashga doir proektiv, kreativ va texnologik kasbiy kompetentlikka ega boʻladilar.

Modul boʻyicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining oʻquv yuklamasi, soat				Mustaqil taʻlim	
		Hammasi	Auditoriya oʻquv yuklamasi				
			Jami	jumladan			
				Nazaiy			Amaliy mashgʻ ulot

1.	“Pedagogik texnologiya” pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida	4		2	2	
2.	Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi	4		2	2	
3.	Pedagogik texnologiya tamoyillari	4		2	2	
4.	Pedagogik texnologiyaning umumiy tuzilmasi	4		2	2	
5.	Aniqlashtirilgan o’quv maqsadlarini shakllantirish	4		2	2	
6.	O’quvchilarning o’quv-bilish faoliyatini loyihalash	4		2	2	
7.	O’quv maqsadlariga erishilganlikni baholash	4		2	2	
8.	Shaxsga yo’naltirilgan o’qitish texnologiyasi	4		2	2	
9	Modulli va masofaviy o’qitish texnologiyalari	4		2	2	
10	Ta’limning “Loyiha” va “Keys-study” texnologiyasi	4		2	2	
11	O’quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi pedagogik texnologiya	4		2	2	
12	Pedagogik jarayonda foydalaniladigan axborot texnologiyalar, didaktik materiallar va faoliyat mazmuni	2		2		
13	Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish	4			2	
14	PIRLS va TIMS ta’lim sifatini Xalqaro monitoringi	2			2	
15	O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini tashxis etishda interfaol metodlardan foydalanish	2		2	2	
	Jami	54		24	30	

NAZARIY MASHG’ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: “Pedagogik texnologiya” pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida

1. Modernizatsiya jarayoni. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy funksiyalari.
2. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining turlari va o’ziga xos xususiyatlari.

2-Mavzu: Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi

3-Mavzu: Pedagogik texnologiya tamoyillari

4-Mavzu: Pedagogik texnologiyaning umumiy tuzilmasi

5-Mavzu: Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini shakllantirish

6-Mavzu: O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini loyihalash

7-Mavzu: O'quv maqsadlariga erishilganlikni baholash

8-Mavzu: Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi

1. O'qituvchining pedagogik faoliyati va uning ijtimoiy tabiati. Pedagogik mahoratning asosiy komponentlari.
2. Pedagogik texnika - o'qituvchi xulqining boshqarish omili sifatida.
3. Pedagog imiji.
4. Pedagogik boshqaruv.

9-Mavzu: Modulli va masofaviy o'qitish texnologiyalari

1. Rivojlangan davlatlarda davlat va huquqga oid fanlarning mazmuni va uni o'qitishda ilg'or tajribalar.
2. Yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarning ta'lim muassasalarida fanlarining o'qitilishi. Huquq oilalari (romano-german yoki kontinental (Germaniya, Frantsiya, Ispaniya, Italiya), ingliz-amerika (AQSH, Yaponiya, **Xitoyda, Buyuk Britaniyada** hamdo'stlik mamlakatlari), diniy-an'anaviy (Yaponiya, Xitoy) "huquqiy oilalari") to'g'risida.

10-Mavzu: Ta'limning "Loyiha" va "Keys-study" texnologiyasi

1. Texnologik yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etish. Texnologik modulning tarkibiy qismlari.
2. Modulda erishiladigan natijalarni belgilab olish qoidalari (B.Blum taksonomiyasi).

11-Mavzu: O'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi pedagogik texnologiya

1. O'qituvchining pedagogik faoliyati va uning ijtimoiy tabiati. Pedagogik mahoratning asosiy komponentlari.
2. Pedagogik texnika - o'qituvchi xulqining boshqarish omili sifatida.
3. Pedagog imiji.
4. Pedagogik boshqaruv.

12-Mavzu: Pedagogik jarayonda foydalaniladigan axborot texnologiyalar, didaktik materiallar va faoliyat mazmuni

1. “Kompetentlik” tushunchasining mohiyati.
2. Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari
3. Pedagogik kreativlik asoslari.

15-Mavzu: O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini tashxis etishda interfaol metodlardan foydalanish

1. Ta’lim samaradorligini orttirishda tahsil oluvchilarning o’zlashtirgan bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash.
2. Test topshirig’i tarkibi, mazmuni va turlari.

AMALIY MASHG’ULOTLAR MAZMUNI

1-Amaliy mashg’ulot Modelli dasturni yaratish.

1. Axborotni tizimlashtirish va bloklarga ajratish.
2. Modulni shakllantirish. Modul maqsadlarini belgilab chiqish qoidalari asosida ishlanma tayyorlash.

2-Amaliy mashg’ulot O’quv loyihalarini ishlab chiqish va amaliyoga tatbiq etish algoritmi.

1. ta’lim sharoitida qo’llaniladigan o’quv loyihalarining turlarini aniqlashtirish. O’quv loyihagini ishlab chiqish bosqichlarini loyihalash.
2. Mutaxassislik fani bilan bog’liqlikda bir mavzu misolida o’quv loyihagini ishlab chiqish va amaliyotda ko’rsatib berish.

3-Amaliy mashg’ulot Nazorat jarayonini tashkil etish.

1. Nazoratni tashkil etish shakllari (og'zaki, yozma, test).
2. Tanlangan mavzuga oid nazorat ishlarini shakllantirish, shakli va darajasi turlicha bo'lgan testlar va vazifalarni ishlab chiqish.

4-Amaliy mashg'ulot

Talabalarning mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish.

1. Talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish usullarini aniqlash va ularga namunalar ishlab chiqish.
2. Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish usullaridan birini tanlash va undan foydalanishni amalda ko'rsatib berish.

5-Amaliy mashg'ulot

Keys-stadi: nazariya va amaliyot.

1. Keys manbalari, keysni yaratish tamoyillari va bosqichlarini aniqlashtirish.
2. Keys texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil etish algoritmini ishlab chiqish.

6-Amaliy mashg'ulot

O'qituvchining innovatsion faoliyati va texnikasi.

1. Tinglovchilarning fikrlash faoliyatlarini rag'batlantirish usullarini qo'llash.
2. O'qituvchining innovatsion faoliyati asoslari va texnikasi.

7-Amaliy mashg'ulot

O'quv jarayonini tashkil etish va tahlil etishda o'qituvchining pedagogik mahorati, ijodkorligi.

1. Pedagogik mahorat, pedagogik takt va texnika haqidagi bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash.
2. Darsning kompleks tahlili. O'quv jarayoniga kirish, kuzatish va tahlil etish texnikasi.

8-Amaliy mashg'ulot

Pedagogik boshqaruvda o'qituvchining kompetentlik, kreativlik mahorati.

1. O'qituvchining kasbiy imidji, taqdimot qilish san'ati
2. Pedagogik boshqaruv va pedagogik kvalimetriya asoslari amaliyoti.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab

- olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

BAHOLASH MEZONLARI

№	Baholash mezonlari	Maksimal ball	Izoh
1	“Pedagogik texnologiya” moduli bo'yicha	2.5	Loyiha – 1 ball Test – 0.5 ball Mustaqil ish – 1 ball

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



Namuna: An'anaviy va interfaol ta'limning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	interfaol ta'limning kuchli tomonlari	talabanning bilim olishga qiziqishini kuchaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bevosita amaliy faoliyat orqali malaka va tajribaga ega bo'lish....
W	interfaol ta'limning kuchsiz tomonlari	Auditoriyada shovqin ko'tarilishi,
O	interfaol ta'limning imkoniyatlari (ichki)	Mustaqil fikrlash, fikrni ifoda etish va isbotlash, malaka va tajribaga ega bo'lish...
T	To'siqlar (tashqi)	Zamonaviy texnika bilan jihozlangan auditoriya, partalarning noan'anaviy joylashuvi va o'quv qurollarning yetishmasligi

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash;

muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Yangi guruhda dars boshladingiz. Birinchi darsdanoq 3-qatorda o'tirgan talaba luqma tashlab o'rtoqlarini kuldira boshlaydi. Siz unga tanbeh berasiz. U uzr so'raydi, lekin birozdan so'ng yana boshqa harakatlar bilan o'rtoqlari e'tiborini tortadi. Uning qiliqlari shaxsan sizga qaratilmagan bo'lsa-da, darsning borishiga salbiy ta'sir qiladi. Sabr kosangiz to'lib uni darsdan chiqarib yuborasiz. U indamay chiqib ketadi.

Keyingi haftadagi darsingizda huddi shunday holat yuz beradi. Siz rahbariyatga talaba ustidan shikoyat yozasiz va xuddi shu kun gazetalarining birida "O'quvchisi ustidan shikoyat qilgan o'qituvchi o'z kasbining ustasi emas" degan fikrni o'qib qolasiz. Bu fikr sizni o'yantiradi. O'zingiz chora izlashga harakat qilasiz. Talabangiz haqida surishtirasiz. U oilasining yolg'iz arzandasi ekanligi, bunday qiliqlari bilan u boshqa o'qituvchilarni ham bezor qilayotganini aniqlaysiz. Demak, u bu harakatlari bilan aynan sizning darsingizga halaqit berish niyatida emas. Uning tabiati shunday, doimo ota-onasining e'tibor markazida bo'lgan bu arzanda, kursdoshlarining ham e'tiborini qozonish niyatida shunday qilmoqda. Bunday holatni bartaraf etish uchun siz qanday tadbir qo'llaysiz?...

Кейси бажариш босқичлари ва топшириқлар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг(индивидуал ва кичик гуруҳда).
- Педагогик конфликтологияга оид мантларни таҳлил этинг ва ечим топинг (жуфтликлардаги иш).

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim

oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Тест ДАРС –

- А.** Ўқув фаолиятини ташкил этишнинг ягона шакли бўлиб, унда ўқитувчи аниқ вақт давомида турли гуруҳдаги ўқувчилар билан, беқарор дарс жадвали асосида турли хил ўқув шаклларидадан фойдаланган ҳолда педагог-талабанинг ҳамкорликдаги фаолияти ташкил этиладиган жараён.
- Б.** Ўқув фаолиятини ташкил этишнинг асосий шакли бўлиб, унда ўқитувчи ҳаммиша бир гуруҳдаги ўқувчилар билан, барқарор дарс жадвали асосида фаолият ташкил этиладиган жараён.
- В.** Ўқув фаолиятини ташкил этишнинг асосий шакли бўлиб, унда ўқитувчи аниқ белгиланган вақт давомида ҳаммиша бир гуруҳдаги ўқувчилар билан, барқарор дарс жадвали асосида, турли хил ўқув методларидан фойдаланган ҳолда педагог-талабанинг ҳамкорликдаги фаолияти ташкил этиладиган жараён.



МУАММОЛИ ВАЗИЯТ

- Дарс жараёнида эшикдан директор муовини кириб келди ва Сизни зудлик билан директор хўзурига чақираётганини айтди. Мавзу жуда қизиқарли. Сиз дарсни кичик гуруҳларда ўтказмоқдасиз. Сизнинг ҳатти-ҳаракатингиз...



Тушунча таҳлили

- **Анъанавий дарс –**
- **Ноанъанавий дарс -**



Амалий кўникма

- Фанингиз бўйича дарсларингизда қайси инновацион педагогик технологияларни қўллагансиз?

“Тushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: "Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili"

Tushunchalar	Sizingcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
«Texnologiya»	yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib « <i>techne</i> » - mahorat, san'at, malaka va « <i>logos</i> » - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi.	
Metod	1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.	
Metodika	biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar.	
Bilim	haqiqiy borliq umumiy aksini topadi. Talabalar hodisa, voqea, qonuniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganadilar va u ularning yutug'i bo'ladi.	
Ko'nikma	egallagan bilimlar asosida o'zgaruvchan sharoitlarda birorta faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.	
Malakalar	bu, ko'p marta takrorlash natijasidagi mashinal (beixtiyoriy), harakatlardir.	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Passiv, aktiv va interaktiv metodlarning o'xshash va farqlari



“Brifing” metodi

“Brifing”- (ing. briefing-qisqa) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag'ishlangan qisqa press-konferentsiya.

O'tkazish bosqichlari:

1. Taqdimot qismi.
2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. SHuningdek, amaliy o'yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag'ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo'ladi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-Mavzu: “Pedagogik texnologiya” pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida

1. Modernizatsiya jarayoni. Pedagogik texnologiyalarining asosiy funksiyalari.
2. Pedagogik texnologiyalarining turlari va o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch iboralar: *modernizatsiya, innovatsiya, texnologiya, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar.*

1.1. Modernizatsiya - (lotincha - modeme – eng yangi) – takomillashtirilgan, yaxshilangan, yangi talabalarga javob bera oladigan degan ma’noni bildiradi. Ushbu so’z borgan sari hayotning barcha jabhalarida keng qo’llanilib bormoqda. Modernizatsiya jarayoni tahliliga bir qancha yondashuvlar bor:

1. Dixtomik yondashuv. Bunda modernizatsiya jarayoni an’anaviy holatdan zamonaviy holatga o’tish deb qaraladi.

2. Tarixiy yondashuv. Tarixiy taraqqiyot, o’zgarishlar va revolyutsiyalar nuqtai nazaridan talqin etiladi.

3. Instrumental yondashuv. O’zgarish vositalari va usullari nuqtai nazaridan talqin etiladi.

4. Mental yondashuv. Dnyoqarashning va ruhiyatning tarnsformatsiyasi nuqtai nazardan talqin etiladi.

5. TSivilizatsiya. Zamonaviy tsivilizatsiyaning yoyilib borishi nuqtai nazaridan talqin etiladi.

Modernizatsiya paradigma sifatida XX asrning o’rtalarida AQSH da shakllandi. Modernizatsiyaning ikki turi ajratiladi:

A) Organik (Ichki rezervlar hisobiga transformatsiyani o’tkazish).

B) Noorganik (Transformatsiya tashqi davlatlar ishtirokida amalga oshiriladi).

Ta’lim tizimidagi modernizatsiyaga yorqin misol ta’limdagi islohatlardir (ta’limning tuzilishi, mazmuni, shakl va metodlarning tubdan o’zgarishi). Keyingi davrlarda ta’lim tizimidagi o’zgarishlar davlat miqyosida ba’zan esa davlatlararo masala sifatida talqin etiladi. Ta’lim tizimidagi islohatlar ijtimoiy ehtiyoj sifatida qabul qilinishi lozim. U evolyutsion xarakterda hamda revolyutsion xarakterda bo’lishi mumkin. Reformalar ta’limning tanlangan bir tizimida sodir bo’lishi yoki davlat miqyosida barcha ta’lim bosqichlarida sodir bo’lishi mumkin (1917 y, 1958 y, 1984 y, 1997 y).

Ilm-fan va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi jamiyatni iqtisodiy tapaqqiy ettirish bilan bir qatopda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o’zgapishlapning po’y berishiga zamin yapatmoqda. SHuningdek, iqtisodiy sohada bo’lgani singari ijtimoiy, shu jumladan, ta’lim sohasida ham texnologik yondashuvni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

“Texnologiya” yunoncha co’z bo’lib, “techne”–mahopat, can’at va “logos”–tyshyncha, ta’limot, fan ma’nocini anglatadi.“Ta’lim texnologiyaci” ibopacining ma’noci –(inglizcha “An educational technology”) ta’lim japayonini yukcak mahopat bilan can’at dapajacida tashkil etish to’g’picida ma’lymot bepyvchi fan, ta’limot demakdip. Ayni vaqtda mazkyp tyshynchaning ta’pifi hamda yning mohiyati bopacida yagona g’oya mavjyd emac. By nazapiya mohiyatining yopitilishiga nicbatan typli yondashyvlap mavjyd.

“Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko’zlagan o’qitish va bilimlarni o’zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir” (*YuNESKO*).

“Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo’lishning tizimli yig’indisi va tartibini bildiradi” (*M.V.Klarin*).

“Pedagogik texnologiya – o’zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta’riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi”. (*G.K. Selevko*).

“Pedagogik texnologiya – psixologik va pedagogik o’gitlar yig’indisi bo’lib, shakllar, metodlar, usullar, o’qitish yo’llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to’plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi” (*B.T.Lixachev*).

“Pedagogik texnologiya – o’quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi” (*V.P.Bespalyko*).

“Pedagogik texnologiya – rejalashtirilgan o’qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi” (*I.P. Volkov*).

“Texnologiya – ishlov berish, holatni o’zgartirish san’ati, mahorati, malakasi va metodlar yig’indisi” (*V.M.SHepelb*).

“Pedagogik texnologiya – o’qyvjaryayonini texnologiyalashtirib, uningqayta tiklanyvchanligini hamda pedagogik japyayon bapqapoplignini oshipib, by japyayon ishtipokchicining cyb’ektiv xycyciyatlapidan yni ozod qiladi”. (*V.M.Manaxov*).

“Pedagogik texnologiya -tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta’lim shakllarini kulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob’ektiv baholash uchun inson calohiyati hamda texnik vositalarning o’zapo ta’sirini inobatga olib, ta’lim maqcaddapini oydinlashtirib, o’qitish va bilim o’zlashtipish jarayonlarida qo’llanadigan usul va metodlar majmuidir”. (*M.O.Ochilov*).

“Pedagogik texnologiya bu o’qityvchi (tarbiyachi) tomonidan o’qitish (tarbiya) vositalari yordamida o’qyvchilapga ta’sir ko’pcatish va bu faoliyat mahcyli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni” (*N.Saidaxmedov*).

“Pedagogik texnologiya bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqcadga yo’naltipilgan hamda yshby maqcadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japyayonining mazmynidip” (*O’Q.Tolipov*).

Yuqorida keltirib o’tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, pedagogik texnologiyaning ahamiyati avval o’zlashtipilgan nazapiy bilimlap bilan yangi o’zlashtipiladigan bilimlap opacida myctahkam bog’lanishlapning yuzaga kelishi bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- *teng qiymatli (ekvivalent) amaliyot qoidaci*: ta’lim olyvchilapning ta’lim japyayonidagi xatti-hapakatlapi test o’tkazish yoki imtihon davpida ta’lim olyvchi tomonidan tashkil etilishi kytiladigan xatti-hapakatlapga to’la moskeladi;

- *o'xshash amaliyot qoidaci*: ta'lim olyvchilap codip etilishi kytilayotgan xatti-hapakatlapini tashkil etish majbypiyatiga ega bo'lmay, balki mohiyatan shynday bo'lgan shapoitlapda mashq qilish imkoniga ega bo'ladilap;

- *natijalapni aniqlash qoidaci*: ta'lim olyvchiga yning hap bip xatti-hapakatining mazmynini baholash natijalapni bo'yicha ma'lymot bepish, mazkyp shaptga akcapiyat hollapda jopiy nazopatni tashkil qilish japayonida pioya etiladi;

- *pag'batlantipish qoidaci*: talabaning maqbyl xatti-hapakatlapini pag'batlantipib bopish, pedagogik faoliyat japayonida talaba tomonidan codip etilgan calbiy xatti-hapakatlap ychyn ynga tanbeh bepilmaydi, balki ylapni baptapaf etish ictagini yuzaga keltipyvchi amaliy ko'pcatma bepiladi. Macalan, "yana bip marta ypinib ko'p", "yanada chyqppoq o'ylab ko'p", "macalani hal etishning yanada oconpoq yo'li bor, yni topishga ypinib ko'p" va hakoazolap.

1.2. Ta'lim amaliyotida "pedagogik texnologiya" tushunchasi uch darajada qo'llaniladi:

Umumpedagogik (makro) daraja. Mazkur darajaga muvofiq keladigan texnologiyalar yaxlit pedagogik jarayonga tegishli bo'lib, ta'lim tizimining barcha turlarida qo'llash imkonini beradi.

Xususiy-metodik (mezo) daraja. Ushbu daraja o'zida ma'lum bir o'quv fani, alohida ta'lim oluvchilar guruhi, ma'lum ixtisoslikka mansub pedagoglarga yo'nalganlikni aks ettiradi.

Lokal daraja (mikro). Mazkur darajaga tegishli texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining alohida tarkibiy qismi, alohida shaxs sifatlarini shakllantirish, maxsus o'quv ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Real ta'lim amaliyoti ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishinilo'liq tasdiqlamoqda. Biroq ilg'or pedagogik texnologiyalarni oliy ta'lim jarayoniga qo'llash bilan bog'liq bir qator muammolar ham ko'zga yaqqol tashlanmoqdaki, ularni e'tiborga olish va hal etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday dolzarb muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) ta'limda qo'llash uchun mo'ljallangan interfaol metodlar tasnifi va ularning mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi o'quv-uslubiy qo'llanmalarning yetarli emasligi. Garchi respublikamizda pedagogik texnologiyaga doir qator o'quv qo'llanmalar yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, mazkur o'quv qo'llanmalarda oliy ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan interfaol metodlar va ularni qo'llashga doir metodik ko'rsatmalar aniq o'z ifodasini topmagan. Mazkur holat oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining interfaol metodlarni qo'llashga doir ma'lumotlardan to'la xabardor bo'lmasligiga olib kelmoqda. Ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonini kuzatish professor-o'qituvchilar keng qo'llaydigan interfaol metodlar juda kamchilikni tashkil etishini ko'rsatadi. Bunday metodlar sifatida klaster, B-B-B chizmasi, aqliy hujum, "Baliq skeleti" chizmasi, "Qanday? diagrammasi" kabilarni aytib o'tish mumkin;

2) professor-o'qituvchilar interfaol metodlarni qo'llashda metodik qoidalarga to'liq rioya etishlari lozim. Boshqacha aytganda, interfaol metodlar fanning o'ziga xos xususiyati, mavzuning maqsad va vazifalari, talabalarning yosh xususiyatlari, mashg'ulot shakli, auditoriyada maqbul shart-sharoitning mavjudligi kabi jihatlarni aniq hisobga olgan holda qo'llash lozim. Oddiy bir misol: professor-o'qituvchilar, ayniqsa, yosh o'qituvchilar deyarli har bir mashg'ulotida klaster metodini qo'llaydi. Eng qizig'i, mazkur metod orqali o'quv maqsadiga erishish mumkin yoki mumkin emasligidan qat'iy nazar undan foydalanish holati ko'p uchraydi. Bundan tashqari, uch-to'rt doirani chizish orqali tarmoqlar hosil qilish ham mumkin emas. Mazkur metod talabalarning ma'lum bir narsa-hodisa, jarayon yoki tushunchaga oid fikrlarini umumlashtirish, ularni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, klaster metodidan o'tilgan materialni mustahkamlash bosqichidagina foydalanish mumkin. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, interfaol metoddan noo'rin foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga emas, aksinchi mashg'ulot sifatini pasaytirishga olib keladi;

3) ta'lim texnologiyalarini yaratish uchun professor-o'qituvchilar o'quv maqsadlarini pedagogik vazifalarga aylantirish, uni kutiladigan natijaga mos holda aniqlash ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim. Barcha mashg'ulotlarning texnologik ishlanmalarini yaratish jarayonida identiv o'quv maqsadlarini vazifalarga aylantirish uchun bir xil fe'l turkumidagi so'zlar (ma'lumot berish, ochib berish, yoritib berish, izohlash kabilar)dan foydalanish o'rinli bo'lmaydi. Buning uchun professor-o'qituvchilar Blum taksonomiyasini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari talab etiladi. Identiv o'quv maqsadlarini o'quv vazifalariga aylantirish ko'nikmasiga ega bo'lmasdan turib, mashg'ulot jarayonini muvafaqqiyatli loyihalashga erishish mumkin emas;

4) ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish an'anaviy o'qitish tizimining muqobili sifatida xizmat qilishi lozim. Chunki barcha auditoriya mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llashga zaruriyat yo'q. Eng asosiysi, texnologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotida kutilgan natijaga erishilishi lozim. Mazkur jarayonda maqsadga erishishga imkon beruvchi istalgan maqbul metodlardan foydalanish mumkin. SHuningdek, professor-o'qituvchilarning texnologik yondashuvni noto'g'ri talqin etgan holda, ma'ruza mashg'ulotlarini talabalarning o'zlari tomonidan o'tib berilishini talab qilishlari ham maqsadga muvofiq emas. Ma'ruza mashg'ulotiga nisbatan bunday yondashuv uning samaradorligini ta'minlashga to'liq xizmat qilmaydi. Ta'limda o'qitishning asosiy shakli sifatida ma'ruzaga qo'yiladigan metodik, shu jumladan ma'ruzachiga qo'yiladigan talablar mavjud. Mazkur talablarning to'liq bajarilishi professor-o'qituvchi (lektor) orqaligina samarali amalga oshishi mumkin. Faqat anjuman-ma'ruza mashg'ulotlarini talabalarning ma'ruzalari asosida tashkil etish imkoniyati mavjud va bu sohada respublikamizda katta tajriba to'plangan. Bunda ham anjuman-ma'ruzani tashkil etish va o'tkazish talablariga rioya qilinishi lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi metodik vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish lozim:

1) professor-o'qituvchilar "interfaol metod", "strategiya", "texnologiya" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniq tushunib olishlari lozim. Mazkur tushunchalarning mohiyatini to'g'ri anglay olmaslik ularni qo'llashda ko'plab metodik qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Oliy ta'limda asosiy e'tibor o'qitish jarayonini loyihalash (texnologik model) va rejalashtirish (texnologik xarita)ga, ya'ni texnologizatsiyaga qaratilishi kerak;

2) Ta'limda fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda metodik qoidalar va ko'rsatmalarga rioya qilinishi kerak. Aniq metodik ko'rsatmalarga rioya etish orqali interfaol metodlarni samarali qo'llash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi;

3) pedagogika malaka oshirish tarmoq markazida "Pedagogik texnologiya" modulini o'qitishda asosiy e'tiborni professor-o'qituvchilarni o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtira olish ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishga qaratish lozim;

4) fanlar bo'yicha ta'lim texnologiyalarini yaratishda xilma-xillik, ijodiylik, innovatsion yondashuvlarga asoslanish, bir qolipga tushib qolishdan saqlanish maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonda fanlarning, mashg'ulot shakllari, mavzularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish o'rinli bo'ladi;

5) ta'lim muassasalarida "Innovatsion markaz" faoliyatini yo'lga qo'yish, mazkur markaz kuch va imkoniyatlaridan professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida foydalanish ehtiyoji mavjud. Ta'limga innovatsiyalar kirib kelishi dialektik tavsifga ega bo'lgani uchun ham yangiliklarni yaratish, joriy etish, o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishga doir vazifalarni muvafaqqiyatli hal etishga xizmat qiluvchi innovatsion markaz faoliyatini yo'lga qo'yish har jihatdan samarali bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Modernizatsiya nima?
2. Ta'limda innovatsiya nima bilan izohlanadi?
3. Modernizatsiya jarayoni tahliliga qanday yondashuvlar mavjud?
4. Ta'lim tizimidagi modernizatsiya nima?
5. Pedagogik texnologiya nima?
6. Pedagogik texnologiyaning YuNESKO ta'rifini aytib bering
7. Ta'lim amaliyotida "pedagogik texnologiya" tushunchasi qanday darajalarda qo'llaniladi?
8. Qanday interfaol metodlarni bilasiz?

Foydalangan adabiyotlar

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. – T.: CHo'lpon, 2005.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
3. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006.

2-Mavzu: Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi

Pedagogik texnologiya atamasi va bu sohadagi ilk ishlanmalar AQSH da XX asrning 50-yillarida paydo bo'ldi. 15-20 yildan so'ng pedagogik texnologiya barcha rivojlangan mamlakatlar ta'lim sohasini qamrab oldi. So'nggi yillarda pedagogik texnologiyadan foydalanish geografiyasi uzluksiz kengayib bormoqda.

Pedagogik texnologiyaning ilk paydo bo'lish davri ilmiy-texnik taraqqiyotning (ITT) jadallashuvi bilan belgilanadi. Mazkur davrdagi fanning natijalari kashfiyotlar oqimlari bo'lib, ular asosida texnika va texnologiyalarning yangi avlodlari yaratildi. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar o'zining ilmtalabligi, originalligi, murakkabligi, yuqori sifati va sermahsulligi bilan ajrala boshladi. Ishlab chiqarish usuli va shart-sharoiti uzluksiz jadal o'zgarib bordi, ta'lim tizimi oldiga tamoman yangi talablar qo'yila bordi.

Ilmiy texnik taraqqiyot jadallashuvi va ta'lim tizimga u tomonidan qo'yiladigan talablar nima bilan belgilanadi?

Birinchidan - fanning o'sib borayotgan o'rni bilan, XX asrda ayniqsa uning ikkinchi yarmida, fanning taraqqiyoti eng yuqori sur'atlarga erishdi. Har 10-15 yilda fan faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari ikki martadan oshib bordi. SHuning uchun, fanning taraqqiyot qonuni eksponenta qonuniga bo'ysunadi deb faraz qilinadi. Hozirgi zamonda fan taraqqiyotining yuqori sur'atlari, aqliy mehnatni avtomatlashtirish orqali saqlab turilmoqda.

Fanning jadal taraqqiyoti, ilmi-texnik informatsiyaning tegishli taraqqiyotiga olib keladi.

Fanning eksponenta bo'yicha rivoji uning ko'chkisimon rivojini anglatadi. Zero ilmiy-texnik informatsiyaning ham rivoji ko'chkisimon jarayon hisoblanadi.

Informatsiya oqimining ko'chkisimon o'sish sur'atini saqlash, uchun zamonaviy telekommunikatsion informatsion tizimlar yaratilmoqda va faoliyat ko'rsatmoqda.

Ko'rinib turganidek, fan va axborot hozirgi zamondagi o'sish sur'ati va hajmi, 20-30 yil oldingi ularning holatidan keskin farq qiladi.

Fan tarqqiyoti, bu oliy ma'lumotli mutaxassislarning faoliyati doirasiga kiradi. SHuning uchun, oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlovchi tizim - zamonaviy axborot oqimini o'zlashtirish, ilmiy-tadqiqot malakalari, individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnikaviy axborotlar va o'quv-ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

Ikkinchidan - zamonaviy fanning ko'chkisimon rivoji 2, 3 va undan ortiq ma'lum fanlar ulanmalarida yangi fanlar paydo bo'lishi bilan ham ta'minlanadi. Masalan: biofizika, biokimyoy, informatika, fiziko-kimyoviy mexanika va ko'pgina boshqa fanlar. Fan daraxti paydo bo'ladi. Ma'lum fanlar ulanmalarida tug'ilgan yangi fan - yangi ilmiy yo'nalishlar, muammolar, mavzular va ilmiy masalalarni o'z ichiga oladi. Bu masalalarni oliy maktabning iqtidorli bitiruvchilari yechishi lozim.

SHuning uchun kadrlar tayyorlovchi tizim original va noan'anaviy fikrlash qobiliyatini, o'z ustiga tizimli va mashaqqat bilan ishlash malakalarini rivojlantirishi lozim.

Talaba ajablana olishi, hayratlana olishi lozim, shundagina u boshqalarni o'zining ijodiy mehnati bilan hayratlantira oladi.

Uchinchidan – fanning ko'chkisimon rivoji va shu qonuniyat bilan o'suvchi ilmiy-texnikaviy axborot, axborotni uzatish va qayta ishlash tezligini oshirishga olib keladi, uning asosida esa kompyuter texnikasi yotadi. Zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanishni, o'qitishni individuallashtirishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. SHunday ekan, zamonaviy o'qitish tizimining markaziy o'zagi – o'qitishni individuallashtirishdir. SHuning uchun o'qitishni individuallashtirish, mustaqil ta'lim, masofaviy o'qitish tizimi texnologiyalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish dolzarb masalaga aylanib qoldi.

To'rtinchidan, muhandislik yechimlar turining keskin ko'payishi ilmiy-texnik taraqqiyotining xususiyati hisoblanadi. Materiallar, texnologik jarayonlar,

mashinalar konstruktsiyalarining zudlik bilan almashinuvi sodir bo'ladi. Boshqaruv tizimining avtomatlashuv darajasi oshadi va ilmiy yutuqlar natijasini ishlab chiqarishga qo'llash muddatlarini qisqaradi. Masalan, telefon aloqasi kashfiyoti bilan undan foydalanish orasidan 56 yil o'tgan bo'lsa, radioga-35, televizorga-14, atom energiyasiga-6, tranzistorga-5 yil o'tdi. Hozirgi paytda bu muddat, odatda 1 yilga ham yetmaydi.

SHunday qilib, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlovchi tizim, ularda ishlab-chiqarish, texnika texnologiyaning uzluksiz o'zgarib turuvchi sharoitiga zudlik bilan moslashuvchanlikni shakllantirishga yo'naltirilishi zarur. Ular bilimlar harakatlanuvchanligi, tanqidiy fikrlash, ijod va kasbiy faoliyatida epatchilik kabi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.

Beshinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitida uning yuksalib boruvchi talablariga javob beradigan mutaxassislarni oliy maktabda tayyorlash uchun o'qitishni jadallashtirish, o'qitishda inson organizmining, uning ongini butun imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur bo'ladi. Ya'ni, timsolli-tomosha o'qitishni jadallashtirish lozimdir. Bu esa, o'qitish jarayonida axborotlar berishda, o'quv materialini tizimlash va turkumlash usullari, o'qitishni kompyuterlash, o'quv televideniyasidan foydalanish va h.k.ni anglatadi.

Oltinchidan, har bir odam tabiatan individumdur, ya'ni u faqat o'ziga xos o'qish va o'rganishdagi zehni, qobiliyatga ega bo'ladi. Demak, zamonaviy o'qitish tizimining vazifasi o'quvchining individual qobiliyatini hisobga olish va rivojlanishtirishdan iborat bo'lishi kerak.

Ilmiy-texnik taraqqiyoti jadallashuvi sharoitida ishlab chiqariladigan mahsulotlar ilmtalab, originalligi, murakkabligi, yuqori sifati va sermahsulligi bilan ajralib turadi. Mashina va jihozlar unumdorligi, ular puxtaligining ko'p marotaba oshganligi tufayli mahsulot birligiga sarf qilinadigan energiya ham bir necha marotaba kamayadi. Bu sharoitlar kadrlar tayyorlash tizimiga tegishli talablar qo'ya boshladi.

Ilmiy texnika taraqqiyot jadallashuvidan oldingi davrda ishlab chiqariladigan mahsulot yuqori puxtaligi va sifati bilan ajarilib turmas edi. SHuning uchun mahsulotlar uchun kafolatli ta'mir muddatlari o'rnatilgan edi, kafolatli ta'mir esa ishlab chiqarish korxonalari hisobidan bajarilar edi. Mazkur

sharoitlarda an'anaviy o'qitish tizimi, ishlab chiqarish talabiga javob berar edi. Ishlab chiqarish sharoitining o'zgarishi bilan an'anaviy pedagogik asosida tayyorlangan mutaxassislar sifati qo'yiladigan talablarga javob bera olmay qo'ydi.

O'qitishning ommaviyligi o'sib kelayotgan bir sharoitda ko'pchilik kadrlarni tayyorlash sifatda darajasi, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini o'sish sur'atidan, ya'ni ilmiy-texnik taraqqiyoti jadallashuvidan, ancha orqada qola boshladi.

Fan, texnika va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida o'qitish tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi:

a) individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnik axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish;

b) original va nostandart qarorlar, ishchanlik - qobiliyatlarini rivojlantirish;

v) o'qitishni individuallashtirish (o'qishga turli qobiliyatga ega bo'lgani uchun);

g) bilim harakatchanligi, tanqidiy fikrlashganda moslashuvanlik va ijod, ishlab chiqarishning zudlik bilan o'zgaruvchan sharoitiga mos epchillikni shakllantirish.

Bayon etilgan, bir tomondan pedagogik texnologiyaning sodir bo'lish zaruriyatini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan u ilmiy texnik taraqqiyot jadallashuvining mahsuloti ekanligini namoyish etadi. SHu sababli, ilmiy texnik taraqqiyot tezlashuviga 2...3 va undan ortiq fanlar ulanishlarida paydo bo'ladigan yangi fanlarning ta'sirini alohida ta'kidlash zarur bo'ladi. Pedagogik texnologiya ham ikkita fan – «pedagogika» va «texnologiya»lar ulanishida paydo bo'lgan yangi fanlardan biridir. Pedagogik texnologiya ilmiy texnika taraqqiyoti jadallashuvi talabalari darajasida kadrlar tayyorlashuvi talablari darajasida kadrlar tayyorlashni ta'minlash imkoniyatini yaratdi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari tegishli davr talablari asosida ham paydo bo'ladilar.

«Pedagogika» bu keksa avloddan hayot uchun zaruriy bo'lgan ijtimoiy tajribalarni yosh avlodga berish va uning yosh avlod tomonidan faol o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rganadigan fandır.

Jamiyat taraqqiyoti, har qaysi yangi avlod o'zining o'tmish avlodidan qolgan merosni egallab uni boyitib keyingi avlodga qoldirish orqali vujudga keldi. «Pedagogika» atamasi qadimgi Yunoniston (Gretsiya)da paydo bo'ldi, uning negizini «pedagog» so'zi tashkil etadi. Qadimgi Yunonistonda talabani maktabga kuzatib boruvchi, mashg'ulotlarda va ulardan tashqarida unga xizmat qiluvchi qulni pedagog deb ataganlar. Yunoncha «peydogog» («paydi» - bola, «gogos» - yetaklovchi) so'zi, «bola yetaklovchi» ma'nosini anglatadi.

SHunday qilib, «pedagogika» yunonchadan «bolani yetaklash» so'zini bildiradi. Maktabda mashg'ulotlarni o'qituvchilar – «didiskala»lar o'tar edi («didasko» - men o'qiyman, keyinroq «didaktika» - o'qitish nazariyasi paydo bo'ldi). Muqqadam bilimning bu sohasi falsafa fani negizida amalga oshiriladi edi.

XVIII asrning boshlarida ingliz faylasufi va tabiatshunos olimi Frensis Bekon (1561-1626 yy.) tomonidan, pedagogika falsafa bilimlari tizimidan chiqarib olingan edi. U 1623 yili «Afzalliklar va fanlarning ko'payishi haqida» chop etilgan asarida, pedagogikani bilimning alohida sohasi sifatida «O'qishga qo'llanma» haqidagi fan deb atadi. O'sha asrda pedagogikaning mustaqil fan sifatidagi maqomi, mashhur chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1542-1670 yy.) asarlari va obro'yi tufayli mustahkamlanadi. U o'zining mashhur «Buyuk didaktika» asarida, o'quv ishining nazariyasi va uni tashkil etishining asosiy masalalarini ishlab chiqdi.

Pedagogikaning predmeti bu o'rganish, ta'lim, tarbiya sharoitida inson shaxsining yo'naltirilgan rivojlanish va shakllanish jarayoni hisoblanadi.

SHunday qilib pedagogika, inson shaxsining rivoji va shakllanish mohiyatini o'rganish haqidagi fan sifatida namoyon bo'ladi. SHu asosda o'qitish va tarbiya nazariyasi va uslubiyoti maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida belgilanadi. Pedagogika fan sifatida, ommaviy o'qitishni tashkil etishni talab etadigan kengaytirilgan ishlab chiqarish yo'lga qo'yilayotgan davrda, paydo bo'ldi.

«Texnologiya» materiallar yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berish va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fandır.

«Texnologiya» fani ham qadimgi yunonistonda paydo bo'ldi va u ikkita so'z – «texne» - san'at va «logos» - o'rganish – dan iborat. Ushbu davrda, bu hunarmandning predmetni tayyorlash san'atiga, ustoz rahbarligi ostida (mashqlar tufayli) o'zining tirishqoqligi va tabiiy iqtidori orqali erishishini anglatar edi.

Hunar o'rganish individual tarzda amalga oshiriladi edi. Ko'pgina hollarda, hunar sirlari, faqat avloddan avlodga, oilaviy qarindosh urug'larga o'rgatilar edi. Avloddagi uzilishlar, ma'lum bir kasb sirlarini yo'qolishiga olib kelgan hollar ham mavjud. Misol tariqasida, qadim SHarqdagi machit madrasalarning tashqi va ichki devorlar, gumbazlaridagi naqshlar tabiiy bo'yoqlarining tayyorlanish sirlari yo'qolib ketganini keltirish mumkin. Bu bo'yoqlar hanuzgacha odamlarni o'zining tabiiyligi, chiroyi, ranglari jilosi, takrorsizligi, o'zidan nur sochib turishi, uzoqqa chidamliligi bilan maftun etib kelmoqda.

«Texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelishiga – XVII asrda, sanoat ishlab chiqarishini paydo bo'lishi metallurgiya, mashinasozlik, jumladan sanoat jihozlari, paroxod, parovoz, o'q otuvchi qurollarni ishlab chiqarish jadal rivojlana boshlanishi, sabab bo'ldi.

Bunday murakkab va mehnattalab mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, faqat texnologik jarayoni aniq ishlab chiqilgan texnologik hujjatlar asosida tashkil etish mumkin edi. Ushbu hujjatlarda – xom ashyo, materiallar, yarim fabrikat va mahsulotlarni olish, ishlov berish, qayta ishlash yo'llari va usullarining murakkab jarayonlarini o'zaro bog'liq, ketma-ket va aniq bajariladigan harakat, operatsiyalarga bo'lib, rejalashtirilgan natijaga erishish tasvir etiladi. Bu kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishga asos bo'ladi. Bizning davrda, texnologiya deb, ma'lum ishni bajarish san'ati tushuniladi. Uni egallash uchun u aks ettirilgan texnologik hujjatlarni chuqur o'rganish taqozo etiladi.

«Texnologiya»ning fan sifatida shakllanishi, texnologiyani ko'paytirish va shu asosda mutaxassislarni ommaviy tayyorlash, hamda ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatini keltirib chiqardi.

Асрлар

1.1-rasm. Pedagogika fanning shakllanishini va rivojlanishning bosqichlari blok-sxemasi

XX asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvining beqiyos va yuqori talablariga javob beradigan pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi ham shu qonuniyatga bo'ysunadi.

Jamiyat va ta'limning rivoji – bu ikkisi yagonalashgan tizim bo'lib, uni «jamiyat-ta'lim» tizimi sifatida tasvirlash mumkin. Bu tizim ishlab chiqarish usuli, o'qitish vositalari va o'qitish tizimi omillari bilan belgilanadi (1.2-rasm)



1.2-rasm. «Pedagogik texnologiya» fanining vujudga kelish ob'ektivligi

Ushbu rasmda XX asrning ikkinchi yarmida «Pedagogik texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelishi va uning asosiy rivojlanish bosqichlari, o'qitish tizimining rivojlanish ob'ektivligi yaqqol aks ettirilgan. Zamonaviy rivojlanish, fan jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanganligi bilan belgilanadi.

SHu bilan birga, pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi, o'qituvchilik faoliyati ham, boshqa ishlab chiqarish faoliyatlaridek, faoliyat turi ekanligi bilan bog'liqdir. Pedagogik texnologiya atamasi, hali standartlashtirilmagan, shuning uchun uning anchagina ta'riflari mavjud. Misol tariqasida pedagogik texnologiya (PT) ning bir necha ta'riflarini keltiramiz.

PT – bu, o'quv vaziyatlarini loyihalash asosidagi o'qituvchi va o'quvchilarning algoritmlashtirilgan faoliyatidir. (Пальчевский, Фридман)

PT – bu, oldindan loyihalashtirilgan o'quv-tarbiya jarayonini, amaliyotga tizimli va ketma-ket tadbiq etilishidir. (V.P.Bespaľko)

PT – bu, mashinalar vositasida o'qitish san'ati yoki pedagogik faoliyatni muhandislik san'atiga o'xshatishdir. (G.Пыин)

PT – bu bilimlar o'zlashtirilishining barcha jihozlari muammolarini tahlil etish va rejalashtirish, ta'minlash, baholash va muammolar yechimini boshqarishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish usullari va vositalari, odamlar, g'oyalarni o'z ichiga oluvchi majmualashgan jarayondir (AQSHning pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi).

Pedagogik texnologiyaning ko'p ta'riflari mavjudligi, bu atamaning standartlashtirilmaganligini inobatga olib, unga nufuzli tashkilot YuNESKO tomonidan berilgan ta'rifiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiya bu - texnikaviy va insoniy manbalarni va ularning o'zaro bog'liqligini inobatga olib, o'z oldiga ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yadigan, butun o'qitish va bilim olish jarayonini, yaratish, qo'llash va aniqlash bo'yicha tizimli qarashdir.

Keltirilgan bu ta'rifdan, pedagogik texnologiyaning – tizimlilik va samaradorlik kabi majburiy belgilarini alohida ta'kidlash mumkin. Bunga pedagogik texnologiyaning majburiy tashkil etuvchi belgilarining yana birisi qayta takrorlanishni qo'shish lozim bo'ladi. Yuqoridagilarni e'tiborga olib, pedagogik texnologiyani - maqbullashtirilgan, unifikatsiyalashtirilgan va qayta takrorlanadigan o'quv jarayonini yaratish va qo'llash deb, xarakterlash mumkin.

Pedagogika fanida nazariy bilimlar va amaliy tajribaning yirik massivi to'plangan. Ammo XX asrning ikkinchi yarmigacha birorta ham mashhur pedagog o'zlari erishgan yuqori natijalarga, boshqalarni ham erishishga imkoniyat beradigan, qayta takrorlanadigan pedagogik tsiklni yarata olmadi.

Buning sababi shundan iboratki, buyuk pedagoglarning usullari ma'lum darajada pedagog shaxsini o'z ichiga oladi. Pedagogika muammolariga bag'ishlangan kitoblar, pedagogika fani talab qilganidek «ijobiy misollar», «qattiq» o'rnatilgan haqiqatlar, tamoyillar, qoidalar va qonunlarni o'rgatar edi. Bu kitoblarni o'qigan barcha, talabalar bilan «qanday» ishlashni, mashg'ulotlarni «qanday» o'tkazish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni «qanday» olib borish kerakligini o'zlashtiradi, ammo ularning ko'pchiligi «shunday» ishlash kerakligini uddalay olmas edi. Bu haqda rus pedagog-olimi A.S. Makarenko, quyidagi fikrni bildirgan edi: “Bizning pedagogik faoliyat hech qachon texnologik mantiqqa asoslanmagan, faqat axloqiy pandu-nasihatlar mantiqiga tayanadi. Aynan shuning uchun bizda ishlab chiqarishning barcha muhim bo'limlari: texnologik jarayon, operatsiyalar hisobi, konstruktorlik ishi, uskunalari, me'yorlash, nazorat, cheklanishlar, yaroqsizga chiqarish ishlari mavjud emas”. Bayon etilganlarning barchasi qayta takrorlanadigan pedagogik tsiklni yaratish uchun zarurdir. Ammo uni yaratish juda murakkab masaladir. Ushbu masala birinchi bo'lib, AQSHda yechildi, bunga mashhur olimlar B.Blum, D.Kratvoli, N.Gronlund, J.Kerrol, J.Blok, L.Anderson va boshqalarning tadqiqotlari orqali erishildi. Ular, rejalashtirilgan natijalarga

erishishni kafolatlovchi qayta takrorlanadigan pedagog tsiklii pedagogik texnologiya ishlab chiqdilar.

XX asrning ikkinchi yarmida, ilmiy texnik taraqqiyotning talablari asosida paydo bo'lgan pedagogik texnologiya, uning jadallashuvi uchun xizmat qilmoqda.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi – ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va talabalar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.

Pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi – ommaviy ta'lim sharoitida «oddiy» pedagoglarga o'qitishning yetarli samarasiga erishishni ta'minlovchi, o'quv jarayonini yaratish hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning predmeti – o'quv jarayoining o'zi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning ob'ekti –o'quv jarayonining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya, ta'lim tizimidagi mustaqil fan sifatida o'quv jarayonning barcha elementlarini – o'quv grafigini va o'quv rejasini tuzish, o'qitish va uning natijalarini baholashni - o'z ichiga oladi (1.5-rasm)

Oliy ta'lim muassasining o'quv jarayoni o'quv materialini to'la o'zlashtirish tamoyillariga tayanishi lozim. Ya'ni fanning, o'quv dasturiga muvofiq, o'quv materialini barcha talabalar tomonidan o'zlashtirilishi shartdir.

O'quv materialining to'la o'zlashtirilish tamoyili - har qaysi mavzu bo'yicha bilim olish faoliyatining o'rnatilgan darajasiga erishishni anglatadi.

Ko'p sonli xorijiy tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, «talabalarning to'la o'zlashtirishi» tushunchasi, guruhdagi har bir talaba tomonidan o'quv materialining kamida 80% ga o'zlashtirishini anglatadi. To'la ishonch bilan, isbotsiz aytilish mumkin-ki, bunga faqat o'ta mahoratli professor va dotsentlar

erishishi mumkin. Oddiy professor-o'qituvchilar tarkibida, o'quv materialining bu darajadagi o'zlashtirilishiga, faqat iqtidorli talabalargina erishishi mumkin. Ommaviy ta'lim sharoitida talabalarning to'la uzlashtirishiga qanday qilib erishish mumkin? Bunda uchta yo'lni ko'rsatish mumkin: *birinchi yo'l* – bu o'zlashtirish mezonini pasaytirish, ko'pchilik hollarda shu yo'l tanlanadi. SHu sababdan hozirgi paytda o'quv materialini, o'quv fanini 55% ga o'zlashtirgan talaba ijobiy baholanadi. Tabiiyki, bu yo'lning istiqboli yo'qdir.

Ikkinchi yo'l – professor-o'qituvchilar tarkibini faqatgina oliy darajali, ajoyib professor va dotsentlardan tuzish. Ularning har biri o'ziga xos o'qitish usullari va yo'llari tufayli, tayyorgarlik darajasi butunlay har xil bo'lgan talabalarning to'la o'zlashtirishini ta'minlaydilar.

Haqiqatda, bir guruhda kirish sinovlari fanlari bo'yicha o'zlashtirish darajasi 30% dan 90% va undan ortiq bo'lgan talabalar o'qishi mumkin. Bu yo'l haqiqatdan uzoq va ideallashtirilgan yo'ldir. Barcha talabalar iqtidorli bo'lmaganidek, o'n minglab professor-o'qituvchilar tarkibi ham xuddi shunday, iqtidorli, oliy darajali bo'la olmaydi.

Uchinchi yo'l – o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyani joriy etish bo'lib, ular o'qish va o'rgatishning asosiy elementlarini o'rnatib, o'zida, oliy darajadagi pedagog olimlarning o'qitishdagi uslub va yo'llarini mujassamlashtiradi.

Ishlab chiqarishda, malakasi uncha yuqori bo'lmagan oddiy ishchi tayyor texnologiya bo'yicha oliy sifatli mahsulot ishlab chiqarganidek, oddiy o'qituvchi pedagogik texnologiyani qo'llab ajoyib natijalarga erishadi.

Pedagogik texnologiya, o'quv materialining to'la o'zlashtirish kafolatini beradi, ya'ni har bir talaba o'quv fani dasturini kamida 80% ni o'zlashtiradi.

Pedagogika talabalar guruhi bilan ishlashda yuqori natijaga erishish yo'llarini doimo izlab kelgan va o'z vosita, usul va shakllarini hamma vaqt takomillashtirib kelgan. Ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyatini beruvchi, qandaydir usul yoki usullar majmuasini topish ilinjida bo'ldi. Buning natijasida turli uslubiyotlar paydo bo'ldi. Pedagogik tajriba to'planishi bilan yangi,

samaraliroq uslubiyotlar yaratila bordi. Ammo, yangi uslubiyotlarni yaratish borasidagi amaliy ishlar natijasi, o'sib borayotgan talablarga hamma vaqt ham javob bermas edi. O'qitishdagi doimiylik, rejalashtirilgan natijalarga erishish kafolati kabi muammolar o'z yechimini kutar edi.

O'quv maqsadlarning noaniq va **mujmal** qo'yilishi, shu bilan bog'liq o'qitishdan kutilgan natijaning yo'qligi, an'anaviy ta'lim maktabining kamchiligi hisoblanadi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida, oliy ta'lim muassasasi, o'qitishdan kutiladigan natija yo'qligidek, ortiqcha daxmazaga yo'l qo'ya olmaydi. O'qitish natijasi aniq va erishiladigan bo'lishi lozim, aks holda, tayyorlangan mutaxassislarga ehtiyoj ham noaniq bo'ladi va ular talab qilib olinmaydi. An'anaviy o'qitish maktabiga tayangan oliy ta'lim muassasasi, hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalarning aniq talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga qodir bo'lmaydi. SHuning uchun, o'quv jarayonini takomillashtirish, talabalar qiziqishini oshirish, o'qitish natijalarini yaxshilashning eng samarali yo'llarini izlash ishlari uzluksiz davom ettirilmoqda. O'qitish sifatini oshirish, ob'ektiv zaruriyatga aylanganligi tufayli, alohida o'qitish uslublaridan pedagogik texnologiyaga o'tish muammosining dolzarbligi ortib bormoqda. O'quv jarayonini birinchi marta ushbu tarzda talqinlash Ya.A.Komenskiyning pedagogikasida uchratish mumkin.

Komenskiy asarlarida, inson tabiati qonuniyatiga uyg'unlashgan o'qitish tartibini izlash urinishlari mavjud. O'qitish texnologiyasining asosiy elementlari - dars tamoyili, sinf tamoyili, o'qitishning predmetligi, o'quv materialini bayon etishning umumtartibi – aynan Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan edi, bu esa uning pedagogik tizimining individual jamiyatdagi uning ommaviy so'ngra umumiy ta'limi ehtiyoji uchun uzoq yillar xizmat qilishini ta'minlaydi. U o'qitishning yagona takomillashgan usulini ko'z oldiga keltirib, uni soat mexanizmining aniq va ravon ishi bilan taqqoslagan edi. Komenskiy Ya.A. bu haqda - «O'qitish san'ati - vaqt, fanlar va usullarning mohirona taqsimotidan boshqa hech narsani talab etmaydi. Agar biz bu taqsimotni aniq o'rnatish olsak, maktab yoshlarini ularning soni qanchaligidan qat'iy nazar, tipografiya asboblari bilan minglab qog'ozlarni nafis harflar bilan bezatishdan yoki Arximed mashinasini o'rnatib, uylar, minoralar yoki xilma-xil og'irliklarni ko'chirishdan, yoki minglab kemada okeanni kesib o'tib, Yangi Olamga (Amerikaga) jo'nab ketishdan ham osonroq bo'ladi. Hamma narsa soatdek yengillik bilan, shunday

zavq va shavq bilan oldinga yuradiki, shunday zavq va shavq bilan unga o'xshash avtomatni kuzatamiz va nihoyat, faqat bunaqa epchil asbobda erishilishi mumkin bo'lgan ishonch bilan unga qaraymiz. SHunday qilib, Oллоh taolo haqi, soatga to'la o'xshagan shunday maktab tuzilmasini ishlab chiqishga urinib ko'ramiz».

O'quv maqsadlarining turli-tumanligi, ta'lim mazmuni elementlarining xilma-xilligi (o'quv material turlari), talabalarning individual xususiyatlari oliy darajadagi yagona o'qitish usuliga erishishga to'sqinlik qiladi.

O'qitish amaliyotida, o'qitishning turli tuman yo'llari, usullari va shakllari keng qo'llaniladi. Ammo o'qitishda yagona samarali (integral) yondashuv sohasidagi izlanishlar jadallik bilan hamon davom ettirilmoqda. O'qitishni, o'ziga xos ishlab chiqarish texnologik jarayonga aylantirishi mumkin bo'lgan didaktik yondashuvlar, didaktik vositalarni izlash davom etmoqda. 50-yillarda o'quv jarayoniga mashinalarni kirib kelishi va tarqalishi bilan, pedagogik texnologiyalarni rivojlanish bosqichi boshlandi. Bu paytda sanoat ishlab chiqarishida yangi ilmiy yo'nalish – sistemotexnika paydo bo'ldi va u «odam-mashina» majmualarini yaratish masalalarini yechib berdi. Ushbu ilmiy yo'nalishda «odam-mashina» tizimida odamning rolini aniqlash muhim ahamiyatga ega, hozirgi kunda ushbu muammo yechimining uch bosqichini ko'rsatish mumkin:

Birinchi bosqich - «mashina hamma narsaga qodir» tamoyilini qo'llab, mashinani odamga bog'liqsiz loyihalash.

Ikkinchi bosqich - vazifalarni odam va mashina o'rtasida taqsimlash tamoyili asosida, odam bilan mashinaning o'zaro ta'sir jarayonlarini o'z ichiga oluvchi mashinalarni loyihalash.

Uchinchi bosqich - odamni texnik tizimning tarkibi sifatida qarashdan voz kechish bilan belgilanadi, loyihalash asosiga odam faoliyati tamoyili qo'yiladi, ya'ni odam faoliyati tizimi loyihalana boshlandi. Faoliyat tizimi o'zining funktsional birliklaridan iborat mazkur bosqich, industrial jamiyat o'rniga kelayotgan, informatsion yoki postindustrial deb ataluvchi yangi jamiyatning

rivojlanayotgan elementlariga yo'naltirilgan. Yangi jamiyatning taraqqiyoti, bilimlarni to'plash va qayta ishlash jarayonlarida inqilobiy shartni qo'yadi, bunda markaziy rolni telekommunikatsiyalar tarmog'iga ulangan kompyuter bajaradi. Informatsiya (axborot) bosh tovar mahsulotga aylanadi, uni yaratish qobiliyati esa mamlakatning strategik resursiga aylanadi. Ishlab chiqarishda yangi yuqori texnologiyali tarmoqlar paydo bo'ladi, mavjudlarining esa shakli keskin o'zgaradi.

Ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar, yangi turdagi xodim paydo bo'lishiga olib keladi. Xodimning bu turi o'zining quyidagi sifatlari bilan ajralib turadi: u ko'proq mustaqil, ijodiy fikr qiladi, endi u mashinaga qo'shimcha qism hisoblanmaydi. Qo'l asboblari to'plamiga ega bo'lgan sanoatlashmagan davrning, hunarmand ustasidek, yangi intellektual ishchilar, bilimlar, mahorat, axborotlar kabi ma'naviy asboblarga to'plamiga egalar.

Intellektual ishchilar doimiy o'zgarishlar, muammolar, vaziyatlarga moslashuvchan bo'ladilar. Ular o'z ishlarini qattiq nazoratsiz, o'z hohishlariga ko'ra, ijodiy, erkin bajarishga moyil bo'ladilar. Ular o'zlarida iste'dodli shaxsni ifoda etadilar. Qaerda intellektual ishchi faoliyati uchun sharoit yaratilgan bo'lsa aynan shu yerda ishlab chiqarish raqobatbardosh va daromadli bo'ladi. Bunda ishlab chiqarishning sifati va samaradiligiga ishchilarning muskul energiyasi, texnik malakasi orqali emas, balki uning omilkorligi, ma'lumoti, harakatchan fikrlash qobiliyati va ishga ijodiy munosabati orqali erishiladi.

Postindustrial jamiyat xodimini shakllantirish uchun, jamiyat ishlab chiqarishning yangi talablariga javob beradigan, yangi ta'lim texnologiyasi zarur bo'ladi, yangi turdagi xodim uchun yangi turdagi pedagog mos keladi. Sistema texnika majmuasi taraqqiyotining uch bosqichiga mos, ta'lim tizimida o'qituvchining uch turli maqomi, pedagogik faoliyatning uch turini alohida qayd etish mumkin.

Pedagogik faoliyatning birinchi turi, shu bilan xarakterlanadiki, o'qituvchi o'z ishining ustasi hisoblanadi, nodir bilimlar, ko'nikmalar tashuvchisi, shaxsiy tajribaga, pedagogik qobiliyatga ega bo'ladi (qadimgi davrdagi hunarmandga o'xshash). Uning «asboblari» - yo'llari, usullari individual bo'lib, pedagogik iste'dodining mevasidir, qo'llanmalar, ko'rgazmali va texnik vositalar unga meros qolgan yoki o'zi tomonidan ishlab chiqilgan.

Pedagogik faoliyatning ikkinchi turi, shu bilan xarakterlanadiki, unda o'qitish tajribasi umumlashtiriladi, tizimlashtiriladi va ilmiy fan ko'rinishini oladi. Bunga, kitob chop etishning paydo bo'lishi, pedagogik mehnatning bo'linishi va ixtisoslashuvi sabab bo'ldi. Bu yerda pedagogik jarayon, oqilona tashkil etilgan, o'qitish ma'lum qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu sharoitlar bilimni ob'ektivlashtirish imkonini berdi. O'qituvchi sanoatlashgan (industrial) jamiyatning ishlab chiqarish xodimiga o'xshab, sanoatlashgan (industrial) turdagi xodimga aylanadi.

Pedagogik faoliyatning uchinchi turi shu bilan xarakterlanadiki, u pedagogik texnologiya asosida amalga oshiriladi, o'qituvchining holatini, zamonaviy kompyuterdan foydalanuvchi holati bilan taqqoslash mumkin. O'qitish texnologiyasi kasbiy yondashuv asosida aniqlanadi. Ular odatda, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari hisoblanadi.

«Pedagogik texnologiya» atamasi, ishlab chiqarish - texnologik sohasidan olingan, o'ziga xos ma'lum qoida va tamoyillarga ega bo'lgan, «texnologiya» tayanch iborasini o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish sohasida, mahsulotni tayyorlash uchun, ishlab chiqarishni tayyorlash talab etiladi, u turli xildagi ilmiy-tadqiqot konstruktorlik, texnologik, tashkiliy-rejaviy tadbirlarni qamrab oladi.

Oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayoni ham shunga o'xshash tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash bosqichlari va ishlab chiqarishni tayyorlash bosqichlari juda o'xshashdir.

Ishlab chiqarishni tayyorlashning birinchi bosqichida ilmiy-tadqiqotlar natijasi bo'yicha konstruktorlik tayyorgarligi amalga oshiriladi, ta'lim esa davlat ta'lim standartlari (ta'lim sohasi «konstruksiyasi»ni aniqlovchi) tayyorlanadi.

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga qo'yilgan talabalar; ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasi; ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yilgan malakaviy talablar, o'quv yuklamasining maksimal hajmi; ta'lim muassasalari faoliyati va kadrdar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda yo'l-yo'riqlarini belgilaydi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim sohasi ilmiy tadqiqot ishlari va davlat ta'lim standartlari loyihalarini ishlab chiqish oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlantirish Markazi hamda ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan bajariladi.

O'qitish jarayoni bilan ishlab chiqarish texnologik jarayon taqqoslash asosida – pedagogik texnologiya o'zida o'qitishning zamonaviy samarali shakl va usullarini qamrab olganidek, zamonaviy ishlab chiqarish - texnologik jarayon ham mahsulot tayyorlashning eng samarali usullarini qamrab olishini ta'kidlash mumkin.

Ishlab chiqarishni tayyorlashning *ikkinchi bosqichida* konstruktorlik tayyorgarlik bajarilgandan so'ng ishlab chiqarishning tayyorgarligi amalga oshiriladi, uning o'zagini – detallarni tayyorlash, mashina uzellari va agregatlarini yig'ish, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish - tashkil etadi. Texnologik jarayonlar – texnologik xaritalar va ularning to'plamlari ko'rinishida rasmiylashtirildi. Texnologik jarayonning texnologik xarita ko'rinishida aks ettirilishi, yuqori malakaga ega bo'lmagan ishiga, yuqori sifatli mahsulot tayyorlash imkoniyatini beradi, chunki texnologik xarita mahsulot tayyorlashning barcha bosqichlari – materiallar, tayyorlash, jihozlar, texnologik operatsiyalar mazmuni va ketma-ketligi, ishlov berish sharoitlari, asboblari, vaqt me'yorlari, sifat nazorati vositalari keltiriladi. Ishlab chiqarish - texnologik jarayon, - minimal material va insoniy manbalar xarajatlari, ishlab chiqarishning maksimal mehnat unumdorligi va rentabelligi bilan zaruriy sifatdagi mahsulot olinishiga imkoniyat yaratadi.

Ishlab chiqilgan texnologik jarayonsiz, zamonaviy samarali ishlab chiqarish bo'lishi mumkin emas. Ishlab chiqarish sohasiga o'xshab, ta'lim sohasida davlat ta'lim standartlari yaratilgandan so'ng (ta'lim «konstruktsiya»si barpo etilishi) – texnologik tayyorgarlik amalga oshiriladi (namunaviy o'quv rejalar, fanlarning namunaviy o'quv dasturlarini darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash, laboratoriya jihozlari, o'qitishning texnik vositalari loyihalash, tayyorlash va sotib olish, o'quv ishlarini hisoblash uchun vaqt me'yorlarini

o'rnatish va h.k.), u ta'lim jarayonini tartibga soladi, ta'lim muassasasini va kadrlar tayyorlash sifatini baholaydi.

Pedagogik texnologiya, ommaviy ta'lim sharoitida davlat ta'lim standartlari talablari darajasida kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

O'quv jarayonining texnologik tayyorgarligi o'qitish jarayonini (ishlab chiqarish - texnologik jarayonda, bu mahsulot tayyorlashning texnologik operatsiyalari, uni maqbullashtirish va samaradorligini o'z ichiga oladi. O'qitish jarayonini bixillashtirish (unifikatsiyalash), o'qitishda maksimal samaradorlikka yetishish, pedagogik texnologiyani yaratish va qo'llash orqali erishiladi.

Pedagogik texnologiya negizida, pedagogik ilmiy usul va malakalari, ishlab chiqarishning usul va malakalaridek, o'quv jarayonini ro'yobga chiqaruvchi ob'ektiv mantiqiy imkoniyatlar sifatida mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi, tasavvur yotadi.

Ishlab chiqarish sohasida ushbu imkoniyatlar qanday ro'yobga chiqarilsa, pedagogik ishda ham shunga o'xshash jarayon sodir bo'ladi. Yuqori malakali pedagog o'zining pedagogik qobiliyati tufayli bu imkoniyatlarni aniqlaydi va ularni ishlab chiqadi.

O'qitish jarayonining mavjud ob'ektiv qonuniyatlarni o'rganish va qo'llash, o'qitishda zaruriy natijaga erishish, ma'lum darajada hattoki pedagog va talabaning qobiliyatiga bog'liq emas degan xulosaga olib keladi.

Pedagogik jarayon qanchalik chuqur ishlangan va ob'ektlashgan bo'lsa, uni ro'yobga chiqarish uchun, shunchalik kam qobiliyat talab etiladi. Ushbu, ommaviy ta'limning butun amaliyotida o'z tasdig'ini topdi. Bundan tashqari kompyuterli o'qitishni joriy etish amaliyoti, odamning bevosita ishtirokisiz ham, o'qitishning usul va yo'llari tizimi, amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Pedagogik texnologiyaning xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni yaratiladi va ro'yobga chiqariladi.

Ishlab chiqarish texnologik jarayon ma'lum mahsulot uchun ishlanganidek, xuddi shunday pedagogik texnologiya ham har qaysi fan uchun o'qitish texnologiyasining asosiy elementlarini o'z ichiga olgan umumiy uslubiyot asosida ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyaning afzalligi ham, ahamiyati ham shu bilan belgilanadi. Bu ommaviy o'qitish sharoitida, talabalarni to'la o'zlashtirishini ta'minlovchi yagona to'g'ri yo'ldir.

Pedagogik texnologiya, ishlab chiqarish texnologik jarayondek, rejalashtirilgan natijaga erishishni kafolatlaydi.

3-Mavzu: Pedagogik texnologiya tamoyillari

Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitida, «Pedagogika» va «Texnologiya» fanlar ulashuvida paydo bo'lgan, pedagogik texnologiya mustaqil fanga aylandi. Har bir mustaqil fan o'z mohiyatiga ko'ra uning nazariy asoslarini tashkil etuvchi o'zining tamoyillariga ega bo'ladi, pedagogik texnologiya tamoyillari, «Pedagogika» va «Texnologiya» fanlarining negizini tashkil etuvchi qoidalar yig'indisiga tayanadi. Pedagogik texnologiya maqsadlari, vazifalari, tarkibi, mazmunining tahliliga ko'ra uning quyidagi asosli tamoyillari shakllantirilgan: ilmiylik, loyihalanish, tizimlilik, yo'naltirilganlik, faoliyatli yondashuvlik, boshqariluvchanlik, tuzatuvchanlik, natijaviylik, qayta takrorlanuvchanlik, tejamlilik. Ushbu barcha tamoyillar o'zaro bog'liq bo'lib, biri birini talab etadi va to'ldiradi. Bu tamoyillar asosida o'quv jarayoni tashkil etiladi, ya'ni uning tayyorgarligi va o'qitish jarayoni amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyaning tamoyillarida pedagogik va texnologik fanlarning yutuqlari qamrab olingan. «Pedagogik texnologiya» fani ko'rinishidagi mazkur tamoyillar majmuasi aniqligi, isbot talab etmasligi, amaliyligi tufayli, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ajoyib natijalarni beradi.

1. Ilmiylik tamoyili.

Bu tamoyil har qanday o'quv predmeti, o'quv materiali fanining zamonaviy yutuqlariga tayanishi lozimligini ko'rsatadi. Ushbu tamoyil, eng avvalo o'quv dasturlar, o'quv qo'llanmalar va dasturlarni yaratish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga muvofiq har yili fanlarning ishchi o'quv rejalari va o'quv materiallarini takomillashtirish, muammoli mashg'ulot o'tkazish talab etiladi. Ilmiylik shakli va fanning tili o'rganiladigan predmetlar xarakterining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadilar. Ilmiy axborotni ifoda etilish aniqligi va qat'iyligi, uni ifoda etish tizimi va aloqalariga, juda katta e'tibor qaratishni talab etadi.

Oliy maktabda, ilmiylik birinchi navbatda ob'ektiv olam qonuniyatlarini ochish bilan uzviy bog'liq va fanlararo bog'lanishlar va fanlarning o'zaro ta'sirini shakllanishini talab etadi.

Ushbu tamoyilning Oliy maktabda ro'yobga chiqarishi uchun, barcha o'qituvchilar tomonidan majburiy ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarning olib borilishini va bu ishga talabalarni jalb qilinishi taqozo etiladi. Bu talabalarda ajoyib va nostandart yechimlar qabul qilish, individual va ijodiy ishlash malakalarini hosil qilish, ilmiy adabiyot va axborotlardan foydalanish ko'nikmalarini, ularni tanqidiy fikrlash, bilimlar harakatchanligi, tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish – qobiliyatlarini rivojlanish imkoniyatlarini shakllantiradi. Oliy maktabda o'quv jarayoni doimo harakatdagi jarayondir, shuning uchun u doimiy ravishda nafaqat fan va texnikaning holatini, balki ularning zamonaviy taraqqiyoti barcha xususiyatlarini e'tiborga olishni talab etadi.

2. Loyihalanish tamoyili

Bu tamoyil, pedagogik texnologiyaning eng muhim xususiyatlaridan birini belgilaydi. Loyihalanish tamoyili - bu o'quv jarayonini tashkil etish, hujjatlarini – o'quv jarayoni grafigi; ishchi o'quv reja; fanning ishchi o'quv dasturi; fanning, bo'limlarning, tayanch iboralarining o'quv maqsadlari toifalari; o'qitish jarayoni texnologiyasi, egallangan bilim va malakalarni baholash – oldindan yaratishni anglatadi. Ishlab chiqilgan hujjatlar asosida o'quv jarayoni amalga oshiriladi. Bu hujjatlarning barcha bandlariga rioya etilishi, rejalashtirilgan natijalarga

erishishni kafolatlaydi. Ishlab chiqarish texnikaviy sohada, loyihalanish bazaviy hisoblanadi, ya'ni binolar va inshootlar, mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlari oldindan loyihalanadi.

Mazkur tamoyilning ahamiyatini, shu bilan baholash mumkin-ki, uning asosida pedagogik texnologiyaning ta'rifini keltirib chiqarish mumkin:

Pedagogik texnologiya - bu, amaliyotga samarani tadbiq etiladigan, tegishli tamoyillar asosida ishlab chiqilgan o'quv jarayonning loyihasidir.

3. Tizimlilik tamoyili

Pedagogik texnologiya, o'quv jarayonining barcha elementlarini qamrab olishi bilan alohida ajralib turadi. Tizimlilik tamoyilining mohiyati shu bilan ifodalanadi. O'quv jarayonining barcha elementlari, ularning o'zaro bog'liklik sharti asosida yagona tizim kabi loyihalanadi. Bunda o'quv jarayonning barcha elementlari tuzilmasi, tashkil etilishi va faoliyati – talabalarni o'qitishga rag'batlantiradi.


Bu yerda, o'quv jarayoni va o'qitish jarayoni tushunchalarini aniq ta'riflash zarurligini qayd etmoq, joizdir. Agar bu tushunchalarni ishlab chiqarish sohasi bilan solishtiradigan bo'lsak, ular ishlab chiqarish jarayoni va texnologik jarayon tushunchalari bilan mos keladi. (1.3-rasm). Ishlab chiqarish jarayoni ikki qismdan – ishlab chiqarishni tayyorlash va texnologik jarayonlaridan iborat.

Ishlab chiqarishni tayyorlash qismida - ishlab chiqarilishi ilmiy tadqiqot jihatdan asoslash masalalari yechiladi, mahsulotlarni tayyorlashning konstruktorlik va texnologik hujjatlari tayyorlanadi, tashkiliy-texnikaviy tadbirlar bajariladi.

Ishlab chiqarishning texnologik jarayonida - mahsulotni tayyorlash bo'yicha texnologik operatsiyalar bajariladi.

Ishlab-chiqarish jarayoniga o'xshab, o'quv jarayoni ham ikkita qismdan – o'quv jarayonini tayyorlash va o'qitish jarayonlaridan iborat.

O'quv jarayonini tayyorlash qismida – o'quv jarayoni grafigi va ishchi o'quv reja ishlab chiqiladi, mashg'ulotlar jadvali tuziladi, fanning ishchi o'quv dasturi, o'quv uslubiy materiallar va boshqalar ishlab chiqiladi. O'qitish jarayoni qismida – bilimlar, malakalarga ega bo'lish va ular sifatini baholash amalga oshiriladi.



1.3-rasm. O'quv va ishlab chiqarish jarayonlarini aynan o'xshashligi.

Tizimlilik tamoyilining bazaviy ekanligi, pedagogik texnologiyaning o'qitishning boshqa yondashuvlaridan farq etuvchi asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Ushbu dalil xalqaro nufuzli tashkilot YuNESKO tomonidan pedagogik texnologiyaga fan sifatida berilgan ta'rifda to'laligicha o'z isbotini topdi.

4. Maqsad yo'naltirilganlik tamoyili.

O'quv jarayoni maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Maqsad ham qonun kabi odamning xarakteri va harakat usulini aniqlashi zarur. Buning uchun o'rnatiladigan maqsad, aniq va o'lchaniladigan bo'lishi shart. *Bixeviorizm* g'oyalari tayangan, pedagogik texnologiya aynan shu bilan farq qiladi. Psixologiyada bu yo'nalishning xususiyati – organizmni qo'zg'atishga bevosita bog'liqligini shakl shubhasiz tan olish va uni bu qo'zg'alishga undashdan ibordir.

Bixeviorizm, o'qitish jarayonida kechadigan organizm ichidagi jarayonlarni o'rganmaydi, u faqat tashqaridan kuzatiladigan jarayonlarni (ya'ni pirovard natijani) tahlil qiladi, qo'zg'atish (rag'batlash) va yechimlar orasidagi bog'lanishni o'rganish bilan cheklanadi. Bixevioristchilar, xulqni o'rganuvchi empirik va matematik usullarni yaratishda, oldingi kontsepsiyalarda, faqat ichki aloqa yoki jarayon sifatida qaralgan, harakat toifalarini ishlab chiqishda katta hissa qo'shdilar. Bixeviorizm psixologiya sohasini kengaytirdi va unga tashqi ta'sirlarni kiritdi.


J.Uotson, E.Torndayn, S.Pressi, B.Skinnerlar bixeviorizmning asoschilari edilar.

Pedagogik texnologiyaning maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili – tirik organizm tanasining skletiga o'xshaydi. Umuman o'quv jarayoni uchun, bu tamoyil ahamiyatini baholash haddan tashqari qiyindir. Buning uchun o'qitishning eng ko'p tarqalgan ta'rifini keltirish yetarlidir:

«O'qitish - bu o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatning maqsadga yo'naltirilgan jarayoni bo'lib uning davomida inson ma'lumotli bo'ladi». Ushbu ifodadan, o'qitish sifati, maqsadlarni shakllantirish sifatiga bog'liq ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Pedagogik texnologiyada, maqsadlarni shakllantirish umumiylikdan xususiylikka tizimli yondashish asosida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, mazkur o'quv fanining ma'lum mutaxassisni tayyorlashdagi o'rni va ahamiyati aniqlanadi.

Buning uchun Davlat ta'lim standartidan foydalaniladi, uning asosida fanning umumiy o'quv soatlari o'quv mashg'ulotlari turi – lektsiya, amaliy (seminar), laboratoriya, mustaqil ishlar – bo'yicha bo'linadi. So'ngra, quyidagicha o'quv maqsadlari shakllantiriladi: (1.4-rasm.).



Fanning o'quv maqsadi

1.4-rasm. O'quv maqsadlarning shakllanish piramidasi

O'quv maqsadi faqat bitta ma'noni anglatishi lozim.

5. Faoliyat yondashuvi tamoyili

Ilmiy texnik taraqqiyotning hozirgi bosqichi murakkab yuqori texnologiyalarni qo'llash, ilmtalab mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan xarakterlanadi, bunda nafaqat fan ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Balki ishlab chiqarish fanning jadal rivojlaniga sharoit yaratadi. Bu sharoitlarda, faoliyat yondashuviga tayangan o'quv jarayonning samaradorligi oshadi. O'quv reja, fanlar dasturi, mashg'ulotlar turi bo'yicha o'quv soatlari, mutaxassis faoliyatining batafsil tahlili asosida o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir - hozirgi paytda «yuz bor eshitishdan ko'ra, bir bor ko'rish afzaldir» degan tamoyilga tayanish kamlik qiladi. «Hozirgi zamon sharoitida, o'quv jarayoni «yuz bor ko'rmoqdan ko'ra, bir bor bajarish afzal» degan tamoyilga asoslanib tashkil etilishi kerak. Kasb ta'limi maktabi uchun, bu tamoyil o'ta muhim ahamiyatga egadir.

Mutaxassis faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning nazariy, amaliy bilimlari va malakalari shakllantiriladi. Hozirgi sharoitda, pedagogik fanda mavjud «nazariya va amaliyotning bog'liqlik tamoyili» sifat jihatdan yangi ma'noga «faoliyat yondashuvi tamoyili» ko'rinishida aks ettiriladi. Ushbu tamoyil, nafaqat nazariya va amaliyot bog'liqligini balki ularning o'zaro ta'sirini, o'zaro kuchayishini, o'quv jarayonini mutaxassis ishlab chiqarish faoliyatini hozirgi va kelgusi talabalariga tayanishishini, hisobga oladi.

«Faoliyat» tushunchasining mohiyati o'z ichiga maqsad, vosita va jarayonni o'zini qamrab oladi.

Mutaxassis faoliyatining tahlilida, ushbu tashkiliy qismlar va ularning o'zaro ta'siri inobatga olinishi kerak. Bu o'quv jarayonini samarali tashkil etishga imkoniyat beradi. «Faoliyat» tushunchasining mazmuni nuqtai nazaridan, o'quv jarayoni ham maqsadlari, vositalari, natijasi va jarayonni o'zi

bilan xarakterlanadi. O'quv jarayoni, bo'lajak mutaxassisning o'quv faoliyati sifatida tasvirlanadi.

Umuman olganda, o'quv jarayoni, mutaxassis faoliyatining ko'zgudagi aks tasviridek bo'lishi lozim. Ularning muvofiqlik darajasi, mutaxassis tayyorlashning sifatini belgilaydi.

6. Boshqariluvchanlik tamoyili.

Pedagogik texnologiya o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishishni kafolatlaydi. Bunga, faqat o'quv jarayoni boshqariladigan taqdirdagina erishish mumkin. Boshqariluvchilik tamoyilining ahamiyati shu bilan belgilanadi. Boshqarish – jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o'qitish maqsadlariga erishish dasturini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Mazkur tamoyil o'qitishning joriy natijalarini ko'p bosqichli diagnostik (tashxisiy) tekshiruvlar o'tkazish imkoniyatini, - ko'zda tutadi butun o'qitish davrida o'qitish jarayonini boshqarish asosan didaktik testlardan foydalanib amalga oshiriladi. O'qitish jarayonida didaktik testlardan foydalanish, teskari aloqani ta'minlaydi. Teskari aloqa natijalarining tahlili, ko'zlangan natijaga erishish uchun vositalar va uslublarni o'zgartirish orqali o'qitish jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Boshqarilish tamoyili, o'qitish jarayonini va shu bilan birga uning natijalariga muntazam ravishda tuzatishlar kiritish imkoniyatini beradi.

Sifatli loyihalangan o'quv jarayonining o'qitish jarayonini sifatli boshqarish, rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatidir.

7. Qayta takrorlanish tamoyili

Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida, zaruriy miqdordagi mahsulot tayyorlash, oldindan yaratilgan texnik xujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa, qancha mahsulot ishlab chiqarish kerak bo'lsa, shuncha marta texnologik jarayon qayta takrorlanishini anglatadi. Yaratilgan texnologik hujjatlar mavjudligi tufayli, texnologik jarayonni ko'p marotaba qayta takrorlash mumkin. Ishlab chiqarish-texnikaviy sohadagi ushbu yondashuv. «Texnologiya» fanning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Aynan, shu ilmiy fan materiallarni olish,

ishlov berish, qayta ishlash usullarini yaratish va takomillashtirish bilan shug'ullanadi. Ishlab chiqarishda, texnologik jarayonni amalga oshirish uchun texnologik xaritalar tayyorlanadi. O'quv jarayonini tashkil etishda, qayta takrorlanishi tamoyili ham shunga o'xshash ahamiyatga egadir. Qayta takrorlanish tamoyili, ma'lum fani bo'yicha ishlab chiqilgan pedagogik texnologik xaritaning, turli guruhlarda turdosh ta'lim muassasalarida boshqa sub'ektlar bilan ko'p marotaba (takroriy) qo'llash imkoniyatini anglatadi.

Ko'rinib turganidek, buning uchun, ishlab chiqilgan o'quv hujjatlari, ishlab chiqarish-texnikaviy sohaning texnologik hujjatlari bilan mos kelishi va bir xil talablarga javob berish kerak.

Ushbu maqsadlarda, ya'ni pedagogik texnologiyaning qayta takrorlanishini ta'minlash uchun pedagogik-texnologik xaritalar tuziladi. Bu o'quv hujjatlar fanining har bir mavzusi (moduli) bo'yicha ishlab chiqiladi.

Qayta takrorlanish tamoyili - pedagogik-texnologik xarita asosida, pedagogik texnologiyani ko'p marotaba takrorlanish imkoniyatini anglatadi.

SHunday qilib, takrorlanish tamoyili, pedagogik texnologiyaning mohiyatini – o'qitishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolati bilan uni turli guruhlarda ko'pchilik o'qituvchilar tomonidan ko'p marotaba qo'llash imkoniyatini belgilaydi.

8. Samaradorlik tamoyili

Ushbu tamoyil, pedagogik texnologiya o'qitishning ko'zlangan natijalariga maqbul xarajatlar bilan kafolatli erishish imkoniyatini yaratishini ko'rsatadi. O'quv jarayonining samaradorligiga pedagogik texnologiyaning yuqorida bayon etilgan tamoyillari: - ilmiylik, loyihalash, tizimlilik, maqsadga yo'naltirilganlik, faoliyat yondashuvi, boshqariluvchanlik, qayta takrorlanuvchanlikni amalga oshirib erishiladi.

Maqbullashtirilgan o'quv jarayoni xususiyatlari:

- O'quv jarayoni elementlarini tahlil etish va maqbullashtirish asosida, uni maqsadga yo'naltirilgan, tizimli loyihalash;***

- *Davlat ta'lim standartlari asosida o'quv maqsadlari toifalarini aniq o'rnatish yo'li bilan bilimlar va malakalarni o'zlashtirilish darajasi maqbullashtirilgan Bu bilan ta'limning ommabopligiga va o'quv dasturlarini bajarilishiga erishiladi;*
- *Bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtirilishining tizimligi, ketma-ketligi va mustahkamligi, muntazam diagnostik testlar o'tkazilishi va o'qitish jarayonini boshqarilishi, zamonaviy axborot vositalaridan foydalanilish orqali ta'minlanadi;*
- *SHaxsga-yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini qo'llanilishi – talabalarni faollashtirish, shaxsni rivojlantirish, o'quv vaqtidan maqbul foydalanishni ta'minlaydi.*
- *Bir marta tuzilgan o'quv hujjatlari asosida o'quv jarayonini ko'p marotaba takrorlash imkoniyati orqali pedagogik texnologiyada iqtisodiy samaraga erishiladi.*

4. -Mavzu: Pedagogik texnologiyaning umumiy tuzilmasi

Pedagogik texnologiya, o'z tamoyillariga, binoan, tegishli tabiiy qobiliyatga va zaruriy o'qituvchilik ish tajribasiga ega bo'lgan yetuk pedagoglar tomonidan loyihalanadi. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari, qayta takrorlanadigan o'rgatuvchi tsikl sifatida ro'yobga chiqariladigan o'quv jarayonini yaratishga imkon beradilar.

Qayta takrorlanadigan o'qitish shakli sifatida, qo'llaniladigan pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibi (tuzilmasi) 1.5-rasmda tasvir etilgan. Pedagogik texnologiya quyidagi asosiy elementlardan iborat:

- ◆ O'ta aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish. Ularni o'lchash va baholash mezonlarini o'rnatish;
- ◆ O'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan, o'quv jarayonini ishlab chiqish va aniq tasvirlash;
- ◆ Butun o'quv jarayonini, o'qitish natijalariga kafolatli erishishga qaratish;


Pedagogik texnologiyalarni yaratish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, o'ta aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish uchun, amerikalik pedagog-olim B.Blum taksonomiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'lchov

mezonlarini o'rnatish va ularni baholash ishlab chiqilgan diagnostik testlar yordamida bajariladi.

Bunda, har bir o'quv materialining minimal o'zlashtirilish darajasini belgilash muhit ahamiyatga ega. Butun o'quv jarayoni, unga qaratilgan taqdirdagina, o'quv maqsadlariga erishish mumkin bo'ladi.

O'quv jarayonini o'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirish, o'quv rejasini ishlab chiqishdan boshlanadi. Birinchi navbatda o'quv rejadagi har bir fanning, mutaxassis tayyorlashdagi o'rni va va ahamiyatini aniq o'rnatish zarur. Bu esa, Davlat ta'lim standartlari va mutaxassis faoliyatining chuqur tahlili asosida bajariladi. O'quv fanining mutaxassis tayyorlashdagi roliga ko'ra, mashg'ulotlar turlari – ma'ruzaviy, amaliy (seminar), laboratoriya, mustaqil ishlar orasidagi munosabatlar o'rnatiladi.

Yo'nalish fanlari uchun amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga ajratilgan o'quv soatlari ma'ruzaviy soatlardan ko'p bo'lishi kerak, chunki bu yerda olingan bilimlarni qo'llash, tahlil etish, sintez, baholash



1.5-rasm. «Pedagogik texnologiya» ning blok-sxemasi

darajasida bo'lishi muhimdir. Ya'ni, mutaxassis faoliyati uchun zarur bo'lgan malakalarga ega bo'lishi lozim. Boshqa turdagi o'quv fanlari uchun mashg'ulotlar turlari orasidagi munosabat o'zgacha nisbatlarda rejalashtiriladi.

SHu bilan bir qatorda Oliy maktab o'quv jarayonining tashkil etish samaradorligiga, auditoriya soatlari va mustaqil ish uchun ajratilgan soatlar orastdagi nisbatlarni maqbullashtirish ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim kursi oshishi bilan mustaqil ishlash malakalari va zaruriyati oshib boradi. Zero, ta'lim kursi oshishi bilan, malakalarni shakllantirish mutaxassis kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarish talablari oshib boradi.

O'quv jarayonining tashkil etish samaradorligiga ta'sir etuvchi, keyingi omil, o'quv grafigini maqbullashtirish hisoblanadi. O'qitish jarayonining samaradorligi nuqtai nazardan, bir haftaga ajratilgan auditoriya soatlarning eng kam miqdori to'rt soatni tashkil etishi kerak. Haftalik auditoriya soatlari bundan kam bo'lgan fanlar uchun o'quv jarayonini blokli tashkil etish tavsiya etiladi. O'quv maqsadlariga erishishda, o'quv jarayonining muhim tarkibiy elementi sifatida, o'qitish jarayonini samarali tashkil etishga alohida o'rin ajratiladi. SHaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari samarali hisoblanadi. O'qitishning ushbu texnologiyalari, talabaning tabiiy qobiliyati darajasida fanlarni o'zlashtirish uchun sharoit yaratadilar, shaxs rivojiga imkoniyat tug'diradilar.

O'qitishning rejalashtirilgan natijalariga kafolatli erishish, o'qitish jarayonini texnologik tashkil etish va boshqaruvchanligi orqali ta'minlanadi.

O'qitish jarayoni sifati, olingan bilim va malakalarni muntazam joriy diagnostik testlar o'tkazish, o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar vosita va usullari yordamida tuzatishlar kiritish, orqali ta'minlanadi. Rejalashtirilgan natijalarga erishilganlik, yaknuniy nazorat orqali baholanadi.

Pedagogik texnologiya, ishlab chiqarish-texnikaviy sohaning jarayonlariga xos barcha texnologik belgilarga ega, shu jumladan uning qayta takrorlanishi, ushbu belgi, tuzilgan pedagogik-texnologik xaritalarni qo'llash

orqali ta'minlanadi. SHuning uchun pedagogik texnologiyada, o'qitish natijalarini rejalashtirish va unga kafolatli erishishni ta'minlash imkoniyati mavjud.

Pedagogik texnologiyaning farqli xussiyatlari va afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ***o'quv jarayonning qayta takrorlanish imkoniyati;***
- ***uzluksiz teskari aloqani ta'minlash, o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritish o'rgatuvchi tsikllarning mavjudligi;***
- ***o'qitish natijalarini rejalashtirish va unga erishishni kafolatlaydi.***

Tayanch iboralar:

Pedagogik texnologiya, «jamiyat-ta'lim» tizimi, o'quv materialni to'la o'zlashtirish, ilmiylik tamoyili, loyihalanish tamoyili, tizimlilik tamoyili, maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili, faoliyat yondashuvi tamoyili, boshqaruvchanlik tamoyili, qayta takrorlanish tamoyili, samaradorlik tamoyili, pedagogik texnologiyaning slok-sxemasi, pedagogik-texnologik xarita, maqbullashtirilgan o'quv jarayon.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik texnologiya fanining paydo bo'lishi vaqtini aytib bering.
2. Pedagogik texnologiya fanining paydo bo'lishi davrni izohlab bering.
3. Ilmiy-texnik taraqqiyoti jadal rivojlanish davrida o'qitish tizimiga qo'yiladigan talablarni aytib bering.
4. «Jamiyat-ta'lim» tizimining rivojlanish bosqichlarini izohlab bering.
5. «Pedagogik texnologiya» iborasining ta'rifini tushuntirib bering.
6. «Pedagogik texnologiya» fanining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
7. O'quv materialni to'la o'zlashtirish tamoyilini tushuntirib bering.
8. Pedagogik texnologiyaning tamoyillarini aytib bering.
9. Ilmiylik tamoyilini izohlab bering.
10. Loyihalanish tamoyilini izohlab bering.
11. Tizimlilik tamoyilini izohlab bering.

12. Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyilini izohlab bering.
13. Faoliyat yondashuvi tamoyilini izohlab bering.
14. Boshqaruvchanlik tamoyilini izohlab bering.
15. Qayta takrorlanish tamoyilini izohlab bering.
16. Samaradorlik tamoyilini izohlab bering.
17. «Pedagogik texnologiya»ning blok-sxemasini tushuntirib bering.
18. Pedagogik texnologiyaning farqli xususiyatlari va afzalliklarini tushuntirib bering.
19. Pedagogik-texnologik xaritaning ahamiyati nimada?
20. Bixeviorizm g'oyalarni izohlab bering.
21. Maqbullashtirilgan o'quv jarayonini xususiyatlarini aytib bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. XX asrning o'rtasida vujudga kelgan jadallashtirilgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning xususiyatlarini va ularin ta'lim izimiga ta'sirini o'rganish.
2. Jamiyat va ta'limni rivojlanishini o'zaro bog'liqligini izohlab berish.
3. Pedagogik texnologiya tamoyillarining talabalar tomonidan o'quv materialini to'la o'zlashtirishida xizmat qilishini ochib berish.
4. Bixeviorizm g'oyalarni izohlab berish.
5. Maqbullashtirilgan o'quv jarayonni xususiyatlarini izohlab berish.

5-Mavzu: Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini shakllantirish

O'quv maqsadiga erishilganligini tekshirish uchun ishonchli usul bo'lgandagina, pedagogda uni baholash imkoniyati bo'ladi. Aynan shu bilan, ya'ni aniq qo'yilgan maqsad va maqsadga erishilganligini baholashning ishonchli usul mavjudligi bilan, pedagogik texnologiya an'anaviy pedagogikadan ajralib turadi. O'quv fanlarining an'anaviy o'quv dasturlarda maqsadlar odatda «tushunmoq», «o'zlashtirmoq» kabi fe'llarni qo'llab umumiy ifodalanadi. Aniq qo'yilmagan maqsadlarga erishilganligini baholash imkoniyati bo'lmaydi. Pedagoglar maqsadlarni odatda qo'yidagicha qo'yadilar (M.V.Klarin bo'yicha):

- O'quv maqsadini o'rganiladigan mazmun orqali aniqlash. O'quv maqsadini bu usulda qo'yish bilimning fan mazmuniga yo'naltirilganligidan darak beradi. Masalan: beshinchi mavzu mazmunini o'rganing! O'quv maqsadi bunday qo'yilganda, maqsadga erishganligini tekshirish imkoniyati bo'lmaydi!.
- O'quv maqsadini pedagog faoliyati orqali aniqlash, o'quv maqsadini bu usulda qo'yilganida, pedagog diqqat markaziga o'z faoliyatini qo'yadi. Masalan: talabalarni avtomobilning pnevmatik tormozlarning ishlash printsiplari bilan tanishtirish. Maqsadni ifodalashidan ko'rinib turibdiki, bu maqsad haqiqiy o'qitish natijasi bilan bog'liq emas. O'quv maqsadi bunday qo'yilganida, maqsadga erishganligini baholash umuman hisobga olinmagan.
- O'quv maqsadlarini talabaning ichki rivojlanish (aqliy, hissiy, shaxsiy...) jarayonlari orqali aniqlash. Ushbu usulda bir necha fanlar (masalan: umumta'lim fanlari) yoki alohida fan bo'yicha umumlashgan ta'lim maqsadlari aniqlanadi. Masalan: korxonaning moliya faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Bu usul bir mavzu yoki mavzuning tayanch tushunchalari doirasiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Bu usulda alohida bir mashg'ulot bo'yicha aniq maqsad qo'yib bo'lmaydi, demak o'qitish natijalarini baholash imkoniyati ham bo'lmaydi.
- O'quv maqsadini talabalar faoliyati asosida belgilash. O'quv maqsadini bunday qo'yganda, darsni rejalashtirish va aniqligi nazarda tutiladi. Ammo bunda ham eng muhim narsa, kutilajak natija hisobga olinmaydi. Masalan: dars maqsadi – korxonada balans daromadini aniqlash bo'yicha masalalarni yechish. Bu holatda qo'yilgan maqsadga erishishni belgilovchi mexanizm nazarda tutilmagan.

Pedagogik texnologiya negizida aniq qo'yilgan maqsadlarga ketma-ket yo'naltirish, yaxlit o'quv jarayonini qamrab olgan tezkor aloqa va talaba xatti-harakati orqali o'qitish yotadi.

Talabalar xatti-harakati orqali o'qitish – pedagogik texnologiyalar falsafasining negizidir.

Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlarni qo'yish usuli, bu o'quv maqsadlarining talaba xatti-harakatlari bilan ifodalangan o'quv natijalari orqali shakllantirishdan iboratdir.

Bunda pedagog yoki boshqa ekspert talaba xatti-harakatini aniq ko'rishi yoki o'lchashi mumkin. Talabalar xatti-harakatlari orqali ifodalangan rejalashtirilgan o'quv natijalarini to'la tashxislash va o'qitishni qayta takrorlanish imkoniyat yaratish uchun, o'quv maqsadlari shundan aniq qo'yilishi kerakki, unga erishilganligini ikkilanmasdan aniqlash mumkin bo'lsin.

Ba'zan ularni identifikatsion o'quv maqsadlari deb ham ataydilar. Maqsadni to'la identifikatsiya qilish g'oyasi asosida, talabalar faoliyatini an'anaviy umumiy qilib emas, balki aniq kuzatiladigan, o'lchamli qilib ifodalash nazarda tutiladi.

O'quv maqsadi tushunarli, aniq, identifikatsiyaga moyil bo'lishi kerak.

Identifikatsiyalangan o'quv maqsadini ifodalashda ishlatiladigan fe'llar, o'rgatilgan talaba xatti-harakatini aks ettirishni kerak: - belgilamoq, guruhlar, tuzmoq, ajratmoq, hisoblamoq, isbotlamoq, soddalashtirmoq, qismlarga ajratmoq, taqqoslamoq, tizimga solmoq va boshqalar.

Bunda o'quv maqsadlarni to'la tashxislash o'qitishda esa qayta takrorlanish imkoniyati paydo bo'ladi. Qayta takrorlanish - bu pedagogik texnologiyaning asosiy majburiy talablaridan biridir.

Maqsadni identifikatsiyalash g'oyasi o'quv faoliyatini aniq, kuzatiladigan o'lchanadigan xatti-harajatlar atamalari orqali izohlashni talab qiladi. Bunday texnologiya va bunday yondashish Amerikada eng rivojlangan psixologiyaning yo'nalishi – bixeviorizm (Behavior- xulq) ta'sirida rivojlandi. Psixologiyaning bu yo'nalishi psixikani (ruhiyatni) faqat uning tashqi ko'rinishlari (harakat va nutq), ya'ni kuzatiladigan xatti-harakatlari asosida o'rganadi. Aniq maqsadlarni shakllantirish uchun har bir bilim sohasi (tabiiy fanlar, matematika va boshqalar) bo'yichai alohida fe'llar ro'yxatini tuzish lozim.

Maqsadlarni aniqlashtirishda, ularni ifodalashda xatti-harakatni va uning natijasini belgilaydigan fe'llarni qo'llash lozim.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, identifikatsion maqsad, kutilajak natijani mutlaqo, to'liq tavsifini bermaydi, ammo mazkur vositalar yordamida erishilish mumkin bo'lgan maksimal natijani belgilaydi. O'qitish natijalarini qanday qilib xatti-harakatlar tiliga aylantirish mumkin? Bunga quyidagicha erishish mumkin:

- ◆ O'quv fani bo'yicha toifalarga va ketma-ket darajalarga bo'lingan o'quv maqsadlari tizimini yaratish. O'quv maqsadlarining bunday tizimlari pedagogik taksonomiya nomini olgan (yunoncha taxis – tartib bilan joylashtirmoq, nomos - qonun).
- ◆ Pedagog noaniq, umumiy ta'riflarni almashtirishi uchun, o'quv maqsadlarini izohlashning aniq ravshan tilini yaratish.

Bugungi kunda eng rivojlangan taksonomiyalardan biri amerikalik pedagog olim B.Blumning tizimi hisoblanadi. B.Blumning taksonomiyasi o'quv maqsadlarining aniqlashtiribgina qo'ymay, balki ularni tartibga ham soladi. O'quv maqsadlarini aniq toifalash pedagogga o'z harakatini bosh maqsadga yo'naltirishga va o'quv materialini aniq tushuntirishga imkon yaratadi. B.Blum bo'yicha o'quv maqsadlarining asosiy toifalari: bilish, tushunish, qo'llash, analiz (tahlil), sintez va baholash (2.1-jadval).

2.1-jadval

B.Blum bo'yicha o'quv maqsadlarning asosiy toifalari

<i>N^o</i>	<i>O'quv maqsadlarning asosiy toifalari</i>	<i>Umumlashtirilgan o'quv maqsadlar turi namunalari-talaba</i>
I	<i>Bilish</i> Bu toifa o'rganilgan materialni konkret faktordan boshlab butun bir nazariyagacha esda saqlash va qayta tiklashni anglatadi.	Ishlatiladigan terminlarni biladi, konkret faktorni biladi, uslublar va jarayonlarni biladi, asosiy tushunchalarni biladi, qoida va tamoyillarni biladi
II	<i>Tushunish</i> Uning ko'rsatkichi, materialni bir shakldan boshqa shaklga o'tkazilishi (ifodaga), materialni interpretatsiyasi	Og'zaki materialni interpretatsiya qiladi, sxema, grafik diagrammalarni interpretatsiya qiladi, og'zaki materialni materialni matematik ifodaga o'tkazadi, mavjud materialga asoslanib kelajagini

	(tushuntirish, qisqa bayoni) yoki hodisa va voqealarning kelajagini oqibatlarini (natijalarni) bashorat qilish.	taxminan bashorat qiladi.
III	<i>Qo'llash.</i> Bu toifa o'rganilgan materialni konkret sharoitlarda va yangi vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini anglatadi. Bunga qoidalar, usullar, tushunchalar, qonunlar, tamoyillar, nazariyalarni qo'llash kiradi.	Tushunchalar va tamoyillardan yangi vaziyatda foydalanadi. Qonun va nazariyalarni konkret amaliy vaziyatda ishlatadi, usullar va jarayonlarni to'g'ri qo'llashni namoyish etadi
IV	<i>Tahlil</i> Bu toifa o'rganilgan material tarkibini bo'laklarga bo'lib, uning tuzilmasini yaqqol ko'rsatish ko'nikmalarini anglatadi. Bunga butun qismlarini hisoblash, ular orasidagi bog'liqlikni aniqlash yaxshilik tamoyillarini anglash kiradi.	Yashirin tahminlarni belgilaydi. Mantiqiy xatolar va kamchiliklarni ko'radi, fakt va natija o'rtasida farqni aniqlaydi, olingan natijalar ahamiyatini baholaydi.
V	<i>Sintez.</i> Bu toifa elementlardan, bo'laklardan yangilikka ega bo'lgan yaxlitlikni yaratish ko'nikmasini anglatadi. Bunday yangi mahsulot: ma'ruza ish rejasi, umumlashtirilgan majmuasi bo'lishi mumkin. Tegishli o'quv natijalari sxema va tizimlarni tuzishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatni taqozo etadi.	Hajmi katta bo'lmagan ijodiy ishlar yozadi. Eksperiment rejasini tuzishni taklif etadi. Bu yoki u muammoni yechish rejasini tuzish uchun turli sohalardagi bilimlarini qo'llaydi.
VI	<i>Baholash.</i> Ushbu toifa bu yoki u o'rganilgan materialni konkret maqsad uchun baholash malakasini anglatadi. Baholash aniq mezonlarga tayanishi lozim.	Yozma matn shaklida tuzilgan materialning mantiqiyligini baholaydi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, u yoki bu faoliyat natijasining muhimligini baholaydi

Pedagogik texnologiyada B.Blumning taksonomiyasi o'quv maqsadlari toifalariga mos fe'llar yordamida qo'llaniladi.

B.Blum taksonomiyasi bo'yicha o'quv maqsadlari toifalariga mos keluvchi fe'llar namunalari

№	O'quv maqsadlari	Fe'llar	
1.	Bilish	Qaytarib aytish Qayd qilish Yozmoq	ifodalash farqlash takrorlash
2.	Tushunish	Dalillar keltirmoq Almashtirmoq Aniqlamoq, belgilamoq Tushuntirmoq	o'tkazish, aylantirish o'zgartirib berish surat bilan ko'rsatish izoh berish, ochib tashlash.
3.	Qo'llash	Tadbiq etish Hisoblab chiqarish Namoyish etish Foydalanish, o'rganish.	aniqlash bajarish hisoblash amalga oshirish, yechish
4.	Analiz	Keltirib chiqarish Ajrati ko'rsatish Differentsiyalash Tasniflash Taklif etish	oldindan aytish qismlarga ajratish taqsimlash tekshirish guruhlash
5.	Sintez	Kashf etish Umumiylashtirish Rejalashtirish Ishlab chiqish	tizimga solish, qo'shish ulamoq tuzish loyihalash
6.	Baholash	Diagnostikalash Isbotlash Asoslash O'lchash	baholash, tekshirish nazorat qilish, taqqoslash, solishtirish, qiyoslash

	Ma'qullash	
--	------------	--

Ushbu pedagogik taksonomiya ishlab chiqilgan davrdan hozirgi kungacha fan, texnika, texnologiya sohasida ulkan inqilobiy taraqqiyotlar amalga oshirildi. XX asrning ikkinchi yarmida olingan ma'lumotlar, insoniyatning to'la tarixi davomida to'plangan bilimlarning 3 / 4 qismini tashqil etadi. Ilm-fan rivojining ko'chkisimon o'sishga olib kelmoqda. Ilmiy ma'lumotlarni hajmini va murakabligini jadal o'sib turishini inobatga olib o'quv maqsadlar taksonomiyasiga "tasavvur qilish" o'zlashtirish pog'anasini kiritish to'g'ridir. Hozirgi kunda ilmiy-texnika taraqqiyotning jadal sur'atlarni saqlash oliy ta'lim tizimi bitiruvchilarning eng yuksak vazifasidir. Buni ta'minlash uchun butun dunyo ushbu sohada islohotlar amalga oshirilmoqda. Birinchi navbatda oliy ta'lim ikki bosqichli bo'lmoqda: bakalavriat va magistratura. Masalan Bolon'ya deklaratsiyasiga binoan 29 Yevropa davlatlari 2010 yilga YeSTS kredit texnologiyaga asoslangan ikki bosqichli oliy ta'lim tizimiga o'tadilar.

Oliy ta'limning ikkinchi bosqichi bo'lmish magistraturada o'quv jarayon o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turishi muqarrar. Ushbu xususiyatlar zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablari asosida vujudga kelmoqda. Bugungi iqtisodiyotning poydevori ilmiy-texnika taraqqiyoti hisoblanadi. Uni jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga korxonalar, firmalar, kompaniyalar, barcha muassasalar orasida mavjud bo'lgan raqobat asos bo'lib kelmoqda.

Raqobat esa muntazam ravishda ilmiy-texnikaviy muammolarni tug'diradi.

Magistrning vazifasi ushbu muammolarni aniqlash va yechimini ishlab chiqishdan iboratdir. Bunday ko'nikmalarni magistraturada o'qish davrida egallash lozim. SHuning uchun ham magistraturada darslar keys-stadiy shaklida o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Keys-stadiy darslarida muammoni talaba o'zi aniqlaydi, shakllantiradi va yechimini asoslab tavsiya qiladi.

Keys-stadiy darslarda taqdim etadigan holatlarga, voqiyalarga talaba o'z munosabatini shakllantiradi. Demak bu yerda o'quv maqsadni yangi pog'onasi vujudga kelmoqda – munosabat. Ko'rinib turibdiki yuqorida bayon etilganlar asosida 8 –pog'onali o'qitish maqsadlar taksonomiyasi vujudga kelmoqda :

Tassavur; bilish; tushunish; ko'llash; tahlil; sintez; baholash; munosobat.


O'quv fani bo'yicha o'quv maqsadlarni aniqlashtirish bu taksonomiya asosida uch bosqichda o'tkazish tavsiya etiladi:

Birinchi bosqichda har bir mavzu bo'yicha tayanch iboralarni aniqlash lozim. Odatda bu 3...5 tayanch iboralar yoki atamadan iborat. Tayanch iboralar, atamalar, tushunchalar yig'indichi mavzuning asosiy mazmunini, uning mohiyatini belgilaydi. Bir fan bo'yicha tayanch iboralar, atamalar, tushunchalarning umumiy soni bir necha o'nlikdan, bir necha yuztagacha bo'lishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda fan, bo'lim, mavzu bo'yicha o'quv maqsadlar toifasini aniqlash lozim.

O'quv maqsadlarning bunday bo'linishi, ishlab chiqarishda texnologik jarayonni bosqichma-bosqich, operatsiyalarga, bo'linmalarga bo'lib bajarilishiga o'xshaydi.

O'quv maqsadlarini aniqlashtirish tabiiyligi, o'quv maqsadlarning majmuasi «o'quv maqsadlar daraxtini» shakllantirish bilan belgilanadi.



1. Daraxtning asosiy tubi fanning o'quv maqsadi;
2. SHoxlari – bo'lim (modul)larning o'quv maqsadi;
3. SHoxchalari – mavzular o'quv maqsadi;
4. Barglari – tayanch iboralarning o'quv maqsadi.

2.1-rasm. O'quv maqsadlar «Daraxti».

O'quv maqsadlar toifalari o'quv materialining o'zlashtirilishi darajasini belgilaydi. Masalan: ba'zi tayanch tushunchalarni (usul, tamoyil, ko'rsatkich,

koefitsient, atama, ta'rif, qonun, teorema) talaba bilishi darajasida (materialni esda tutish) o'zlashtirish kifoya, boshqarini qo'llash – darajasida (o'quv materialini muayyan vaziyatda qo'llash malakasi), uchinchilarini baholash – darajasida (o'quv materialini ahamiyatini muayyan maqsadlar uchun baholash, xulosalash malakasi) va boshqalar.

Uchinchi bosqich o'quv maqsadlarga erishilish mezonlarini belgilash lozim, ya'ni maqsadni shunday ifodalash kerakki, unga erishilganligini adashmasdan aniqlash mumkin bo'lsin. Bu qaysi sohada (o'quv jarayonida yoki ishlab chiqarishda) qo'llanilishidan qat'iy nazar, «texnologiya» atamasining mazmunidan kelib chiqadigan asosiy talablardan biridir.

Bunday aniq tasniflash o'quv jarayonini maqbul rejalashtirish va rejalashtirilgan o'quv natijasiga erishishni ta'minlaydi.

Rejalashtirilgan natijaga erishganlikni, ya'ni o'quv maqsadini amalga oshirishni faqat tashqi ko'rinishlarga qarab baholash mumkin – savollarga javob, masalalarni yechish va boshqalar, shuni alohida ta'kidlash kerakki tashqi belgilarga ko'ra baholashda talabaning ichki holatidagi o'zgarishlar uning intellektual rivojlanishi hisobga olinmaydi. Bu esa o'qitish maqsadlaridan biridir.

2.2. O'quv jarayonini ishlab chiqish

O'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish o'qitish samaradorligini ta'minlovchi eng asosiy manba hisoblanadi. Birinchi navbatda, bu ma'ruzalar va amaliy (laboratoriya, seminar) seminar mashg'ulotlar orasidagi mutanosiblikni aniqlashga tegishlidir. Bu mutanosiblik o'quv fanning mutaxassis tayyorlash tizimidagi o'rniga bog'liq uni Davlat ta'lim standartlari asosida belgilash maqsadga muvofiqdir. Ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarning mutanosibliigi turli bo'lishi mumkin. Masalan: 100%-0; 70%-30%; 50-50%; 30%-70%. Oliy maktabda biror bir fandan amaliy mashg'ulotlarning bo'lmasligi juda kam uchraydigan holdir. Nisbatning 30%-70%, ya'ni amaliy mashg'ulotlarning ma'ruzalardan ancha ko'p bo'lishi ayrim maxsus fanlarga qo'l keladi. Chunki, odatda, maxsus fanlar amaliyotda qo'llay olish darajasida o'zlashtirilishi lozim. 70%-30% nisbat, odatda ijtimoiy-iqtisodiy fanlar (texnik oliy o'quv yurtlarida), 50-50% umumkasbiy fanlar uchun qo'llaniladi. Matematik va tabiiy fanlar uchun ushbu nisbat ta'lim yo'nalishiga bog'liq bo'ladi.

O'quv jarayonini tashkil etishda auditoriya va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar nisbatining ahamiyati ham juda muhimdir.

Bu nisbat 67%-33%; 60%-40%; oliy maktabning I va II kurslarida qo'llaniladi, chunki talabalar hali samarali mustaqil ishlash malakalariga ega emaslar, III va IV kurslarda 50%-50%; 40%-60% ishlatish maqsadga muvofiqdir, chunki endi talabalar zaruriy mustaqil ishlash malakalariga ega va talabalar kurs ishlari, loyihalari, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni, bitiruv malakaviy ishni bajarishlari kerak. O'quv jarayonini kredit tizimida tashkil etishda, auditoriya va mustaqil ishlash soatlarining nisbati 33%-67% bo'lishi odatiy bir holdir

Auditoriya soatlari tizimida ma'ruzalar va amaliy (laboratoriya, seminar) mashg'ulotlarning samarali mutanosibligini, auditoriya va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar nisbatini to'g'ri belgilash o'quv jarayonini tashkil etishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'qitishdagi barcha yondashuvlarni guruhlab, ularni quyidagi ko'rinishlarga ajratish mumkin: tushuntirish-ko'rgazmali, ijodiy izlanish va texnologik.

O'qitishning tushuntirish-ko'rgazmali yondashuvi – bunda o'quvchilar mashg'ulot davomida o'quv va uslubiy adabiyotlardagi illyustrativ vositalar orqali «tayyor» holda bilim oladilar. Bu yondashuv an'anaviydir. Ushbu yondashuv o'qituvchining o'quv axborotini yetkazishi va talaba xotirasiga to'plash va mustahkamlashdan iborat. Bunda «bilim» tushunchasi xotirada saqlanayotgan ma'lumot ma'nosini anglatadi. Uning (bilimning) mavjudligi nazorat va imtihonlar orqali tekshiriladi. Bu bosqichda, ya'ni uni qayta takrorlash bosqichida, bilim uzoq vaqt saqlanmaydi. O'qitishning tushuntirish-ko'rgazmali usulida o'qituvchining talabaga o'quv axborotini yetkazishida, odatda, talabaning faolligi va o'quv ma'lumotni qabul qilishga tayyorligi hisobga olinmaydi. Bunda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quv axborotini talabaga yetkazish va ma'lum yo'llar bilan uni talaba xotirasida mustahkamlashdan iborat. Bu yondashuvda o'quv maqsadlari umumiy ko'rsatiladi va o'quv fanining darajasi haqida xira tassavur bo'ladi. O'qitish maqsadiga erishilganligini baholash imkoniyati bo'lmaydi, chunki ular noaniq

va mujmal qo'yiladi. O'qitish sifati pedagogning mahorati va talabalar kontingentiga bog'liq bo'ladi.

Talabaning o'quv axborotini qabul qilishi, o'ylashi, uning xulosalari, baholashlari reproduktiv (qayta tiklash) fikr yuritish doirasida qoladi. O'qitishning tushuntirish-ko'rgazmali yondashuvi o'z mohiyati bilan reproduktiv usul bo'lib, bu usulda ta'lim oluvchilarning faoliyati algoritmik xarakterga ega bo'ladi. O'qitishning tushuntirish-ko'rgazmali usuli bir necha asrlar davomida doimo takomillashib, ta'lim tizimiga katta xizmat qildi. Ammo u hozirgi kunda ilmiy-texnik taraqqiyotning oshib borayotgan talablariga javob bera olmay qo'ydi.

O'qitishning ijodiy izlanish (tadqiqot yondashuvi) – bu pedagog boshchiligida qo'yilgan muammolar, masalalarni yechishning yo'llarini faol izlashni tashkil etish usulidir. Fikrlash jarayoni produktiv (unumli) xarakterga ega bo'ladi. Pedagog bosqichma-bosqich, doimiy ravishda talabaning izlanish jarayonini yo'naltiradi va nazorat qiladi. Bunda vazifalar va muammolar tahlilidan, qisqa og'zaki yoki yozma tushuntirishdan so'ng, ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda adabiyotlar va manbalarni o'rganadilar, kuzatishlar va boshqa izlanishlar olib boradilar. O'quv ishi usullari bevosita ilmiy tadqiqot usullarigacha rivojlanib, mustaqil tadqiqot va tashabbusga qiziqish paydo bo'ladi. Talabalar mustaqil ravishda yangi tajribalarga ega bo'ladi, yangi faoliyat turlarini o'rganadi. O'qitishning izlanish modellarining ta'lim mazmuni bilan o'zaro ta'siri, shaxsning tadqiqotchilik holati uning faol, ijodiy faoliyati yo'nalishiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, ommaviy ta'lim sharoitida o'qitishning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradi. Pedagogik texnologiya tamoyillarini tizimli amalga oshirish rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishishni ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyada muammoli o'qitishning ishlatilishi unga tadqiqot tusini beradi, ya'ni o'qitishda ijodiy izlanish amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini tashkil etish tizimi bo'lib, jadallashgan ilmiy-texnika taraqqiyot talablariga javob beradi.

6-Mavzu: O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini loyihalash

Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadi shakllantirilganidan so'ng, ularni nazorat topshiriqlariga ko'chirishga o'tiladi. Bu holda pirovard natijaga erishishga vazifasi qo'yiladi, u ma'ruza matnlari tayyorlashda va mashg'ulotlar o'tkazishdagi o'quv maqsadlari bilan chambarchas bog'lanadi.

Rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun o'quv jarayonini tezkor baholash kerak, u esa teskari aloqa vazifasini bajaradi. Quyilgan natijalarga erishilmasa tezkor baholash o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritilishi lozimligini ko'rsatadi. O'quv materialini tezkor baholash test asosida o'tkazadi. Aniq o'quv maqsadlar ifodalari, ularning toifalari testlarni tuzish uchun asos bo'ladi. O'quv jarayonida ishlatiladigan testlar diagnostik (tashxislash) xususiyatga ega, chunki bu testlar natijasiga ko'ra keyingi o'quv jarayon rejalashtiriladi.

O'qitish jarayonida testlarni muntazam ishlatish pedagogik texnologiyalarning xususiyatlaridan biri hisoblanadi. O'quv jarayonini baholashda ishlatiladigan testlar, diagnostik testlar deb ataladi.

O'quv jarayonini testlar orqali baholash, uni ko'zlangan maqsadga ketma-ket yunaltirilishini ta'minlaydi. Testlarning standartlashtirilganligi ularni oldindan tayyorlab qo'yishga imkon yaratadi. SHuning uchun pedagogik texnologiyalarning yutuqlaridan biri butun o'qitish jarayonini qamrab oluvchi testlar jamg'armasi - topshiriqlar to'plamini yaratilishidir.

Diagnostik testlarni ishlab chiqish tartibi 2.2-rasmda ko'rsatilgan.

Pedagogik texnologiyada o'quv faning, har bir bobning, har bir mavzuning (modulning) o'rganish maqsadi shakllantiriladi.

Har bir mavzuda ma'lum miqdordagi tayanch tushunchalar, iboralar o'zlashtiriladi.

**ЎҚУВ ФАНИНИ ЎРГАНИШ
МАҚСАДИ**

**ЯКУНИЙ БАҲОЛАШ
ТЕСТЛАРИ**

**Фан бўйича таянч
ибораларнинг
боғлиқлиги ҳисобга
олинади, қўйилган
мақсадга эришиш**

**АНИҚ БЎЛИМНИНГ (БОБ)
ЎРГАНИШ МАҚСАДИДИ**

**ОРАЛИҚ БАҲОЛАШ
ТЕСТЛАРИ**

**Бўлим (боб бўйича)
таянч ибораларнинг
боғлиқлиги ҳисобга
олинади, қўйилган
мақсадга эришиш**

**АНИҚ МАВЗУ (МОДУЛ
ЎРГАНИШ МАҚСАДИ**

**ЖОРИЙ БАҲОЛАШ
ТЕСТЛАРИ**

**Ҳар бир таянч ибора
бўйича алоҳида
тузилади, ўқув мақсад
тоифаси ҳисобига
олинади.**

Har bir tayanch ibora bo'yicha o'rnatilgan o'quv maqsadlari toifalariga ko'ra talabalarning joriy o'zlashtirilishini baholash uchun diagnostik testlar ishlab chiqiladi (2.3-jadval). Mazkur o'quv maqsadining toifasiga mos fe'llarni ishlatish test tuzishning muhim sharti hisoblanadi.

Har bir tayanch tushuncha bo'yicha alohida joriy baholash testlari ishlab chiqiladi. Joriy baholash testlari sonini aniqlashda ularni o'tkazilish vaqtini hisobga olish maqsadga muvofiqdir, odatda u 10 daqiqaga teng bo'ladi, bu esa ta'minan 10 ta test topshirig'idir.

Talabalar o'zlashtirilishini oraliq baholash testlari odatda bir bo'lim yoki asosiy darslikning bir bobi o'quv materialini miqyosida o'tkaziladi.

Joriy baholash testlar har bir tayanch ibora bo'yicha alohida ishlab chiqilsa, oraliq baholash testlarida bu tayanch tushunchalarning bo'lim yoki bob miqyosida o'zaro bog'liqligi aks ettiriladi.

Oraliq baholash testlarini o'tkazish uchun - 30 daqiqa vaqt yetarli bo'ladi. Bu taxminan 20-30 topshiriqni tashkil etadi.

Yakuniy baholash testlarida tayanch tushunchalarning butun fan miqyosida o'zaro bog'liqligi aks ettiriladi. Yakuniy baholash testlari odatda bir juft dars vaqtida o'tkaziladi – 80 daqiqa (tanaffussiz). Bunda topshiriqlar soni 40-60 tani tashkil etadi.

O'quv materialini o'zlashtirish darajasini hisoblash maqsadida kodli belgilar kiritish mumkin.

α_1 – axborotni eslash va qayta takrorlashga mo'ljallangan topshiriqlar;

α_2 –reproduktiv darajadagi topshiriqlar;

α_3 – produktiv darajadagi topshiriqlar.

B.Blum pedagogik taksonomiyasi bo'yicha o'quv maqsadlari toifalari va test topshiriqlarning murakkabligini 2.4-jadvalidagidek bog'lash mumkin.

2.4-jadval

O'quv maqsadlari toifasi	O'zlashtirish darajasi
Bilish	α_1

Tushunish	α_1
Qo'llash	α_2
Tahlil	α_3
Sintez	α_3
Baholash	α_3

Testlar tuzishda qo'llaniladigan fe'llar tegishli o'quv maqsadi bilan bir toifada bo'lishi kerak

Test topshiriqlari orqali o'quv materialini turli o'zlashtirish darajasini tekshirish mumkin.

Bu belgiga ko'ra to'rtta o'zlashtirish darajasi farqlanadi.

- ◆ axborotni tanish, eslash, qayta takrorlash. Bu qo'yidagi o'quv maqsadi toifalariga mos keladi – bilish, tushunish;
- ◆ reproduktiv fikrlash. Bu qo'llash o'quv maqsadi toifasiga mos keladi.
- ◆ produktiv fikrlash. Bu – tahlil, sintez, o'quv maqsadi toifalariga mos keladi.
- ◆ izlanish - ijodiy fikrlash. Bu ko'proq baholash o'quv maqsadi toifasiga mos keladi.

O'quv materialini o'zlashtirishning ma'lumotni tanish, eslash, qayta takrorlash darajasini tekshirish uchun test topshiriqlari, xotira faoliyati bilan bog'liq bilimlarni tekshirishda ishlatiladi. Bu topshiriqlar talabadan formula, ta'rif, qoida va boshqani beshta berilgan variantlardan farqlash, tanib olish yoki eslashni talab qiladi. Bu eng sodda, past darajadagi o'zlashtirishni tekshiruvini bo'lsada, o'quv jarayoni shu darajaga asoslanadi.

Reproduktiv o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun test topshiriqlari talabadan oldin o'rganilgan namuna asosida mustaqil faoliyat ko'rsatishni talab qiladi. Bu holda oldin o'zlashtirilgan formula, qonun, qoidani qo'llab, oldingilarga o'xshash berilgan masalani yechishdan iborat. Bunday testlarni yechishda, odatda, hisob-kitob talab qilinadi.

Produktiv o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun test topshiriqlari talabadan o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil ishlatib, boshqa turdagi masalalarni

yechishni talab qiladi. Bu faoliyat talabning o'zi masalani yechish algoritmini tuzishi bilan xarakterlanadi. Odatda bu ma'lum qoida va formulalar majmuasini nostandart masalalarni yechishda qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Produktiv o'zlashtirish darajasini tekshirish topshiriqlari eng katta diagnostik va didaktik ahamiyatga ega. Ularni bajarish mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Bu testlar o'z mohiyatiga ko'ra ko'nikmalarni baholaydi.

Bunday testlar o'quv fanning o'zlashtirilishini yakuniy baholash bosqichida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Produktiv o'zlashtirish darajasini tekshirish test topshiriqlari murakkab hisob-kitoblardan iborat bo'lishi shart emas.

Bunday topshiriqlar bosh xususiyatlaridan biri mantiqiy asoslangan xulosalar zanjirini yasashdan ibratligidir.

Izlanish ijodiy darajadagi testlar talabdan nostandart yondashuv, tasavvur, ijod, fantaziya, intuitsiyani talab etadi. Bu eng murakkab oliy darajadagi testlar. Bunday testlar fan olimpiadalarida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiyalarda testlar ishlab chiqarish jarayonidagi o'lchov asboblari rolini bajaradi. Ishlab chiqarishda texnologik jarayon natijasida ishlab chiqarilgan mahsulot o'lchov asboblari orqali nazorat qilinganidek, o'qitish jarayonida testlar rejalashtirilgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Test topshiriqlarini turli shakllarda tuzish mumkin. Eng ko'p ishlatiladigan shakllar: yopiq, ochiq, muvofiqligni o'rganish, ketma-ketlikni tartibga solish va h. k.

Yopiq test topshiriqlari shart va javoblardan iborat. Bunday vazifa yopiq deb atalishining sababi shundaki, sinaluvchi unga berilgan javoblardan to'g'risini tanlash kerak, u o'z javobini berish imkoniyatiga ega emas.

Berilgan beshta javobdan bittasi to'g'ri bo'lishi tavsiya etiladi. Bunday vaziyatda to'g'ri javobni tasodifan topish imkoniyati juda past. Test shunday

tuzilishi kerakki, unga javob berilganda sinaluvchi o'z bilimlarini ishlatib, barcha javoblarni tahlil qilishi kerak.

Javoblar mazmunan bir-biriga juda yaqin bo'lishi, to'g'ri javobni tanlashning «yuzaki» yo'li bo'lmasligi kerak.

Namuna:

Pedagogik taksonomiya: qanday imkoniyat yaratadi?

A. O'quv maqsdlarni toifalash

V. Mavzuning tayanch iboralarini belgilash.

S. O'quv maqsadini shakllantrish

D.O'quv maqsadiga erishish kafolati

E.O'quv maqsadini korrektsiyalsh

Javob: A.

Yopiq test topshiriq kompyuterli o'qitish texnologiyalar ham samarali qo'llash mumkin.

Ochiq test topshiriqlari sinaluvchiga o'z javobini berish imoniyatini beradi.

Testlar kalit so'zi (so'zlar) i qoldirilgan gap shaklida tuziladi.

1. Namuna.

Pedagogik taksonomiya ... imkoniyat beradi

Javob: O'quv maqsadlarni toifalashga

2. Namuna

Ochiq testlar deb _____ qoldirilgan, javob variantlari berilmagan topshiriqlarga aytiladi.

Javob: kalit so'zi

Ochiq test topshiriqlarni o'qitishning dasturlash texnologiyalarida keng qo'llash mumkin.

Muvofiqligini o'rnatish test topshiriqlari. Bunda bir majmua elementlarining ikkinchi majmua elementlariga mosligi o'rnatiladi.

Namuna

Pedagogik texnologiyaning afzalligi:

A. O'qitishning rejalashtirilgan natijalariga kafolatli erishish;

V. O'quv maqsadlarini ishlab chiqish;

S. O'quv jarayonini ifodalash;

D. O'qitish natijalarini baholash;

E. O'qitishning samarali usullarini qo'llash

Javob: A.

Ketma-ketlikni tartibga solish test topshiriqlari. Bunda xatti-harakatlar, hisob-kitoblarni talab qilingan ketma-ketlikda bajarilishi tekshiriladi.

Javob indekslar ketma-ketlik shaklida beriladi.

Namuna:

B.Blum pedagogik texnologiyasi bo'yicha o'quv maqsadlari toifalarini to'g'ri ketma-ketligini ko'rsating:

A. tahlil

D. bilish

V. sintez

E. tushunish

S. qo'llash

Javob: D, Ye, S, A, V.

Pedagogik texnologiyada test o'tkazish birinchi navbatda diagnostik xarakterga ega. Diagnostika, har bir ta'lim oluvchining taraqqiyot tendentsiyasini oldindan aniqlash va bashorat qilishga yo'naltirilgan. Teskari aloqa axborotini olish jarayoni, diagnostika bilan bashorat qilish sintezidan iborat. Bu esa o'quv maqsadlariga erishish monitoringi demakdir. Monitoring atamasi inglizchadan olingan bo'lib «uzluksiz kuzatish» deganidir. O'quv jarayoni monitoringi o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishishni

ta'minlaydi. O'quv maqsadlariga o'qitishni ko'zlangan natijalarga erishishga pedagogik texnologiyaning quyidagi qoidalari xizmat qiladi.

Ekvivalent amaliyot qoidasi: Bu o'qitish shart-sharoiti va o'qitish jarayonida talabalardan kutilayotgan hati-harakatlar test va imtihon davrida kutilgan natija bilan mos kelishini anglatadi. O'qitishdagi faoliyat yondashuvi bu qoidani amaliyotda ro'yobga chiqishiga olib keladi.

O'xshash amaliyot qoidasi: Bunda talabalarda kutilayotganga o'xshash, ammo undan farqlovchi harakatlar mashqini bajarish imkoniyati bo'ladi.

O'qitish «natijalarini bilish» qoidasi: bu qoidaga ko'ra talabaga har bir harakatining, natijasini zudlik bilan bildirish ko'zda tutiladi. Bu teskari aloqa ta'minlaganida, o'qitish natijalarini joriy baholashga xosdir.

Pedagog tomonidan ijobiy qo'llash qoidasi – bu talabalarni pedagog tomonidan chiroyli so'zlar bilan ilhomlantirish, ichki harakatga undashdir. Pedagogik o'qitish jarayonida o'quvchi shaxsini yuksaklarga ko'tarishi va belgilangan o'qitish natijalariga erishishga qiziqtirishi zarur. Masalan: juda yaxshi, aniqroq ifoda qilishga harakat qiling, ajoyib yana ishlab ko'rish kerak...

Yuqorida keltirilgan qoidalar o'qitish jarayoni samaradorligini oshishiga, o'quv maqsadlariga erishishga olib keladi.

Texnologik jarayon ishlab chiqarilgan texnologik hujjatlar asosida amalga oshiriladi, bu hujjatlarning asosiy tarkibiy qismi esa texnologik xaritalar hisoblanadi. Texnologik hujjatlar, qayta takrorlanadigan ishlab chiqarish tsiklining qancha mahsulot kerak bo'lsa, uni shuncha marta amalga oshirish imkonini beradi.

SHunga o'xshash, pedagogik texnologiya doirasida qayta takrorlanadigan o'qitish tsiklini amalga oshirish uchun, uning yakunlovchi bosqichida pedagogik-texnologik xaritalar ishlab chiqiladi. Uning asosida o'qitish jarayonini bir necha marta tashkil etish mumkin, ya'ni qayta takrorlanadigan o'qitish tsiklini ro'yobga chiqarish mumkin. Pedagogik texnologik xaritalar, pedagogik texnologiyani ko'p nusxada ko'paytirishga va o'quv yurtining qaerda joylashganligidan qat'iy nazar ko'zlangan o'qitish natijalariga erishishga imkoniyat yaratadi. Pedagogik texnologik xarakterlarning shakli va mazmuni – jadvalda keltirilgan.

Pedagogik texnologik xarita har bir mavzu modul uchun alohida tuziladi. Ularning majmuasi pedagog texnologik xaritalar albomini tashkil etadi.

Pedagogik texnologik xarita – pedagogik texnologiyaning qayta takrorlanadigan o'qitish tsiklini tashkil etuvchi hujjatlaridan biridir.

Qayta takrorlanadigan o'qitish tsikli quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi (2.5-rasm):

1. O'quv fanining umumiy maqsadini o'rnatish. O'quv rejadagi har bir fan mutaxassisning shakllanishi uchun ma'lum bir maqsadga ega. Bu maqsad aniq ifodalanishi va fanni o'rganishdan oldin har bir talabaga yetkazilgan bo'lishi kerak.
2. Har bir mavzuni o'zlashtirishi uning o'rganishdagi o'quv maqsadini to'g'ri qo'yilishiga bog'liq. O'quv fanini to'la o'rganishdagi mavzuning ahamiyati o'quv maqsadi toifasini belgilaydi.

Dars boshlanishida o'quv maqsadi, uning boshqa mavzular bilan, mutaxassisning kelajakdagi amaliy faoliyati bilan bog'liqligi talabalarga yetkaziladigan bo'lishi kerak.

3. Har bir mavzu (bo'lim va modul) bo'yicha tayanch iboralarni aniqlash
Pedagogik texnologiyada o'qitishning moduli tizimini qo'llash samaralidir, u fanning bir yoki bir necha fundamental tayanch iboralarini qamrab olgan axborotning tugallangan bloklariga tayanadi.
4. Har bir tayanch iboraning o'quv maqsadini B.Blum pedagogik taksonomiyasi asosida belgilash. Bu bosqich, pedagogik texnologiyada qayta takrorlanadigan o'qitish tsikli uchun eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Fanning u yoki bu tushunchasini o'rganish darajasi, u fanni ta'limning mazkur yo'nalishi uchun ahamiyati orqali aniqlanadi. Ta'lim yo'nalishiga ko'ra, bir tushunchaning o'zi turli o'quv toifalariga kirishi mumkin. Ta'limning bir

yo'nalishi uchun bu masalan – bilish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish uchun qo'llash bo'lishi mumkin va h.k.

SHuning uchun matematik va umumtabiiy, umumkasbiy blokka kiruvchi fanlarning tayanch iboralarining o'quv maqsadlari toifasi, mutaxassis chiqaruvchi kafedralar bilan kelishilgan holda o'rnatilishi zarur.

Barcha tayanch iboralar o'quv maqsadlarining yig'indisi, shu fannig o'quv maqsadlari katalogini tashkil etadi.

5. Har qaysi tayanch ibora, modullar uchun diagnostik testlar ishlab chiqish. Bu testlar talabalarning bilim olishini tashxislash maqsadida, joriy nazorat uchun ishlatiladi. Bilimlarning o'zlashtirilish darajasiga ko'ra, har bir tayanch ibora uchun testlar tuziladi.

6. O'qitish. Yangi o'quv materialini bayon etish va uni ishlab chiqish, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari asosida amalga oshirish tavsiya etiladi. Butun o'quv faoliyati, aniq va ravshan ifoda qilingan o'quv maqsadlari asosida quriladi.

O'quv maqsadi toifasiga ko'ra, o'quv materialining birligi, tarkibi, turli xil bo'lishi mumkin.

7. Test o'tkazish. Joriy test diagnostik xarakterga ega bo'lib teskari aloqa vazifasini o'taydi, Uni o'tkazishdan asosiy maqsad tuzatishlar va qo'shimcha o'quv tadbirlar zaruriyatini aniqlashdan iboratdir.

8. O'quv maqsadlariga erishilganligini baholash. U joriy test sinovlari asosida amalga oshiriladi. Test sinovlari natijasiga ko'ra talabalar guruhi ikkiga bo'linadi:

- ◆ Bilim va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirishga erishganlar.
- ◆ Bilim va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirishga erishmaganlar.

O'quv materialini to'la o'zlashtirmagan talabalar, o'qituvchi rahbarligida shu materialni o'rganishni davom etadilar. Ular bilan qo'shimcha (tuzatish) o'quv ishlari tashkil etiladi. Testlar natijalari asosida, yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi. Kamchiliklarni tuzatish uchun o'quv materialini o'zlashtirmagan talabalarning guruhi bilan mashg'ulotlar olib boriladi. Materialni takroriy bayon qilishda boshqa yangi usullardan foydalanish lozim: birinchi marta ishlatilmagan ko'rgazma qurollar, va o'qitishning texnik vositalarini ishlatish, individual ishlardan foydalanish zarur. SHu yo'llar bilan

o'quv materialining to'la o'zlashtirilishiga erishish lozim. Har qaysi talaba o'quv materialini to'la o'zlashtirish imkoniyatiga ega, chunki u davlat kirish test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgandir.

U oliy ta'lim muassasida o'qishga yaroqlilik tanlovidan o'tgandir. Bilimlarni to'la o'zlashtirilishini ta'minlash muammosida alohida masala bo'lib, o'qitish sur'atlari turadi. Aynan shu bilan talabanning qobiliyati aniqlanadi. Iqtidorli talabalar uchun (ular taxminan 5 % ni tashkil etadi) o'quv materialini o'zlashtirish uchun eng kam vaqt, «o'rtacha» talabalar uchun ulardan ko'ra ko'proq vaqt, «bo'sh» talabalar uchun eng ko'p vaqt zarur bo'ladi. SHaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalariga o'tish dolzarbligi shu bilan asoslanadi. Bunda har bir talaba o'quv materialini davlat ta'lim standartlari talablari darajasida, o'zining tabiiy qobiliyatlari darajasida o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Iqtidorli talabalarda chuqurlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni egallashga imkoniyat paydo bo'ladi.

Mavzu (modul) bo'yicha o'quv materialini guruhning barcha talablari tomonidan o'zlashtirilganidan so'ng, keyingi mavzu (modul)ga o'tiladi, ya'ni o'quv jarayoni o'rgatuvchi tsikl shakliga ega bo'ladi. O'qitishning modul tizimida, o'rgatuvchi tsikllar soni, o'quv fanining modullari soniga teng bo'ladi.

Tayanch iboralar:

Aniq o'quv maqsadi, identifikatsion o'quv maqsadi, bixeviorizm, o'quv maqsadlarni toifasi, pedagogik taksonomiya, o'quv maqsadlar daraxti, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning soatlar nisbati, auditoriya va mustaqil ish soatlarning nisbati, tushuntirish-ko'rgazma o'qitish usul, ijodiy-tadqiqot o'qitish usuli, texnologik o'qitish usuli, diagnostik testlar, o'qitish jarayonidagi tuzatishlar, o'quv materialni o'zlashtirish darajasi, diagnostik testlar shakli, ekvivalent amaliyot qoidasi, analogik amaliyot qoidasi, «bilimlar natijasi» qoidasi, to'g'riligini qo'llovchi reaksiya qoidasi, texnologik-pedagogik xarita, o'qitishning qayta takrorlaydigan tsikli, to'liq ta'lim.

Nazorat savollari:

1. Aniq o'quv maqsadi tushunchasini izohlab bering.

2. O'quv maqsadlarni shakllantirish usullari.
3. O'quv maqsadini o'rganiladigan mavzu orqali aniqlash shaklini tushuntirib bering.
4. O'quv maqsadini pedagog faoliyati orqali aniqlash shaklini tushuntirib bering.
5. O'quv maqsadini talabaning ichki rivojlanish jarayonlari orqali aniqlash shaklini tushuntirib bering.
6. O'quv maqsadini talabalar faoliyati asosida belgilash shaklini tushuntirib bering.
7. Bixeviorizm psixologik yo'nalishini izohlab bering.
8. B.Blum pedagogik taksonomiyasini tahlil qilib bering.
9. «O'quv maqsadlar daraxti»ni shakllantirib bering.
- 10.Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar soatlarning nisbati nimadan bog'liq?
- 11.Auditoriya va mustaqil ishiga ajratingan soatlar nisbati nimaga bog'liq?
- 12.Tushuntirish-ko'rgazmali o'qitish usulini imkoniyatlarini tahlil eting.
- 13.Ijodiy-tadqiqot o'qitish usulini maqsadi va mazmunini izohlang.
- 14.Texnologik o'qitish usulini mohiyati nimada?
- 15.Diagnostik testlarni yaratishga quyiladigan talablar nimalardan iborat?
- 16.Diagnostik testlarni ishlatishdan maqsad?
- 17.Diagnostik testlarning joriy, oraliq va yakuniy talabalar bilimni baholash bosqichlarda o'ziga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
- 18.Diagnostik testlar murakkabligi va soni nimalarga bog'liq?
- 19.O'quv materialni o'zlashtirish darajasini tushunchasini izohlab bering.
- 20.Diagnostik testlarning shakllarini namoyon eting.
- 21.Ekvivalent amaliyot qoidasini tushuntirib bering.
- 22.O'xshash amaliyot qoidasini tushuntirib bering.
- 23.«Bilimlar natijasi» qoidasini tushuntirib bering.
- 24.Pedagog tomonidan chetdan to'g'riligini qo'llovchi reaksiya qoidasini tushuntirib bering.
- 25.To'liq ta'lim tushunchasini izohlab bering.
- 26.pedagogik-texnologik xaritani mohiyatini ochib bering.
- 27.Pedagogik-texnologik xaritani ishlab chiqishni namoyon eting.
- 28.O'qitishning qayta takrorlaydigan tsikl tushunchasini tushuntirib bering.
- 29.O'qitishning qayta takrorlaydigan tsikl bosqichlari?

30. To'liq ta'limga erishish uchun pedagogik texnologiyaning o'rnini namoyon eting.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Muayyan mavzu bo'yicha pedagogik taksonomiyasida aniq o'quv maqsadlarini shakllantirish
2. Tanlagan fanning mavzusi bo'yicha «o'quv maqsadlar daraxtini» shakllantirish.
3. O'qitish usullarini tahlil etish.
4. Muayyan o'quv maqsadlar asosida diagnostik testlar ishlab chiqish.
5. Mavzu bo'yicha pedagogik-texnologik xaritaning tuzish.

8-Mavzu: Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi

O'qitish jarayonida, pedagogik texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan, o'quv maqsadlariga erishiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda o'qitish samaradorligi, asosan, o'quvchining o'qitish jarayonidagi o'rni, pedagogning unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda o'qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan.

Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi, o'quvchilar esa faqatgina «ob'ekt» vazifasini bajaradi xolos. Bunda o'quvchining tashabbusi va mustaqilligi yo'qoladi, o'qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Odatdagi an'anaviy o'qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. Bunda, avvalo Ya.A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktika tamoyillariga asoslangan o'qitishning «sinf-dars» tizimida tashkil etish nazarda tutiladi. Hanuzgacha dunyoda eng ko'p tarqalgan o'qitishning «sinf-dars» tizimi hisoblanadi, u quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- Yoshi va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil bo'lgan o'quvchilar sinfni (guruhni) tashkil etadi;
- Sinf (guruh, oqim) yagona o'quv reja, yagona o'quv dasturlar va yagona mashg'ulotlar jadvali bilan shug'ullanadi;

- Mashg’ulotlarning asosiy birligi dars bo’lib, u bitta fanning bitta mavzusiga bag’ishlanadi va o’qituvchi tomonidan boshqariladi;
- O’quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo’llaniladi.

An’anaviy o’qitish asosan bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirishga qaratilgan bo’lib, shaxsning rivojlanishini ko’zda tutmaydi.

An’anaviy o’qitish asosini, Ya.A.Komenskiy tomonidan tuzilgan pedagogika tamoyillari tashkil etadi:

- ilmiylik;
- tabiatga monandlik (o’qitish rivojlanish bilan belgilanadi va shakllanmaydi);
- uzviylik va tizimlilik;
- o’zlashtiruvchanlik (ma’lumdan noma’lumga, soddadan murakkabga);
- mustahkamlash (takrorlash, takrorlash ...)
- onglilik va faollik;
- nazariyaning amaliyot bilan bog’liqligi;
- yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish.

An’anaviy o’qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo’ravonlik pedagogikasi, o’qitishning tushuntiruv-ko’rgazmali usuli, ommaviy o’qitish. An’anaviy o’qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo’ladi: o’quvchi bu hali to’la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa - bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs (3.1.-rasm).

Mumtoz an’anaviy «sinf-dars» tizimi - bu bayon etishning ma’ruzaviy usuli va kitob bilan mustaqil ishlashni o’z ichiga oladi (didaxografiya).


Zamonaviy an’anaviy o’qitish esa, o’qitishning texnik vositalarini qo’llab, didaxografiyadan foydalanishdan iborat bo’ladi. SHaxsga yo’naltirilgan texnologiyalarda, o’quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo’yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O’zbekiston Respublikasidagi ta’lim tizimining milliy modeliga alohida e’tibor qaratilgan. Bu model 5 tarkibiy qismdan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish.

Bu yerda ta'lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismi - «shaxs» birinchi o'rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta'lim tizimi, shu jumladan, o'qitish shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

SHuning uchun zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

Hayot dialektikasi shundan iboratki, doimo yangi avlod, oldingi avloddan ko'ra rivojlanganroq bo'ladi. Ilmiy texnik taraqqiyotning



3.1.-расм. Ўқитиш технологияларининг блок-схемаси

keskin yuksalish davrigacha (XX asrning birinchi yarmigacha), fan, texnika va texnologiyalar rivoji evolyutsion, past sur'atlarda amalga oshar edi.

SHuning uchun ketma-ket keluvchi avlodlarning rivojlanish darajasi deyarli farq qilmas edi. Bunday sharoitlarda Ya.A.Komenskiyning o'qitishning avtoritar texnologiyasi, an'anaviy «sinf-dars» tizimi dunyoga keldi.

Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrida (XX asrning ikkinchi yarmi), fan, texnika, texnologiyalar yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan davrda, bir avlod hayoti davomida fanning rivoji insoniyatning butun tarixidagidan ko'ra ko'proq bo'lgan bu davrda, o'qitishning an'anaviy tizimi (shu jumladan zamonaviy an'anaviy o'qitish) o'z umrini oxiriga yetdi. Hozirgi zamon avlodining rivojlanish sur'ati oldingilardan ko'ra ancha yuqori bo'lganligi sababli, o'qitishning an'anaviy tizimi, rivojlanishga to'sqinlik qila boshladi. Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish asosida amalga oshirilishi mumkin. Axborotning hajmi, xilma-xilligi, egallashga moyilligi va vositalarining yetarliligi samarali individual va mustaqil o'qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. O'qitishni jadallashtirish maqsadida, pedagogning o'quvchiga bo'lgan munosabati «sardor»likdan, uning «sherigi»ga aylanishi zarur.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo'ladi:

- *insonparvarlik*, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'rlashdan to'la voz kechish;
- *hamkorlik*, ya'ni pedagog va o'quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;
- *erkin tarbiyalash*, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. SHaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

SHaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi:

- pedagogik jarayonda shaxs ob'ekt emas, sub'ekt hisoblanadi;

- har bir o'quvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;
- yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustivor xislatlari hisoblanadi.

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish,
- o'quvchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo'l qo'yish huquqi;
- o'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi
- pedagog va o'quvchilar munosabati zayli: taqiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayri insoniy hisoblanadigan zo'ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu tamoyilni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida zo'ravonlik mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda qulchilik xususiyatlarini shakllantiradi.

Erkin o'qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

- ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;
- o'quv materialiga qiziqish uyg'otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag'batlantirish;
- o'quvchilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;
- jamoa orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta'minlash.

Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta'lim tizimida o'quv fanidan o'quvchiga emas, o'quvchidan o'quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo'ladi.

Individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:

- o'rtacha o'quvchiga yo'naltirishdan voz kechish;

- shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;
- shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.

SHaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo'ladi:

- har bir o'quvchi qiyofasida noyob shaxsni ko'rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha o'quvchilar iste'dodli degan ishonch bo'lishi kerak.
- shaxsga, yutuqni ma'qullovchi, qo'llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya'ni o'qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak.
- bevosita majburlashga yo'l qo'ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg'u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik.
- pedagogik jarayonda, o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko'maklashish.

Oliy, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tizimi uchun, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishbilarmonlik o'yinlari;
- muammoli o'qitish;
- tabaqalashtirilgan o'qitish;
- dasturlashtirilgan o'qitish;
- kompyuterlashtirilgan o'qitish;
- modulli o'qitish.

SHaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti jadallashtirilgan davrida rivojlangan davlatlarda shakllantirilganligini inobatga olgan holda ular chuqur ildizlarga ega ekanligini ta'kidlash to'g'ri bo'lar edi.

Qadimiy faylasuf Sokrat o'z chiqishlarida savol va javob usulini ishlatar edi. Bu usul haqiqatni bilib olish uchun yordam berar edi.

Qadimiy Rim pedagogi M.F.Kvantilian har bir shogirdga e'tibor va diqqat bilan yondashishni tavsiya bergan edi.

O'rta asr SHarqining buyuk olim-mutafakkirlari tomonidan yirik pedagogik meros qoldirilgin. Asrlar, mingyillar davomida shaxsga muhabbat va hurmat, unga yordamlashish xislatlari asosida tsivilizatsiya shakllanib keldi.

Millatimiz shakllanishi bilan birgalikda xalqimizning mentaliteti insonga muhabbat va hurmat ko'rsatish, unga yordamlashish xislatlari asosida yuzaga chiqdi. Eng avvalo, yoshlarimizga nisbatan muhabbat yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqimiz bolalarga «siz» deb munosabat qilur, kattalar ularga birinchi bo'lib «salom» berur.

Yaponiyaning zamonaviy pedagog-olimlari bolani kuniga 200 martagacha erkalatishni tavsiya beradilar. Bu zamonaviy g'oyalarning debochasi, buyuk ajdodimiz Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Bolaga rahmdillik qilmoq, uni o'pib quchoqlamoq haqida» bobida yoritilgan. SHaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarning o'zagi shaxslar o'rtasidagi yuqori qadriyatlarga, teng huquqlilikka asoslangan munosabat hisoblanadi. Bu qadriyatlar Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «SHirin so'z odam haqida», «So'kmoq va la'natlamoq ta'qiqlanganligi haqida» boblarida namoyon etilgan. Unda shaxsni so'kish uni o'ldirish bilan tenglashtirilgan.

Xulosa qilib ta'kidlash lozimki, ajoyib shaxsiy fazilatlarga asoslangan ta'limimiz, jahon fanning shakllanishiga va rivoji o'zining munosib xissa qo'shigani bilan ajralib turadi. Abu Ali ibn Sino, A.Beruniy, Al-Xorazmiy, M.Ulug'bek, Al-Buxoriy, A.G'ijduvoni, B.Naqshbandiy, A.Navoiy, Z.Bobir kabi buyuk ajdodlarimizning ta'limoti, jahon tsivilizatsiyasidagi bebaho ulushini bugungi kunda butun dunyo tan olmoqda.

Pedagogika fanining rivojlanishiga Yevropa buyuk pedagog-olimlari hissa qo'shgan, jumladan: italiyalik Vittarino di Fel'tre, frantsuz Fransua Rable, ingliz Tomas More, nemis A.Distruverg, rus K.D.Ushinskiy va boshqalarni ta'kidlab o'tish mumkin.

Bular gumanistik tarbiyani, mustaqil fikrlashni rivojlanishini, ijodni, faolligini, ko'rgazma materiallarni keng foydalanishini, nazariy ta'limni mehnat bilan bog'lanish tarafdori edilar. Ular pedagogik jarayonda o'quvchilarni sub'ekt deb hisoblar edilar.

SHaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar insonning aqliy qobiliyatlarini ochishiga xizmat qiladi.

9-Mavzu: Modulli va masofaviy o'qitish texnologiyalari

Tayanch iboralar: Modulli o'qitish, faoliyatlik tamoyili, tizimli kvantlash usuli, qiziqtirish tamoyili muammolilik tamoyili, kognitiv-vizuallik tamoyili, Bolonnya deklaratsiyasi, eCTS tamoyillari, kreditlarni taqsimlash.

Modulli o'qitish -o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi. An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.



«Modulli o'qitish» termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog'liq bo'lib («modul», lat. modulus), uning bitta ma'nosi faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modul – bu fanning fundamental tushunchasini takdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni, bo'limi, muayyan katta mavzusi, o'zaro bog'liq tushunchalar guruhidir.

Modul – bu fanning bir yoki bir necha tushunchalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan, ishlab chiqilgan tamoyillar asosida shakllangan mantiqan tugallangan o'quv materialidir.

1982 y. YuNESKOning anjumandagi ma'ruzasida modulga "Mashqlarni xususiy tezlikda diqqat bilan tanishish va ketma-ket o'rganish orqali individual yoki guruh mashg'ulotlarida bir yoki bir necha malakaga ega bo'lish uchun mo'ljallangan alohida o'rgatuvi paket (to'plam)" deb ta'rif berilgan edi.

Modulli o'qitish – o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o'zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir.

Modulli o'qitish asosan inson bosh miyasi to'qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi.

Inson bosh miyasi to'qimasi, qariyb 15 mlrd. neyronlardan (nerv hujayralari) yoki shartli modullardan iborat. To'qima hujayralari bir-biri bilan ko'p sonli to'qnashuvlarda bo'lishadi. Bir hujayra va uning o'simtasini boshqa hujayra va uning o'simtasi bilan to'qnashuvlari soni 6 mingtagacha yetib boradi. Demak, bosh miya to'qimasidagi to'qnashuvlar (kontaktlar) soni astronomik sonni (15000000000x6000) tashkil etadi. SHu nuqtai nazardan, modul o'quv jarayonining bir hujayrasi sifatida qaraladi. Bu hujayra bir vaqtning o'zida axboriy umumiylikka o'ziga xos yaxlitlik va tizimlilikka ega bo'lgan elementlardan tashkil topgan bo'ladi.

O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YuNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferentsiyasida so'z yuritilgan edi. Modulli o'qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalarining umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.

Bu sohalardagi izlanishlarga ko'ra, to'qimasi modulli tashkil topgan inson miyasi, axborotni kvant ko'rinishda (boshqacha aytganda, ma'lum hissalar ko'rinishida) eng yaxshi jihatdan qabul qiladi.

Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbiy motivatsiya (qiziqtirish) asosida, o'qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitishning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: fan bo'yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi.

Bu yondashuvlar doirasida modul asosida mutaxassislar tayyorlashning bir qator kontseptsiyalari ishlab chiqilgan. Barcha kontseptsiyalar zamirida faoliyat yondashuvi yotadi va bu nuqtai nazardan, o'qitish jarayoni to'laligicha yoki muayyan fan doirasida, modulli ta'lim dasturi mazmuniga muvofiq kasbiy faoliyat elementlarini o'quvchi tomonidan ketma-ket o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Turli kontseptsiyalar doirasida, modulli ta'lim dasturlari, turli xil tarkib va tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'ladi, turli shakldagi hujjatlarda taqdim etiladi, ammo ularning barchasi quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismni majburiy ravishda o'z ichiga oladi: maqsadli mazmuniy dastur; turli ko'rinishlarga taqdim etilgan axborotlar banki; o'quvchilar uchun uslubiy ko'rsatmalar.

Modulli o'qitishning tamoyillari

O'qitishning modulli texnologiyasi, o'qitishning qabul qilingan tamoyillariga muvofiq ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Quyidagi tamoyillar modulli o'qitish texnologiyasining asosini tashkil etadi:

1. Faoliyatlik tamoyili: Bu tamoyil, modullar mutaxassisning faoliyat mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi.

Bu tamoyilga ko'ra modullar fan bo'yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuvi asosida tuzilishi mumkin. Modulli o'qitish

texnologiyasida fan bo'yicha faoliyat yondashuvida, modullarni o'quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida, tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida, modullar bloki, mutaxassisning kasbiy faoliyat tahlili asosida, shakllantiriladi.

2. Tenglik, teng huquqlik tamoyili. Bu tamoyil, pedagog va o'quvchining o'zaro munosabati sub'ekt - sub'ekt xarakterligini belgilaydi.

Bu esa, modulli o'qitish texnologiyasini, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar toifasiga taalluqliligini ko'rsatadi. Ya'ni modulli o'qitish texnologiyasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlariga moslashgan bo'ladi.

3. Tizimli kvantlash tamoyili. Bu tamoyil axborotni siqib berish nazariyasi, muhandislik bilimlar kontsepsiyasi, didaktik birliklarni yiriklash nazariyalarining talablariga asoslanadi.

SHular bilan bir qatorda, bu tamoyil quyidagi psixologik-pedagogik qonuniyatlarni hisobga olishni taqozo etadi:

- katta hajmdagi o'quv material, qiyinchilik bilan va xohishsiz (istalmasdan) eslanadi;
- ma'lum tizimda qisqartirilgan holda berilgan o'quv material, osonroq o'zlashtiriladi;
- o'quv materialidagi, tayanch qismlarning ajratilib ko'rsatilishi, eslab qolish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

SHu bilan bir qatorda o'quv materialining asosini ilmiylik va fundamentallik tashkil etish lozim.

Tizimli kvantlash tamoyili, o'quv axborotning tegishli strukturasi modulda tuzish yo'li bilan erishiladi.



1.-расм. Модулли ўқитишнинг блок-схемаси

Modul umumiy ko'rinishda quyidagi elementlardan iborat bo'lishi mumkin:

- tarixiy - bu muammo, teorema, masala, tushunchalarni tarixiga qisqacha sharx berish;
- muammoli - bu muammoni shakllantirish;
- tizimli - bu modul tarkibining tizimli namoyon etish;
- faollashtirish - bu yangi o'quv materialini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko'rsatish;
- nazariy - bu asosiy o'quv materiali bo'lib, unda - didaktik maqsadlar, muammoni ifodalash, gipoteza (faraz)ni asoslash, muammoni yechish yo'llari ochib ko'rsatiladi;

- tajribaviy - bu tajribaviy materialni (o'quv tajribasi, ishni va boshqalarni) bayon etish;
- umumlashtirish - bu muammo yechimining tasviri va modul mazmunini umumlashtirish;
- qo'llanish - bu harakatlarning yangi usullarini va o'rganilgan materialni amaliyotda ko'llash bo'yicha masalalar tizimini ishlab chiqish;
- xatoliklar - o'quvchining modul mazmunini o'rganishdagi o'zlashtirishda kuzatiladigan bir turdagi xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo'llarini ko'rsatish;
- ulanish - o'tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan yondosh fanlar bilan bog'liqligini namoyon etish;
- chuqurlashtirish - iqtidorli o'quvchilar uchun yuqori murakkabli o'quv materialini takdim etish;
- test-sinovlash - modul mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini testlar yordamida nazorat qilish va baholash.

O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi, modul mazmunini boshqa modullar bilan bog'liqligi, shu modulni o'rganishdagi o'quvchilarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

4. Motivatsiya (qiziqishni uyg'otish) tamoyili. Bu tamoyilning mohiyati, o'quvchining o'quv-bilim olish faoliyatini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Bu asosiy qoidadir.

Modulning o'quv materialiga qiziqishni uyg'otish, bilim olishga rag'batlantirish, mashg'ulotlar paytida faol ijodiy fikrlashga da'vat etish, modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

5. Modullik tamoyili. Bu tamoyil o'qitishni individuallashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, modulning dinamik strukturasi fan mazmunini uch xil ko'rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi:

- to'la
- qisqartirilgan
- chuqurlashtirilgan.

O'qitishning u yoki bu turini tanlash o'quvchiga havola qilinadi.

Ikkinchidan, modul mazmunini o'zlashtirishda, usul va shakllarning turliligida ham modullik namoyon bo'ladi. Bu esa o'qitishning faollashtirilgan shakl va usullari (dialog, mustaqil o'qish, o'quv va imitatsion o'yinlar va hokazo), hamda muammoli ma'ruzalar, seminarlar, maslahatlar bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, modullik, yangi materialni pog'onasimon o'zlashtirishda ta'minlanadi, ya'ni har bir fan va har bir modulda o'qitish oddiydan murakkabga qarab yo'nalgan bo'ladi.

To'rtinchidan, modulga kiruvchi o'quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli, o'quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati ko'zda tutiladi.

6. Muammolik tamoyili. Bu tamoyil muammoli vaziyatlar va mashg'ulotlarni amaliy yo'naltirilganligi tufayli, o'quv materialining o'zlashtirish samaradorligini oshishiga imkon beradi. Mashg'ulotlar paytida gipoteza (faraz) qo'yiladi, uning asoslanganligi ko'rsatiladi va bu muammoning yechimi beriladi. Ko'pchilik hollarda bizning o'qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar (ular hatto yangi bo'lsa ham), ammo misol uchun AQSHda o'qituvchi masalani o'rganish uslubini, o'zi qo'ygan muammoni yechish yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. Ya'ni u tadqiqotchi sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi navbatda, ayniqsa, ana shu narsa o'quvchini qiziqtirib qo'yadi, unda ijodiy fikrlash va faollikni tug'diradi.

7. Kognitiv vizuallik (ko'z bilan kuzatiladigan) tamoyil. Bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi, ularga ko'ra o'qitishdagi ko'rgazmalar, nafaqat surat vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina o'zlashtirish unumdorligini oshiradi.

Aynan, shuning uchun kognitiv grafika-sun'iy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo'lib, murakkab ob'ektlar kompyuter suratchalari ko'rinishida tasvir etiladi. Modulning tarkibiy tuzilmasi bo'lib, rangli bajarilgan, kognitiv-grafik o'quv elementlari (rasmlar bloki) xizmat qiladi. SHuning uchun rasmchalar, modulning asosiy bosh elementi hisoblanadilar. Bu esa:

Birinchiidan, o'quvchining ko'rish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ya'ni o'rganish jarayoniga miyaning tasviriy o'ng yarim shari boy imkoniyatlari qo'shiladi.

Ikkinchiidan, o'quv materiali mazmunini o'zida zich joylashtirib ravshan ko'rsatuvchi surat (rasm), o'quvchida tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchiidan rangli suratlar, o'quv informatsion materialni qabul qilinish va eslanish samarasini oshiradi, hamda o'quvchilarni estetik tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Insonning bilim olishi, fikrlashning xuddi ikkita mexanizmdan foydalanganidek bo'ladi: ularning biri simvulli bo'lsa, ikkinchisi geometrik (algebraik) bo'ladi.

Kognitiv grafikaning asosiy vazifasi bilim olish jarayonining faollashtiruvchi fikrlashning simvulli va geometrik (algebraik) mexanizmlarni o'z ichiga olgan, bilim berishni uyg'unlashgan modellarini yaratishdan iboratdir.

Grafik (ko'zga ko'rinuvchi) axborot miyaning o'ng yarim shari imkoniyatlarini faollashtiradi, oliy ma'lumotli mutaxassis uchun zarur bo'lgan, tasviriy fikrlash qobiliyatini, intuitsiyasini rivojlantiradi. Buyuk olim A.Eynshteyn aytganidek «intuitsiya xaqiqatda eng katta boylikdir. Mening ishonchim komilki, bizning fikrlashimiz asosan simvollar orqali shu bilan birga biz anglamasdan kechadi». Haqiqatda ilm-fan gepotezasiz (farazsiz), faraz zsa intuitsiyasiz mavjud bo'lmaydi.

SHu bilan birga, ko'rgazmali axborot og'zaki axborotdan ko'ra, ahamiyatliroq va unumliroqdir. Ko'rish mexanizmining axborotni qabul qilish qobiliyati, eshitishnikidan ko'ra ancha yuqoridir. Bu esa o'z navbatida, ko'rish tizimiga, inson qabul qilinadigan axborotning qariyb 90 foizini yetkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko'rgazmali axborot bir vaqtning o'zida beriladi. SHuning uchun axborotni qabul qilish va eslashga og'zaki axborotdan ko'ra kam vaqt talab etiladi. Ko'rgazmali axborot ishlatilganda, tasavvur hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 5-6 martaba tezroq kechadi. Insonning ko'rgazmali axborotdan ta'sirlanishi, og'zaki axborotdan ko'ra ancha yuqori

bo'ladi. Ko'pchilik hollarda u oxirgisini o'tkazib yuboradi. Ko'rgazmali axborotni qayta takrorlash oson va aniqroqdir. Odamning ko'rgazmali axborotga ishonchi, og'zaki axborotdan ko'ra yuqori bo'ladi. SHuning uchun «yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir» deb bejiz aytilmagandir.

SHu bilan birga, ko'rgazmali axborotda, qabul qilish va eslash unumi, uni ko'rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi, og'zaki axborotning o'zlashtirilishi esa bunga bog'liq bo'ladi. O'rni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvolli-ko'rgazmali axborotni qabul etish, o'qitish samarasini oshiradi. SHuning uchun o'quv-ilmiy adabiyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan axborotni ko'paytirishga shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa, o'qitishni individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

8. Xatoliklarga tayanish tamoyili. Bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni izlash uchun vaziyatlar yaratilishiga, o'quvchilarning ruhiy faoliyati funktsional tizimi tarkibida oldindan payqash tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi, o'quvchida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yerdam beradi.

9. O'quv vaqtini tejash tamoyili. Bu tamoyil o'quvchilarda individual va mustaqil ishlash uchun o'quv vaqtining zahirasini yaratishga yo'naltirilgan bo'ladi.

To'g'ri tashkil qilingan modulli o'qitish, o'qish vaqtini 30% va undan ortiq tejash imkoniyatini beradi. Bunga esa modulli o'qitishning barcha tamoyillarini to'la amalga oshirilganda, o'quv jarayoni kompyuterlashtirilganda, yondosh fanlarning o'quv dasturlari muvofiqlashtirilganda erishish mumkin.

10. Texnologik tamoyili. Bu tamoyil o'quvchilar tomonidan o'qitishning ko'zlangan natijalarga erishish kafolatini ta'minlovchi, o'qitish va bilimni o'zlashtirish jarayonini, tizimli modulli yondashuv asosida ro'yobga chiqarishni anglatadi. Mazkur tamoyil quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- maksimal aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarni ishlab chiqish, ularni o'lchash va baholash mezonlarini tanlash;
- qo'yilgan o'quv maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini ishlab chiqish va aniq tasvirlash;
- o'quv maqsadlarini, butun o'quv jarayonini o'qitish natijalariga kafolatli erishishga yo'naltirish;
- o'qitish natijalarini tezkor baholash va o'qitishga tuzatishlar kiritish;
- o'qitish natijalarini yakuniy baholash.

Texnologik tamoyili, o'qitishni qayta takrorlanadigan jarayonga aylanishiga imkon beradi.

Modulli o'qitish tizimida o'rgatuvchi tsikllar soni, o'quv fanining modullari soniga teng bo'ladi.

O'quv maqsadlariga erishish uchun o'quv me'yoriy hujjatlarning uzviylikini ta'minlash tayanch sharoitlarini yaratish zarur. Ushbu maqsadlarda uzviylik tamoyilini qo'llash tavsiya etiladi.

11. Uzviylik tamoyili. Bu tamoyil o'quv maqsadlariga erishish imkoniyatini ta'minlash uchun o'quv rejasi va dasturlarni ishlab chiqishda tizimli yondashishin anglatadi. Bunda fanlarning maqsadlariga ko'ra, o'quv rejadagi soatlar mosligi ta'minlanadi.

Modulli o'qitish tamoyillari – modulli o'qitish texnologiyalarning nazariy asoslaridir.

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi ta'limning fanli tizimida modul metodologiyasini qo'llashni anglatadi. Bunday modulli o'qitish texnologiyasini oliy ta'lim tizimida akademik litseylarda va kasb-hunar kollejarida, pedagog va muhandis-pedagoglar malakasini oshirish tizimlarida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasida modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- o'quv fanining fundamental tushunchalari - muayyan hodisa, yoki qonun yoki bo'lim, yoki yirik bir mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi
- o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga (o'zlashtirishga) qaratilgan.

Odatda modul - 3-6 soatli ma'ruzaviy mashg'ulotlar va shu bilan bog'liq bo'lgan amaliy (seminar), laboratoriya mashg'ulotlaridan iborat bo'ladi.

Fanning tushuntiruv apparatini qat'iy tizimli (ko'p qirrali) tahlili asosida, eng samarali modul tuziladi. Bu esa fundamental iboralar guruhini ajratish, materialni mantiqan va kompakt guruhlash imkoniyatini beradi. Modul - mustaqil tarkibiy birlik bo'lgani uchun, ba'zi hollarda, alohida o'quvchilarga fanni to'laligicha emas, balki faqatgina bir qator modullarni tinglash imkoniyatini beradi. Bu esa iqtidorli o'quvchilarning individual va mustaqil ishlarini optimal rejalash imkoniyatini tug'diradi.

Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali, o'qitishni tabaqalashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi, ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

SHunday qilib, modulli o'qitishda o'quvchilarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun to'la zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi.

O'qitishning modul tizimiga o'tish samaradorligi, quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- o'quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;
- professor-o'qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- ko'zlangan natijalarni baholash;
- didaktik materiallarni ishlab chiqish;
- natijalarning tahlili va modullarni maqbullashtirish.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:


- ishchi o'quv rejani chuqur tahlili asosida, o'zaro chambarchas bog'liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya'ni butun o'quv rejasi alohida makromodullar to'plami sifatida qaraladi (4.2-rasm).

Ko'pchilik hollarda quyidagi uch turdagi makromodullar tuzilishi mumkin:

- a) gumanitar fanlarni o'z ichiga oladigan;
- b) iqtisodiy fanlarni o'z ichiga oladigan;
- v) umumta'lim, umumtexnik umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni fanlarni o'z ichiga oladigan.

Har qaysi makromodulning mutaxassisni shakllantirishda, o'z maqsad va vazifasi bo'ladi. Ma'lum makromodulni o'rganish maqsadi, unga kiradigan fanlarning o'rganish maqsadlaridan kelib chiqadi.

Har qaysi makromodulning o'rganilish maqsadlari to'plami, Davlat ta'lim standartlarida aks ettirilgan, mutaxassis tayyorlashning bosh maqsadini tashkil etadi. Har qaysi makromodulning maqsadi aniq tuzilgan bo'lib, birinchi fani o'rganila boshlaganida, o'quvchilarga yetkazilishi lozim. Makromodulning har bir keyingi fani o'rganila boshlanganida, u fanning o'rganish maqsadlari talabalar e'tiboriga yetkaziladi:



4.2.-расм. Фан бўйича фаолият ёндашуви асосидаги модулли ўқитиш технологиясининг схемаси

– har qaysi makromodul ichida, o'rganiladigan fanlarning maqbul ketma-ketligi va ularni o'rganish muddatlari o'rnatiladi. Ya'ni o'qitishning uzluksizligini ta'minlab, fanlarning o'rganilish muddatlarini va shu orqali makromodulni o'rganilish muddatlarini qisqartirishga erishish zarur. O'quv soatlari hajmi katta bo'lmagan (haftada 1-2, ayrim hollarda 3 soatli auditoriya mashg'ulotlari) fanlar, blok fanlar ro'yxatiga kiritilishi, maqsadga muvofiq bo'ladi va ular o'quv semestrning birinchi yeki ikkinchi yarmida o'tilishi mumkin.

Makromodullar vertikal yaqin o'zaro bog'liqliklarni hisobga olish asosida tuziladi, ammo ularni o'rganilish muddatlarini o'rnatishda makromodullar orasidagi gorizontal bog'lanishlar hisobga olinishi lozim.

– o'quv materialining takrorlanishini oldini olish maqsadida, makromodulga kiruvchi fanlarning, o'quv dasturlarini o'zaro bog'liqligi ta'minlanadi.

Fanning ishchi o'quv dasturi, alohida mavzularini modulda guruhlanishi hisobidan qaytadan ko'rib chiqiladi. Har qaysi modul uchun nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan maqsadlar tuzilishi zarur.

Modul o'z ichiga 2-3 ma'ruza va shu ma'ruzalar bilan bog'liq amaliy darslar va laboratoriya ishlarini qamrab olishi mumkin. **Har qaysi modul bo'yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:**

- o'quvchilar bilimini nazorat qilish uchun testlar;
- individual ishlar uchun topshiriqlar;
- mustaqil ishlar uchun topshiriqlar;
- o'quv-uslubiy tarqatma materiallar;
- o'quv-ilmiy adabiyotlar ro'yxati;
- ishchi o'quv dastur.

Har bir modul test-sinovlari bilan tugallanishi lozim: joriy modul uchun bu o'tilgan materialni nazorati bo'lsa, keyingi modul uchun esa bu kirish (boshlang'ich) nazorati bo'ladi. Har qaysi modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar to'plami tuziladi va ular o'quvchiga mashg'ulotdan oldin beriladi. Modul, tavsiya qilinadigan ko'rgazma materiallar va adabiyotlar to'plami bilan ta'minlanadi, har bir materiallarni o'zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o'tadi. Iqtidorli o'quvchilar boshqalarga bog'liq bo'lmasdan test sinovlaridan o'tishlari mumkin. Pedagogning vazifasi axborotchi-nazoratchidan boshlab, maslahatchi-muvofiqlashtiruvchigacha o'zgarishi mumkin. Oxirgisi, ya'ni pedagogning maslahatchi-muvofiqlashtiruvchi

vazifasi, o'qitish o'rgatuvchi modullar asosida amalga oshirilganida, namoyon bo'ladi.

O'rgatuvchi modul - o'qitishning muayyan modul birligi bo'yicha mazmuni, o'quvchining o'quv harakatlarini boshqarish tizimi, muayyan mazmun bo'yicha bilimlar nazorati tizimi va uslubiy ishlanmalar mazmunidan iboratdir.

O'rgatuvchi modullarni ishlab chiqish juda murakkab jarayondir, u ko'p vaqt sarfini va juda ko'p sonli uslubiy tajribalarni umumlashtirishni talab etadi. Ammo ularni amaliyotda qo'llash, o'qitishni juda yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Modulli o'qitish, fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan axborotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Modulning amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuziladi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldiradi. O'quvchilar amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Ma'ruzalar matnini tayyorlashda, strukturalash va tizimlash usullarini ko'llab, materiallarii blok-sxema, rasmlar bloki ko'rinishida taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi (4.3-rasm). Bunda materialning o'zlashtirish samaradorligi oshadi, chunki:

- modulning pirovard maqsadi tushunib yetiladi;
- o'quv materialining elementlari orasidagi bog'lanishlar va o'tishlar yaqqol ko'rsatiladi;
- asosiy jihatlari ajratib ko'rsatiladi;
- o'quv materialining (modulning) butun hajmi, o'quvchining ko'z oldida yaqqol gavdalanadi.

Modul, tizimida o'quv materialining mazmunini strukturalashda eng avvalo axborotni «siqish» vazifasi ko'zlanadi. Bilimlarni to'la, foydalanish uchun qulay holda taqdim etilishiga harakat qilish lozim.

O'quv axboroti bir vaqtning o'zida to'rt xil - rasmlı, sonlı, simvollar va og'zaki ko'rinishda uzatilganida eng mustahkam o'zlashtirishga erishiladi.

Modulli ta'lim uslubiyotida, bu holat asos bo'lib xizmat qiladi. Har qaysi modul bo'yicha rasmlar bloklarida simvolli alomatlarni (savollar qo'yilishi tarzida) joylashtirish, savollarni rasm tarzida tasvir etish, formulalar, jadvallar, grafiklar va uslubiy ko'rsatmalarni taqdim etish, maqsadga muvofiq bo'ladi (4.4-rasm, 4.1-jadval).

Umuman olganda, rasmlar bloki, blok-sxemalar va boshqa kurgazmali materiallar talabalar uchun tarqatma material vazifasini o'tashi mumkin. SHu bilan birga har bir fan, jumladan, modul bo'yicha atamalarning izohli lug'ati tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Modulli o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida o'qitishning quyidagi usullaridan foydalanish tavsiya etiladi: aqliy hujum, muammoli munozara, evristik (savol-javobli) suhbat, o'quv ishbilarmonlik o'yinlari va hokazo.

SHunday qilib, modulli o'qitishga utish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- I bosqich: O'quv rejadagi fanlarni makromodullarga ajratish.
- II bosqich: O'qitish davri siqilganida, fanlarni o'rganishning eng maqbul ketma-ketligini o'rnatish.
- III bosqich: Makromodul fanlari o'quv dasturlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash.
- IV bosqich: Fanlarning modullarini shakllantirish.
- V bosqich: Modulning o'quv-ko'rgazmali materialini ishlab chiqish
- VI bosqich: Modulli o'qitish tamoyillari asosida o'qitish texnologiyasini loyihalash.
- VII bosqich: Bir vaqtning o'zida o'rganiladigan fanlarning maqbul sonini e'tiborga olib, mashg'ulotlar jadvalini tuzish.

O'quv jarayonining tashkil etilishini, modulli o'qitish tizimining tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin.

O'qitishning modulli tizimi xususiyatlaridan biri o'quv jarayonini jadallashtirish hisoblanadi, ushbuni ikki aspektda talqin etish mumkin.

- o'qitish jarayonida modulli o'qitish tamoyillari asosida o'quv axborotini «siqish»;
- o'qitish davrini «siqish» yo'li bilan o'quv grafigini va uning asosida mashg'ulotlar jadvalini maqbullashtirish.

O'quv jarayonini samarali tashkil etish shakli bu mashg'ulotlarni haftalik modulli rejalashtirish va talabalar bilimini reyting baholash hisoblanadi. Ya'ni, bitta modul (2-3 ma'ruza va ularga tegishli amaliy va laboratoriya ishlari) bir haftaga rejalashtirilishi va u talabalar bilimining testlar yoki boshqa nazorat turi yordamida baholanishi bilan tugallanishi zarur.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari namoyon bo'ladi:

- fanlar, fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligi ta'minlanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayoni barcha turlarining uslubiy jihatdan asoslangan muvofiqligi o'rnatilishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
- o'quvchilar bilimini muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;
- o'quvchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra, tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng, o'qituvchi ayrim o'quvchilarga fanni individual o'zlashtirishni tavsiya etishi mumkin);
- informatsiyani «siqib» berish natijasida, o'qishni jadallashtirish, auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni - optimallashtirish. Buning natijasida, o'quvchi yetarli bilimlarga ham, ko'nikmaga ham, malakaga ham ega bo'ladi.

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi har qaysi modul uchun ishlab chiqilgan pedagogik-texnologik xaritalar orqali ro'yobga chiqariladi (4.2-jadval).

SHunday qilib modulni o'qitishdan foydalanib yuqori malakali mutaxassisni tayyorlash, quyidagilar asosida ta'minlanadi:

- o'qitishning uzluksizligi (bunda fanlarni o'zlashtirish samaradorligi oshadi);
- o'qitishni jadallashtirish buning natijasida axborotning ko'p qismi, individual va mustaqil ishlash paytida, kompyuter tarmoqlari orqali o'zlashtiriladi;
- o'qitishni individuallashtirish (o'quvchi o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi).

Mutaxassisni faoliyatini inobatga olgan holda muayyan o'quv fani bo'yicha tuzilgan modullarni ketma-ket o'zlashtirishni ta'minlash fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining mohiyatini tashkil etadi. Ushbu o'quv jarayonini maqbullashtirish o'qitishni moslashtirish va individuallashtirishga imkon beradi.

Tizimli faoliyat yondashuvi mutaxassisning faoliyatini o'rganishi, ushbu faoliyatini amalga oshirish uchun o'rganish lozim bo'lgan o'quv fanlarni ro'yxatini, o'quv materiallarni mazmunini aniqlanishi, modullarni tuzilishi va o'quv jarayonini mashkil etilishi bilan xarakterlanadi.

Modulli texnologiyaga tizimli faoliyat yondashuvi, eng avvalo kasb-hunar ta'limida qo'llaniladi. Buning yorqin misoli bo'lib, YuNESKO ning xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan «Mehnat ko'nikmalari modullari (MKM) kontseptsiyasi» hisoblanadi.

Kontseptsiya, o'quv fanlariga bo'linmasdan, yaxlit o'qitishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Kontseptsiyaning afzalliklari bo'lib, modullar texnologiyalarining loyihalash jarayonining aniq tarkiblashtirish va modulli variantdagi o'quv-dasturiy hujjatlar shaklini to'la shakllanganligi hisoblanadi.

MKM - o'qitishning modulli dasturi, mutaxassis faoliyatining tahlili, uning mazmuni va tarkibini o'rganish asosida tuziladi va modulli bloklar hamda o'rgatuvchi modullari yig'indisidan iborat bo'ladi.

Mutaxassisning ishlab chiqarish faoliyati, qator ishlab chiqarish topshiriqlar bajarilishini o'z ichiga oladi (4.5-rasm). Ular o'z navbatida belgilangan ketma-ketlikda bajariladigan ishlab chiqarish amallaridan (ishlar qadami) iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish topshirig'i tarkibiga kiruvchi amallarni bajarish uchun, ishchi ma'lum darajadagi nazariy bilimlar va amaliy malakalarga ega bo'lishi kerak. Bunga ishlab chiqilgan o'rgatuvchi modullarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi orqali erishiladi. MKM dasturlar kasb-hunar ta'limi tizimining muayyan ixtisosligi bo'yicha ishlab chiqiladi. Modulli o'qitishning mazkur kontseptsiyasi kasb-hunar kollejarida, ixtisoslikka o'rgatish uchun juda ham mos keladi. Bu esa eng avvalo «Kasbiy ta'lim» olayotgan talabalarga tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasini o'zlashtirishni taqozo etadi.

Mazkur dasturlarni, oliy o'quv yurtlarining «*Kasb ta'limi*» yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarni ixtisoslikka o'rgatishda ham qo'llash mumkin bo'ladi. Oliy o'quv yurtlarda ixtisoslikka o'rgatish uchun «Kasb mahorati» fani o'quv rejalarga kiritilgan. Demak, mazkur fanni tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtirishini tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ifoda etilganlarni hisobga olib, tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etish mumkin:

- o'qitish mazmuni, mutaxassis faoliyatining tizimli tahlili asosida, shakllantiriladi;
- modulli dastur tarkibi mutaxassis faoliyati tarkibiga mos shakllantiriladi. O'qitish dasturi alohida Elementlardan, modullardan, o'rgatuvchi modullardan, modulli bloklardan iborat bo'ladi. Modul o'qitish dasturining tarkibiy qismi bo'lib, mutaxassis harakatining «boshlanishi va oxiri» aniq ko'rsatilgan tugallangan ish bo'lagidir.
- har qaysi modulni o'rganish «O'rgatuvchi modul» deb ataluvchi maxsus ishlangan uslubiy qo'llanmalar bo'yicha amalga oshiriladi. Unda bilim va malakalarni shakllantirish uchun zaruriy axborotlar, nazorat testlari keltiriladi.
- zaruriyat tug'ilganida, har qaysi o'quvchi uchun individual o'qitish dasturlari tuziladi. Ular ta'lim buyurtmasi talablari va boshlang'ich tayyorgarlik darajasi asosida tayyorlanadi.

- o'rgatuvchi modul o'quvchiga, mustaqil ravishda o'quv materialini o'zlashtirishga imkoniyat beradi, Pedagog va o'quvchining o'zaro munosabati teng huquqlilik va bilvosita asosida kechadi.

Tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish - loyihalash va ro'yobga chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi (4.6-rasm). Loyihalash jarayoni to'rt bosqichdan iborat bo'ladi.

Tizimli faoliyat yondashuvi mutaxassisning faoliyatini o'rganishi, ushbu faoliyatini amalga oshirish uchun o'rganish lozim bo'lgan o'quv fanlarni ro'yxatini, o'quv materiallarni mazmunini aniqlanishi, modullarni tuzilishi va o'quv jarayonini mashkil etilishi bilan xarakterlanadi.

Modulli texnologiyaga tizimli faoliyat yondashuvi, eng avvalo kasb-hunar ta'limida qo'llaniladi. Buning yorqin misoli bo'lib, YuNESKO ning xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan «Mehnat ko'nikmalari modullari (MKM) kontsepsiyasi» hisoblanadi.

Kontsepsiya, o'quv fanlariga bo'linmasdan, yaxlit o'qitishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Kontsepsiyaning afzalliklari bo'lib, modullar texnologiyalarining loyihalash jarayonining aniq tarkiblashtirish va modulli variantdagi o'quv-dasturiy hujjatlar shaklini to'la shakllanganligi hisoblanadi.

MKM - o'qitishning modulli dasturi, mutaxassis faoliyatining tahlili, uning mazmuni va tarkibini o'rganish asosida tuziladi va modulli bloklar hamda o'rgatuvchi modullari yig'indisidan iborat bo'ladi.

Mutaxassisning ishlab chiqarish faoliyati, qator ishlab chiqarish topshiriqlar bajarilishini o'z ichiga oladi (4.5-rasm). Ular o'z navbatida belgilangan ketma-ketlikda bajariladigan ishlab chiqarish amallaridan (ishlar qadami) iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish topshirig'i tarkibiga kiruvchi amallarni bajarish uchun, ishchi ma'lum darajadagi nazariy bilimlar va amaliy malakalarga ega bo'lishi kerak. Bunga ishlab chiqilgan o'rgatuvchi modullarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi orqali erishiladi. MKM dasturlar kasb-hunar ta'limi tizimining muayyan ixtisosligi bo'yicha ishlab chiqiladi. Modulli o'qitishning mazkur kontsepsiyasi kasb-hunar kollejarida, ixtisoslikka o'rgatish uchun juda ham mos keladi. Bu esa eng avvalo «Kasbiy ta'lim»

olayotgan talabalarga tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasini o'zlashtirishni taqozo etadi.

Mazkur dasturlarni, oliy o'quv yurtlarining «*Kasb ta'limi*» yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarni ixtisoslikka o'rgatishda ham qo'llash mumkin bo'ladi. Oliy o'quv yurtlarda ixtisoslikka o'rgatish uchun «Kasb mahorati» fani o'quv rejalarga kiritilgan. Demak, mazkur fanni tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtirishini tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ifoda etilganlarni hisobga olib, tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etish mumkin:

- o'qitish mazmuni, mutaxassis faoliyatining tizimli tahlili asosida, shakllantiriladi;
- modulli dastur tarkibi mutaxassis faoliyati tarkibiga mos shakllantiriladi. O'qitish dasturi alohida Elementlardan, modullardan, o'rgatuvchi modullardan, modulli bloklardan iborat bo'ladi. Modul o'qitish dasturining tarkibiy qismi bo'lib, mutaxassis harakatining «boshlanishi va oxiri» aniq ko'rsatilgan tugallangan ish bo'lagidir.
- har qaysi modulni o'rganish «O'rgatuvchi modul» deb ataluvchi maxsus ishlangan uslubiy qo'llanmalar bo'yicha amalga oshiriladi. Unda bilim va malakalarni shakllantirish uchun zaruriy axborotlar, nazorat testlari keltiriladi.
- zaruriyat tug'ilganida, har qaysi o'quvchi uchun individual o'qitish dasturlari tuziladi. Ular ta'lim buyurtmasi talablari va boshlang'ich tayyorgarlik darajasi asosida tayyorlanadi.
- o'rgatuvchi modul o'quvchiga, mustaqil ravishda o'quv materialini o'zlashtirishga imkoniyat beradi, Pedagog va o'quvchining o'zaro munosabati teng huquqlilik va bilvosita asosida kechadi.

Tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish - loyihalash va ro'yobga chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi (4.6-rasm). Loyihalash jarayoni to'rt bosqichdan iborat bo'ladi.

SHunday qilib, modulli o'qitish dasturlarni muayyan vaziyat uchun ma'lum ishchi o'rin uchun zarur bo'lgan modulli blok va o'rgatuvchi modullardan tuzish mumkin. Ushbu dasturni bu afzalligi o'rgatuvchi modullar pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Modulli o'qitish dasturlar yangi modulli bloklar va o'rgatuvchi modullar bilan to'ldirilishi mumkin, bu esa yangi texnologiyalarni o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Mazkur dastur, o'zgaruvchan (harakatchan) o'quv dasturiy hujjat bo'lib, texnologiyalar, jihozlar, asboblardan va materiallar takomillashgani bilan uni yangilashga imkoniyat mavjud bo'ladi.

Modulli o'qitish dasturini amalga oshirish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- O'qitish individual modulli dastur, mustaqil, qadamba-qadam o'zlashtirish shaklida amalga oshirilganda. Bunda har bir talaba o'rgatuvchi modul bilan ta'minlanadi, nazariy bilim va amaliy malakalarga ega bo'lish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.
- Bilimlar va malakalar shakllanishini qadamba-qadam nazorat qilish. O'rgatuvchi modullar har bir egallangan malaka uchun alohida tuziladi va shuning uchun bilim va malakalarni shakllanganligi har bir malaka bo'yicha uzluksiz nazorat asosida amalga oshiriladi, bunda nazorat topshiriqlari, savollar va testlardan foydalaniladi.

O'rgatuvchi modullar asosida o'qitishda, pedagogning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi: muvofiqlashtiruvchi, maslahatchi, nazoratchi.

Modulli o'qitish dasturlar, o'quvchining individual ehtiyojlariga osonlik bilan moslashadi va erkin vaqt omiliga ega bo'ladi, chunki bu yerda individuallashtirilgan o'qitish jarayoni ustunlik qiladi. Modulli o'qitish dasturini o'zlashtirish uchun zaruriy vaqt talabning tabiiy qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

Tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi o'quv materialini individual va mustaqil o'zlashtirishga to'la imkoniyat yaratilishi tufayli ixtisoslikka samarali o'rgatishni ta'minlaydi.

Masofaviy o'qitishning dolzarbligi

Ilmiy texnik taraqqiyotning xususiyatlari mustaqil ishlash kunikma va malakalarini shakllantirish va uzluksiz, ijodiy bilimlarni egallashni talab qiladi. Bunday ta'lim xizmatlarini ko'rsatish istiqbolli, zamonaviy o'quv tizimlariga quyiladigan talablardan biridir. YuNESKO «Ta'limni axborotlash instituti» mutaxassislarining fikricha, ta'lim jarayonini rivojlantirishning asosiy yunalishlaridan biri dunyo aholisiga axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda, masofaviy o'qitish va mustakil o'qish imkoniyatlaridan keng foydalanish ta'minotini yaratishdir.

Masofaviy o'qitish – bu masofadan turib o'qitish, qaysiki o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalar asosida olib boriladi.

Masofaviy o'qitish, ayniqsa:

- o'qitishning an'anaviy usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bulmagan, bu jarayon imkoniyatlarining chegaralanganligi tufayli o'qish va ishlashni birgalikda amalga oshira olmaydiganlar uchun;
- turg'un sharoitda o'qish imkoniyatlariga ega bulmagan, imkoniyatlari tibbiy shart- sharoitlar tufayli chegaralanganlar uchun;
- o'qituvchilar va boshka soha mutaxassislarining qayta tayyorlash va malakasini oshirishda;
- chet el o'quv muassasalarida ta'lim olishni istaydiganlar uchun;
- ikkinchi mutaxassislikni egallashni istaydiganlar uchun juda dolzarb bo'lishi mumkin.

Istiqbolli zamonaviy o'qitish tizimlari har bir shaxsning o'zi istagan ta'lim olish huqiqidan foydalana olish imkoniyatini berishi kerak. Masofaviy o'qitish aynan shunday o'qitish shakli bo'la oladi.

O'qitishning bu tizimi boshlang'ich rivojlanish bosqichidadir.

AQSH da 1 mlnga yaqin odam masofaviy o'qitish tizimida o'qimokda. Bu tizimda televidenie imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda.

Ispaniyada masofaviy o'qitish Milliy universiteti faoliyat ko'rsatmokda. Bu yerda sirtki oliy ta'lim olish xamda uqituvchilarning malakasini oshirish mumkin.

Frantsiyadagi masofaviy o'qitish Milliy Markazi 120 davlatdagi 35 000 iste'molchini qamrab olgan.

Germaniyada ochiq universitet ochilgan bo'lib, bu yerda sirtqi ta'lim olish hamda malaka oshirish mumkin.

SHvetsiyada Baltika Universiteti Baltika xududidagi 50 da ortiq universitetni o'z ichiga qamrab oladi.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi bo'yicha barcha topshiriqlar masofadan turib bajariladi, imtihonlar esa oliy o'quv yurtida topshiriladi.

Masofaviy o'qitish Yaponiya, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Iroq, Koreya, Finlyandiya, Avstraliya va Rossiyada rivojlanmoqda.

Masofaviy o'qitish fakat milliy ta'lim tizimlardagina rivojlanib qolmay, balkim, alohida tijorat kompaniyalarida ham rivojlanmokda, masalan IBM, General Motors, Ford va boshqalar.

Masofaviy o'qitish – ilmiy-texnikaviy taraqqiyot davrning mahsulidir va ayni vaktida uning rivojlanish katalizatori hamdir.

Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi

Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

O'qitish maqsadi davlat ta'lim standartlari asosida shakllanib, bilim, ko'nikma va malakalar tizimini o'z ichiga oladi. Bu ierarxik tizimda bo'lib: o'qitish maqsadi, o'quv fani maqsadi, mavzuning o'quv maqsadi, mavzuning tayanch tushunchalari o'quv maqsadidan shakllanadi.

O'qitish mazmuni an'anaviy o'qitish tizimiga to'g'ri keladi.

Masofaviy o'qitishda barcha mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash imkoniyati yo'q. O'qitishning bunday turida o'qitilishi taqiqlangan yo'nalishlar ro'yxati qonun dalolatnomalari bilan tasdiqlanib, bu yo'nalishlarda ushbu tizimni qo'llash taqiqlanadi.

Ta'lim oluvchilar. Masofaviy o'qitish tizimida ta'lim oluvchilarning nomlanishi hali aniqlanmagan. Ba'zan ularni tinglovchilar deb ataydilar. Masofaviy o'qitish tizimi ta'lim oluvchilarning yetarli tayyorgarligini va ish o'rinlarining texnik ta'minotini talab etadi.

O'qitadiganlar. Bu o'qituvchilar, asosan ta'lim jarayonini tashkil etish samaradorligi bulardan bog'liq bo'ladi. Ammo masofaviy o'qitishning didaktik tizimi xususiyatlari o'qituvchilar bajaradigan faoliyatlarini turli tuman funksiyalarini, serqirraligini va bajaradigan rollarining xilma-xilligini talab etadi. Aynan shuning uchun chet davlatlarda o'qituvchilar tavsiflanishi kengaytirilgan:

- o'qituvchi – o'quv – uslubiy qo'llanmalarining ishlab chiquvchisi;
- o'qitish uslublari bo'yicha maslahatchi (fasiliteyter);
- o'quv kurslarining interaktiv uslublari bo'yicha mutaxassis (tbyuter);
- o'qitish natijalarini nazorat qilish bo'yicha mutaxassis (invigilator);

O'qitish metodlari (usullari). «Methodas» so'zini yunon tilidan tarjima qilsak, uning ma'nosi – o'zini tutish, yo'l, ma'nosini anglatadi. O'qitish metodlari deganda o'qitish maksadiga erishish uchun, ta'lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari haqida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriya tushuniladi.

Masofaviy o'qitish tizimida, xuddi an'anaviy o'qitish tizimidagidek, o'qitishning besh metodi qo'llaniladi: axborot – retseptiv, reproduktiv, muammoli bayon, evristik va tadqiqot.

O'qitish vositalari. O'qitish mazmuni va o'qitish vositalari bir-biri bilan bog'liq. Har bir o'qitish vositasi o'z didaktik imkoniyatlariga ega. O'qituvchi bu didaktik imkoniyatlarni bilishi va ulardan kerakli didaktik maqsadlarga erishish uchun kerakli o'qitish vositalari majmuasini (keys) shakllantirishi kerak. O'qitish vositalari quyidagilardan iborat: kitoblar (qog'oz va elektron shaklda); tizimdagi o'quv materiallar; komp'yuter o'quv tizimlari oddiy va multimedya variantda; audio o'quv axborotlari; video o'quv axborotlari; Masofaviy laboratoriya amaliyotlar va virtual stendlar; trenajyorlar; uzoqdagi bilim bazalari; ekspert o'quv tizimidagi va geoaxborot tizimidagi didaktik materiallar. O'qitish vositalari - o'qitishning texnik vositalari: magnitofon, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor, kodoskop, videoproektor, komp'yuterlar orqali amalga oshiriladi.

Ilmiy o'quv material bazasi. Barcha rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimning me'yoriy faoliyat ko'rsatishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy maqomi o'quv muassasasining o'quv material bazasi bilan chambarchas bog'lik. An'anaviy o'quv muassasasining o'quv material bazasi o'quv jarayoni uchun kerak bo'lgan barcha moddiy va texnik vositalar majmuasini o'z ichiga oladi. Bular: o'quv va yordamchi binolar, laboratoriya anjomlar, asbob uskunalar, o'qitishning texnik vositalari, darsliklar, o'quv-uslubiy materiallar.

Identifikatsiyaviy-nazorat tizimi. Masofaviy o'qitish tizimida nazorat qilishning xususiyati, o'qitish tizimida o'quvchi shaxsini aniqlash – identifikatsiya qilish va falsifikatsiya (boshka shaxs o'rnida faoliyat ko'rsatish) uchun imkoniyat bermaslikdir. SHuning uchun bu tizimda bilim sifatini ko'p mezonli va ob'ektiv nazorat shakllarini videokonferentsiyalar kabi turlarini o'tkazish ahamiyati ortadi.

O'qitish shakllari. Bu o'qitishning tashkiliy shaklini tanlashdir. O'qitish shakllarining quyidagilari rivojlangan: ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya mashg'ulotlari, kurs ishlari, sinovlar, imtihonlar, maslahatlar, mustaqil ish.

Masofaviy o'qitishda o'quv jarayoni ketma-ket keladigan muloqotda bo'lish va muloqotda bo'lmagan davrlardan iborat.

O'qitish shakllarining barcha turlari, o'quv jarayoni muloqotda bo'lish davrida va muloqotda bo'lmagan davrida o'z xususiyatiga ko'ra qo'llaniladi.

Moliyaviy-iqtisodiy tizim. Bu masofaviy o'qitish tizimida eng ahamiyatli omillardan biri bulib, bozor iqtisodi sharoitida u faqat o'z-o'zini moddiy ta'minlab qolmay, balkim, o'quv tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga olib keladi. SHuning uchun har bir o'qituvchi o'qitish tizimi iqtisodiyoti bilan tanish bo'lishi kerak.

CHet el tajribalari bu masofaviy o'qitish tizimining samaradorligini ko'rsatdi, ammo har bir konkret holatni iqtisodiy va pedagogik nuqtai nazardan baholash lozim.

Me'yoriy-huquqiy tizim. O'qitish tizimining rivojlanish asosi sifatida bu sohada qonunchilikning rivojlanishi va mukammalligi xizmat qiladi.

O'quv qonunchiligining predmeti – pedagogik munosabatlardir, qolganlari esa, ya'ni, boshqaruv, mulkiy, moliyaviy va hokazo ishlab chiqarish xarakteriga ega.

O'qitish muassasasining faoliyati «Ta'lim to'g'risidagi qonun», Nizom, Davlat ta'lim standartlari, namunaviy o'quv dasturlar, rejalar, yo'riqnomalar, buyruqlar, kollegiya va ilmiy kengash qarorlariga asoslanadi.

Marketing tizimi. Bozor iqtisodi sharoitida tizim samaradorligini ta'minlash uchun, har bir muassasa, shu jumladan o'quv muassasasi ham marketing xizmatini tashkil qilishi kerak. Har bir muassasa, shu jumladan o'quv muassasasining marketing xizmatini tashkil qilish bozor iqtisodi sharoitida samarali faoliyat qilish uchun kerak.

Masofaviy o'qitish tizimida marketing an'anaviy vazifalarni bajaradi, ya'ni, ishlab chiqarishni boshqarish va mahsulotni sotish, talablarni aniqlashga yo'naltirilgan, o'quv muassasasi faoliyatini iste'molchi bozoriga moslashtiradi.

Masofaviy o'qitish tizimini tashkil etishda marketingning quyidagi asosiy tamoyillardan foydalaniladi:

- ta'lim xizmatlari bozorida talabni va uning o'sish dinamikasini hisoblash, yo'nalishlarni aniqlash, kerak bo'lgan mutaxassislarning soni va sifatini aniqlash;
- ta'lim xizmatlari ishlab chiqarishini bozor talablariga maksimal darajada moslash (o'quv rejalar va o'quv dasturlar, o'quv-uslubiy adabiyot, o'qituvchilar tayyorlash va h.z);
- masofaviy o'qitish tizimini tashkil etishda iste'molchi, jamiyat va ta'lim muassasasi manfaatlarini uyg'unlashtirish;
- ta'lim xizmatlarini targ'ibot qilish (milliy va xalqaro masshtabda);

Masofaviy o'qitish tizimining didaktik tizimini izchillik bilan tashkil etish, zamon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga imkon yaratadi.

Masofaviy o'qitishning tamoyillari

Masofaviy o'qitishning o'ziga xos tamoyillari quyidagilardan iborat:

Interfaollik tamoyili. Bu tamoyil tinglovchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqani ta'minlab qolmay, balki tinglovchilar o'rtasidagi aloqani ham ta'minlaydi. Tajribalar tinglovchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqadan ko'ra tinglovchilar o'rtasidagi aloqalar ko'proq ekanligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich bilimlar tamoyili. Masofaviy o'qitish tizimida tinglovchining oldindan tayyorgarlik ko'rishi va apparat - texnik vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi, kompyuterga ega bo'lishi va internetga ulanishi, hamda bu tizimda ishlay olish malakalariga ega bo'lishi lozim.

Individuallik tamoyili. Real o'quv jarayonida kirish va oraliq nazorat o'tkaziladi. Bular natijasini tahlili asosida individual o'quv rejalar tuziladi, shu jumladan oqsayotgan dastlabki bilimlar va ko'nikmalar bo'yicha ham.

Identifikatsion tamoyil. Mustaqil o'qishni nazorat shakli bo'lib, bilim sifatini nazorat qilishda bevosita muloqot videokonferentsiyalar kabi turli texnik vositalarini qo'llaniladi.

O'qitish reglamenti tamoyili. O'quv jadvalining qat'iy rejalashtirilishi va rejalashtirilgan jadvalning nazorati bilan belgilanadi.

Yangi axborot texnologiya vositalarini qo'llashning pedagogik maqsadlilik tamoyili. Masofaviy o'qitish tizimini loyihalashtirishda, yaratish va tashkil etishda mavjud bo'lgan texnik vositalarini qo'llashning maqsadga muvofiqligini tahlil qilib, ularni qo'llashda xato qilishning oldini olish lozim. Masofaviy o'qitish tizimida qo'llaniladigan texnik vositalarning optimal nisbati quyidagicha: bosma materiallar 40-50%, WWW serverlaridagi o'quv materiallar 30-35%, kompyuter videokonferentsiya aloqasi 10-15% , qolganlari 5-20%.

Ta'limning oshkoralik va o'zgaruvchanligini ta'minlash tamoyili. Bu tamoyil yosh va boshlang'ich ta'lim darajasi jihatdan «mo'tadilligi», kirish nazoratining suhbat, imtihon, test shaklida o'tkazilishi va h.k. bilan ifodalanadi. Buning natijasida keyinchalik o'quv muassasasidan bu tinglovchini shaxsiy (individual) reja bo'yicha o'qitishda qo'shimcha harakatlar talab qilinadi. Ta'lim tizimining ko'p variantlilikini

ta'minlash va bir o'quv yurtidan boshqa o'quv yurtiga o'tish imkoniyatini mavjud bo'ladi.

Masofaviy o'qitish tizimining istiqbolligi shundaki, bu tizim shaxsning eng asosiy huquqlaridan biri – ta'lim olish huquqini amalga oshirishni ta'minlaydi. Masofaviy o'qitish tizimining maqsadga muvofiqligini baholashda, albatta uning ijtimoiy samaradorligini e'tiborga olish lozim.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi tushunchasi standartlashtirilmagan. Eng ko'p tarqalgan ta'rif quyidagicha: masofaviy o'qitish texnologiyasi bu ta'limni belgilangan mazmunini nusxalab amalga oshirishga yo'naltirilgan usullar tizimi, maxsus vositalarning, o'qitish shakllarining majmuasidir.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyalarning bir ko'rinishi sifatida qabul qilinishi mumkin. «Pedagogik texnologiya» tushunchasi standartlashtirilmaganligini hisobga olgan holda, ko'pincha YuNESKO qabul qilgan tushuncha ishlatiladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasiga berilgan YuNESKO ta'rifiga ko'ra masofaviy o'qitishga quyidagi ta'rifni shakllantirish mumkin: masofaviy o'qitish texnologiyasi – bu inson va texnik resurslarini, ularning o'zaro aloqasini, hisobga olgan holda, ta'lim xizmatining butun jarayonini yaratish, qo'llash va ommaboplashtirish tizimli yondashuvi bo'lib, bilvosita individuallashtirilgan ta'lim tizimida o'qitish shakllarini maqbullashtirishni o'ziga vazifa qilib qo'yadi.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim axborotlarini taqdim etish texnologiyasi;
- ta'lim axborotlarini uzatish texnologiyasi;
- ta'lim axborotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi.

Ta'lim axboroti: muayyan faoliyat turi, ixtisosini amalga oshirishda ko'llashi uchun, ta'lim oluvchiga berish kerak bo'lgan bilimlardir. Masofaviy o'qitish tizimida yangi elektron kitoblarga alohida talablar qo'yiladi. Elektron kitoblardagi ta'limiy

axborot tinglovchining psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorlanishi kerak, chunki u bu axborotni kompyuter ekrani orqali qabul qiladi.

Elektron darslik quyidagi maxsus talablarga javob berishi kerak:

- tushunchalar beriladigan matn qismining rivojlangan, gipertekst tuzilishi (tushunchalar, ta'riflar, teoremlar), va bayonning mantiqiy tuzilishi (qismlarning ketma ketligi, bog'liqligi);
- ta'lim olishda qulay yangilik tizimiga ega bo'lishi, tinglovchi kursning bir qismidan ikkinchi qismiga o'tishi, o'qituvchiga elektron xabarlar yuborishi, diskussiyalar bo'limiga o'tishi;
- zamonaviy kompyuterlarning multimedia va Internet imkoniyatlaridan foydalanish;
- darslikda bilimlar nazorati tizimining ishlab turishi;
- glossariy mavjudligi (avtonom qo'shimcha ma'lumotlar) va ularga tayanish. Glossariylar kurslar uchun alohida, bir necha kurs uchun alohida modullar uchun ishlab chiqariladi;
- darsliklarda tasviriy manbalar, elektron kutubxonalar va Internetdagi manbalarning ko'rsatilishi;
- qulayligi- tizimga tez kirish;
- o'qituvchi bilan samarali aloqada bo'lish (elektron pochta, ...) aniq vaqt birligida Internet orqali gapira olish;

Ta'lim axborotlari ta'lim texnologiyalari orqali uzatiladi.

Ta'lim texnologiyasi – bu ta'lim axborotlarini manbadan iste'molchiga uzatishda qo'llaniladigan didaktik uslublar majmuasidir. Masofaviy o'qitish tizimida tasviriy fikrlashni faollashtirishga alohida e'tibor berilishi kerak, ya'ni o'qituvchi fikrini tasviriy obrazlar ko'rinishida taqdim etishi kerak. Masofaviy o'qitish tizimi ta'lim texnologiyalarida fikr, axborot, bilimni vizuallashtirish, katta ahamiyatga ega.

Masofaviy o'qitish tizimida quyidagi ta'lim texnologiyalarini ishlatish mumkin:

- video-ma'ruzalar; multimedia-ma'ruzalar va laboratoriya amaliyotlari; elektron va multimedia-darsliklari; kompyuter test tizimlar; imitatsiya modellari va kompyuter trenajyorlar; telekommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchi konsultatsiya va testlar; videokonferentsiyalar.

Axborotlarni saqlash, qayta ishlatish, tinglovchiga yetkazish, o'qituvchi va tinglovchi o'rtasidagi interfaol muloqot, hisoblash texnikani qo'llashga tayangan apparat-dasturlar vositasida amalga oshiriladi. Bular – axborot texnologiyalaridir.

Masofaviy o'qitish tizim texnologiyalari pedagogik texnologiyalar asosida ishlangan bo'lib, kuyidagi qo'shimcha talablarga javob berishi kerak:

Adaptatsiya – ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsiga, turar joyi sharoiti, moliyaviy sharoiti, psixologik va fiziologik xususiyatlariga moslashtirish. Bu tinglovchining yakka holda, kompyuter va telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ta'lim olish jarayonida juda muhimdir.

Iqtisodiy muvofiqlik – bu talabga rioya etish ta'lim tizimining moliyalash mablag'lari chegaralanganligidan kelib chiqadi.

O'zgaruvchanlik – ta'lim sifati va mazmunini tezkor va uzluksiz yangilab borish, o'quv materiallari va darsliklarni modernizatsiyasi takomillashtirishdir. Ushbu zaruriyat ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi talablariga ko'ra paydo bo'ladi.

Nazorat – o'qitishning barcha bosqichlarida natijalarni sifatli nazorat qilish, tinglovchi shaxsini aniqlash.

Masofaviy o'qitish tizimi natijalari o'quv kurslarining ishlanmasi va taqdimoti sifatiga bog'liqdir.

NAZORAT SAVOLLARI:

Nazorat savollari:

1. Modul ta'rifini bering.
2. Modulli o'qitishning kontseptual asoslarini aytib bering.
3. Modulli o'qitishning mohiyatini tushuntirib bering.
4. Modulli o'qitishning maqsadli yo'nalishlarini izohlab bering.
5. Faoliyatlik tamoyilining maqsadi va mazmunini izohlab bering.
6. Tenglik va teng huquqlik tamoyilining maqsadi va mazmunini tushuntirib bering.
7. Tizimli kvantlash tamoyilining maqsadi va mazmunini izoxlab bering.

8. Modullik tamoyilini izohlab bering.
9. Muammolik tamoyilini izohlab bering.
10. Modulning tarkibiy elementlarini aytib bering.
11. Motivatsiya tamoyilini izohlab bering.
12. Kognitiv vizuallik tamoyilining maqsadini tushuntirib bering, mazmunini namoyon eting.
13. Xatoliklarga tayanish tamoyilining maqsadini tushuntirib bering, mazmunini namoyon eting.
14. O'quv vaqtini tejash tamoyilini mohiyatini izohlab bering.
15. Texnologik tamoyilning mohiyatini izohlab bering.
16. Uzviylik tamoyilining mohiyatini tushuntirib bering.
17. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining ta'rifini va mohiyatini izohlab bering.
18. Modulli o'qitish maqsadlarini izohlab bering.
19. Fan bo'yicha yondashuv asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining sxemasini tushuntirib bering.
20. Modulli o'qitishning afzaliklarini izohlab bering.
21. Tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasini mohiyatini izohlab bering.
22. Modulli dasturlar tuzilmasini tushuntirib bering.
23. Tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi sxemasini tushuntirib bering.
24. Tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish bosqichlarini tushuntirib bering.
25. Modulli blokning shakllanish tartibini va mazmunini tushuntirib bering.
26. O'rgatuvchi modulning tuzilmasini aytib bering.
27. O'rgatuvchi modulning muvofiqlashtiruvchi blokini izohlab bering.
28. O'rgatuvchi modulning axborot-yo'riqlar blokini izohlab bering.
29. O'rgatuvchi modulning nazorat blokini izohlab bering.
30. Modulli o'qitish dasturini tushuntirib bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Modulli o'qitishning talabiga mosligini namoyon etish.
2. Modulli o'qitishning tamoyillarini tahlil etish.

3. Modulli o'qitishda muammolik tamoyilini amalga oshirish yo'llari.
4. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasini qo'llash doirasini asoslab berish.
5. Tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasini qo'llash doirasini asoslab berish.
1. Masofaviy o'qitish tizimini tashkil etishning dolzarbligini tushuntiring.
2. Insonni ta'limga bo'lgan ehtiyoji kabi huquqini amalga oshirishga masofaviy o'qitishni xizmat qilishini izohlab bering.
3. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimini tarkibini aytib bering.
4. O'qitish maqsadi nima asosida shakllanadi?
5. O'qitish mazmuni qanday belgilanadi?
6. Ta'lim oluvchilarga quyiladigan talablar?
7. O'qitadiganlarning funktsiyalari nimalardan iborat?
8. O'qitish uslublarini izohlang.
9. O'qitish vositalarining turlari?
10. Ilmiy o'quv material bazasining tarkibi?
11. Identifikatsion nazorat tizimining mohiyati nimada?
12. Moliyaviy-iqtisodiy tizimi tushunchasi?
13. Me'yoriy-huquqiy tizim tarkibi va mohiyati?
14. Marketing tizimning tamoyillari?
15. Interfaol tamoyilning maqsadi va mazmuni?
16. Boshlang'ich bilimlar tamoyilining maqsadi va mazmuni?
17. Individuallik tamoyilning maqsadi va mazmuni?
18. Identifikatsion tamoyilning maqsadi va mazmuni?
19. O'qitish reglamenti tamoyilining maqsadi va mazmuni?
20. Yangi axborot texnologiya vositalarni qo'llashning pedagogik maqsadligi tamoyilining mohiyati?
21. Ta'limning oshkorlik va qamrovligini ta'minlash tamoyilini mohiyati?
22. Masofaviy o'qitish tizimida qo'llanadigan texnik vositalarning optimal nisbati?
23. Masofaviy o'qitish texnologiyasi tushunchasining ta'rifi?
24. Masofaviy o'qitish texnologiyasining tarkibiy qismlari?
25. Ta'limiy axborotning mazmuni?
26. Ta'lim texnologiyasining mazmuni?
27. Ta'lim jarayonida adaptatsiya tushunchasi?
28. Iqtisodiy talabning mohiyati nimada?

29. Ta'limda qulaylik va nazorat talablarning mazmuni?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Masofaviy o'qitishning mohiyatini va mazmunini yoritish.
2. Ta'lim oluvchilarning tayyorgarligi va ularning ish joylarga qo'yiladigan talablar.
3. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va uslubiy ta'minot.
4. Masofaviy o'qitishning tamoyillarini tahlili
5. Masofaviy o'qitish texnologiyasining tarkibi va vazifalari.

30. Masofaviy o'qitish tizimini tashkil etishning dolzarbligini tushuntiring.

31. Insonni ta'limga bo'lgan ehtiyoji kabi huquqini amalga oshirishga masofaviy o'qitishni xizmat qilishini izohlab bering.

32. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimini tarkibini aytib bering.

33. O'qitish maqsadi nima asosida shakllanadi?

34. O'qitish mazmuni qanday belgilanadi?

35. Ta'lim oluvchilarga quyiladigan talablar?

36. O'qitadiganlarning funktsiyalari nimalardan iborat?

37. O'qitish uslublarini izohlang.

38. O'qitish vositalarining turlari?

39. Ilmiy o'quv material bazasining tarkibi?

40. Identifikatsion nazorat tizimining mohiyati nimada?

41. Moliyaviy-iqtisodiy tizimi tushunchasi?

42. Me'yoriy-huquqiy tizim tarkibi va mohiyati?

43. Marketing tizimning tamoyillari?

44. Interfaol tamoyilning maqsadi va mazmuni?

45. Boshlang'ich bilimlar tamoyilining maqsadi va mazmuni?

46. Individuallik tamoyilning maqsadi va mazmuni?

47. Identifikatsion tamoyilning maqsadi va mazmuni?

48. O'qitish reglamenti tamoyilining maqsadi va mazmuni?

49. Yangi axborot texnologiya vositalarni qo'llashning pedagogik maqsadligi tamoyilining mohiyati?

50. Ta'limning oshkorlik va qamrovligini ta'minlash tamoyilini mohiyati?

51. Masofaviy o'qitish tizimida qo'llanadigan texnik vositalarning optimal nisbati?

52. Masofaviy o'qitish texnologiyasi tushunchasining ta'rifi?

53. Masofaviy o'qitish texnologiyasining tarkibiy qismlari?
54. Ta'limiy axborotning mazmuni?
55. Ta'lim texnologiyasining mazmuni?
56. Ta'lim jarayonida adaptatsiya tushunchasi?
57. Iqtisodiy talabning mohiyati nimada?
58. Ta'limda qulaylik va nazorat talablarning mazmuni?

Mustaqil ish topshiriqlari:

6. Masofaviy o'qitishning mohiyatini va mazmunini yoritish.
7. Ta'lim oluvchilarning tayyorgarligi va ularning ish joylarga qo'yiladigan talablar.
8. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va uslubiy ta'minot.
9. Masofaviy o'qitishning tamoyillarini tahlili
10. Masofaviy o'qitish texnologiyasining tarkibi va vazifalari.

10-Mavzu: Ta'limning "Loyiha" va "Keys-study" texnologiyasi

"Case" so'zi, lotincha "casus"- "voqea, hodisa" so'zidan kelib chiqqandir. Boshqacha aytganda, bu tushuncha hayotda yuz beradigan qandaydir voqea yoki hodisani, aniq bir vaziyatning tafsilotini anglatadi. Umuman olganda, keys – stadi (aniq bir holat yoki vaziyat), muayyan jarayonida sodir bo'ladigan haqiqiy voqelikni so'zlar, raqamlar, obrazlarda ifoda etishda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, bu ifoda ta'lim sohasida, hodisa yoki vaziyatni tadqiq etish uchun ishlatiladigan axborot, stenografiya sifatida qo'llaniladi. Keys stadi hodisa yoki vaziyatni oddiy tafsilotidan farqli o'laroq, u o'quv materialini o'zlashtirish uchun ko'maklashuvchi axborotni o'z ichiga oladi, bunga duch kelgan muammoni aniqlash va uning yechim yo'llarini izlash orqali erishiladi. Keys stadi, muayyan o'quv maqsadli bilim olish vositasi sifatida ishlab chiqilishi zarur. Ushbu maqsadlar keng ko'lamli bo'lib, axborotlar, ma'lumotlar yokitafsilotlar bilan ta'minlanishini nazarda tutadi, ular muayyan qarashlar yoki usullarni namoyish etishda qo'llanilishi mumkin. "Keys-stadi" atamasini o'qitish va tadqiq etish yo'nalishlarida qo'llashda turlicha yondashish zarurligini alohida qayd etish lozim.

Mutaxassislar mazkur termini tashkilotlarni jadal o'rganish, ifodalash va tahlil etish uchun ishlatadilar, uning natijasida yangi nazariya yaratiladi mavjud nazariya tekshirib ko'riladi, yangi yechimlar aniqlanadi

Keys usul birinchi marta Garvard biznes - maktabida bo'lg'usi advokatlarni amaliy malakalarga o'rgatishda ishlatila boshlangan edi.

Vaziyatlar mazmuni va tafsilotini ifodalashning turli xil ko'rinishlari mavjud. Keys-stadi bor-yo'g'i bir necha iboralardan tortib, yuzlab varaqlardagi hajmgacha ega bo'lishi mumkin. Yirik hajmdagi keys-stadiga duch bo'lgan talabalar, odatda keys-stadining tafsiloti qanchalik yirik bo'lsa ular shunchalik murakkab deb hisoblaydilar. Bu noto'g'ri xulosadir – chunki ko'pchilik qisqa keyslar chigalroq bo'ladi. Keysni tuzishda muayyan vaziyatni ifodalash uchun uning yozma shaklidan foydalanish shart emas. Vaziyatlarni ifodalash uchun fotografiya, videofilmalar, audioyozuvlar yoki slaydlardan foydalanish mumkin. Barcha ushbu vositalar talabalarga vaziyatni haqiqatga yaqinroq gavdalantirishga

yordam beradi. SHu bilan birga yozma shakldagi axborot masalan fotografiya shaklidagi axborotdan ko'ra qayta ishlash va tahlil etish uchun qulayroqdir. Bu hollarda fotografiyalarni yozma shakldagi axborot bilan to'ldirish zarur. Yozma keyslarni o'rganish tajribasi bo'lgan talabalarni o'qitishda mul'tivositalar axborotlaridan foydalanilgan keyslarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Keys-stadi (muayyan vaziyatlar) individumlar, sheriklar, guruhlarda, korxonalarda, hattoki butun bir mamlakat miqyosida o'zining ta'lim xususiyatiga ko'ra nazarga keluvchi muammolarni ifodalashi mumkin. Keyslar ta'limning turli sohalarida: biznes, boshqaruv, tibbiyot, arxitektura, qurilish, hamda nostandart muammolar majmuasi yechimini qabul qilish malakasini talab etadigan barcha fanlarda qo'llanilishi mumkin.

“Keys stadiya” yordamida o'qitishda muammolar aniqlanadi, yechimlar topiladi, tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Sifatli keys-stadilar, ularni tayyorlash, rasmiylashtirish va tekshirish uchun ko'p vaqt talab etadi. Va shu bilan birga to'g'ri tuzilgan va o'quv faniga kiritilgan keys-stadi, fanni o'zlashtirishda ko'zlangan natijalarga erishishga imkoniyat beradi.

Ishchan keys-stadilar tuzishning quyidagi ketma-ketligiga rioya qilinish (3.13-rasm) tavsiya etiladi.

Кейсни ўрганиш мақсад ва вази- фалари- ни иш- лаб чиқиш	Кейс- нинг мақ- сад ва вазифа- ларига муво- фиқ матери	Мате- риал- ларни бир- ламчи қайта иш- лаш	Кейс тури- ни аниқ- лаш	Кейс мақсади ва вазифас ига мувофиқ матери- ялни мос- лаш	Кейс матни ва унга қўйилад иган саволла рини техник тузиш	К а бал (с қў-
--	---	---	-------------------------------------	---	---	----------------------------

3.13. rasm. Keys - stadi tuzish texnologiyasi.

Keysni o'rganish maqsad va vazifalarini ishlab chiqish - mazkur bosqichda o'qituvchi o'qitiladigan fan bo'yicha talaba o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va malakalarga o'z e'tiborini qaratadi. Oldin o'rganilgan material bilan qo'yilgan maqsadning so'zsiz muvofiqligi ko'zda tutilgan bo'lishi zarur. Keysstadilarni tuzish va qo'llashning asosiy tamoyillari yetarli darajada umumiydir.

Keysning maqsad va vazifalariga muvofiq materiallar tanlash - keysning materiali muammoni ochib berishi lozim va mazkur muammo keys oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga mos bo'lishi kerak. Keyslar haqiqiy vaziyatlarni aniq tafsilotini namoyish etishlari yoki biroz muallifni ijod natijalardan qo'shilgan bo'lishi mumkin. Keyslar uchun ma'lumotlar va materiallari sifatida yuqorida ko'rsatilganidek, gazeta maqolalari, tashkilotlarning hujjatlari, u yoki bu sohadagi tashkilotning faoliyati bo'yicha xususiy kuzatuvlar, mutaxassislarining fikri,

iste'molchilarning fikri, statistika qo'mitasi ma'lumotlari, diagramma fotohujjatlar, mul'timedia materiallari, slaydlar va h.k. xizmat qilishi mumkin.

Materiallarni birlamchi qayta ishlash. - Ushbu bosqichda olingan ko'p sonli axborotlardan, keys-stadi maqsadlariga mos keluvchi, foydalisini tanlab olinadi. Keys-stadida qo'llaniladigan integrallashgan tahlil, ko'p shakllarga ega bo'lishi mumkin. U asosan qo'shimcha ma'lumotlarni tarmoq hisobotlari, texnik hujjatlar, kompaniyalar hisobotlari, shaxsiy tajribalar va h.k. kiritish va tahlil etishdan iborat.

Keys turini aniqlash. - Keys-stadi tayyorlash usuli bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin. **Yozilish joyiga ko'ra keys-stadilar** "maydonda" (ya'ni ob'ektda – firma yoki kompaniyada) yoki o'qituvchining ish stolida tayyorlanishi mumkin bo'lsa, keys stadida foydalaniladigan manbalar rasmiy (ya'ni nashr etilgan) yoki norasmiy (ya'ni dastlabki manbalardan olingan) ko'rinishga ega bo'lsa, ko'rsatilgan ikki o'zgaruvchi jamlamasidan to'rt xil keys-stadi hosil bo'ladi: - "kutubxona", "nashriy", "klassik" va "kabinet", "Kutubxona" keys-stadisi tashqi tomonidan "maydonda"gi tadqiqot natijasida tayyorlangan keys-stadiga o'xshab ketadi. Ularda korxonalar faoliyati haqida ommaviy axborot vositalarida (televideniya bilan birga) va davlat boshqaruv organlarida (statistik, nazorat, sud va h.k.) chop etilgan axborotlar keng miqyosda foydalaniladi.

"Kabinet" keys-stadilar, muallifning tadqiqotlari boshqaruv sohasidagi o'qituvchiligi va maslahatchiligida to'plagan boy tajribalariga asoslanadi.

Keys maqsadi va vazifasiga muvofiq materialni moslash. -Haqiqiy vaziyatlar tafsilotini tayyorlashda, odatda kompaniya, muassasa, tashkilot, ma'muriyati, uning raqobatchilarini ochilgan axborotdan foydalanishiga to'sqinlik qilish maqsadida ularning aynanligini niqoblanishini talab etadi. Ushbu holatlarda tadqiqot ob'ektining uydirma nomlaridan foydalanish mumkin, ko'rsatkich va ma'lumotlarni biroz tuzatish mumkin, ular uydirma bo'lmasligi kerak, chunki vaziyatning ko'rinish tafsiloti tubdan o'zgarib haqiqatdan farq qilishi mumkin.

Masalan daromad hajmini va talafotning hisobiy ko'rsatkichini sun'iy oshirilsa, tashkilotda ma'lum harakatlar uchun qandaydir zahira mavjudligi haqida xulosa qilish mumkin bo'ladi, ammo haqiqatda buni bajarib bo'lmaydi. Keys

muallifi, vaziyat tarixini o'rganishni taklif etishi mumkin, ya'ni ushbu vaziyat qo'yilgan o'quv maqsadlari talablariga mos kelishi kerak.

Keys matni va unga qo'yiladigan savollarini texnik tuzish. -_Haqiqiy vaziyatlarning tafsilotidan tashqari, izchillik bilan haqiqatga yaqin vaziyatni tasvirlash tajribasiga ega bo'lgan muallifning ijodiy hayoti asosida ham vaziyatni ifodalash mumkin. Ammo, ko'pchilik hollarda bunday keyslar talabalarga yoqmaydi, ular haqiqiy, chuqur ma'noga ega bo'lgan, aniq va to'liq axborotlarni talab etadilar. Ular eng avvalo haqiqiy vaziyatga o'zlarining foydali va bu jarayonlarga tegishli ekanligini his etishni xohlaydilar, o'z bilim va malakasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Keys usulni qo'llash bilan mashqlar bajarishni farqlay olish kerak. Mashqlarni bajarish yuzaki tafsiloti haqiqiy yoki uydirma bo'lgan voqeani eslatishi mumkin. Ammo, mashqni bajarish maqsadi bilan keys-stadi tadqiqotlari turlidir. Matematik ko'rinishdagi misol, masala, mashqlar talabalarni maxsus kontseptsiya texnika yoki tamoyilni qo'llashni o'rganish uchun material hisoblanadilar. Vaziyat esa, talabalarga keng qamrovli malakalarni egallashga yordam berish uchun qo'llaniladi. Mashq yoki masalani bajarishda bitta yechim va bu yechimning bitta yo'li mavjud bo'ladi, vaziyatda esa juda ko'p yechim va yechimning muqobil yo'lchalari mavjuddir.

Vaziyatni shunday ifodalash mumkinki u talabalarga maxsus analitik usulni qo'llash yoki muammoga maxsus usul bilan yaqinlashish imkoniyatini yaratsin. Keys usulning markaziy vazifasi – bu talabalarni tarkiblashtirilmagan muammolar majmuasini yechishni o'rgatishdan iborat, ushbu turdagi muammolarni muayyan analitik usul yoki yo'l bilan yechib bo'lmasligi aniq. SHuning uchun, o'qituvchi talaba oldiga aniq vazifa qo'yishi lozim: yoki masalani yechish yoki keys-stadini bajarish. Buning uchun berilgan topshiriq bo'yicha o'qituvchi talabaning nuqtai nazari bilan o'zinikini solishtiradi va zaruriyat bo'lsa, talaba tushunchasiga tuzatish kiritadi.

Vaziyatlar “o'lik”, “tirik” yoki qandaydir o'rtacha bo'lishi mumkin. “O'lik” vaziyatda, vaziyatning barcha axboroti talabalarga tahlilning boshida taqdim etiladi. Vaziyat tirik bo'lishi uchun, axbort vaziyat o'zgarishi bilan qo'shimcha berilib boriladi, ya'ni vaziyatni to'la o'rganish davomida qandaydir ma'lumotlar beriladi. Bu esa vaziyatni haqiqiy o'zgarib borishini ta'minlaydi. Ba'zi keys-

stadilarda bir tashkilotning o'zida, bir vaqtning o'zida paydo bo'lgan muammolar, vaziyatlarning turlicha talqini taqdim etilishi mumkin. Bunday holatlarda talabalarda mazkur tashkilot va uning muammolari haqida ma'lumot to'plab, o'zlarining juda murakkab javoblari va yechimlarini ishlab chiqishga imkoniyat yaratiladi.

Vaziyatning "tirik" shakli ikki turli bo'lishi mumkin. Birinchi turda, tashkilot a'zosi mavjud vaziyatni umumiy tarzda ifoda etadi. Tashkilotdagi aniq holat va uning muammolarini aniq tassavur etish uchun, talabalar o'qituvchiga bir necha qo'shimcha savollar berishlari zarur bo'ladi. Tabiiyki, bunday keyslarning har biri, ularning ko'rilish vaqti va joyiga ko'ra farq etadi. Ikkinchi turi, oddiy keys – usuldagidek, vaziyatni oddiy yozma tafsilot ko'rinishida taqdim etadi. Talabalarda haqiqiy vaziyatga jalb etilish uchun, faqat o'zlariga foydali axborotlarni to'plash imkoniyati beriladi. Ushbu turli "tirik" vaziyat, o'rganishning bosha usuli – loyihalashga yaqinlashadi. Ularning asosiy farqi tashkilot va talaba o'rtasidagi munosabatning xarakteridadir. Loyihalash odatda tashkilot a'zolariga faoliyat rejasini taklif etuvchi talabalar guruhini jalb etadi. "Tirik" vaziyat, asosan tashkilotdan axborot manbasi sifatida foydalanishga imkon berishi mumkin. Talabalarning qiziqishi oshgani sari ta'lim imkoniyati oshib boradi. Bundan tashqari, bu talabalarda axborotni izlash, olish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish imkoniyatlarini yaratadi. "Tirik" vaziyatlar, ularni tadqiq etishning yuqori darajadagi malakalarini talab etadilar, bunday malakaga esa quyi kurs talabalari ega bo'lmaydilar. Ko'pchilik o'qituvchilar ushbu turli vaziyat yo'riqnomasini an'anaviy keys – kurs va loyihalash orasidagi ko'prik sifatida foydalanadilar.

Keys aprobatsiyasi (sinab ko'rish). Muayyan vaziyatning tahlili sifati va auditoriyada uni muhokama qilishda talabalarni jalb etish darajasi ushbu usulni qo'llashda alohida ahamiyat kasb etadi. So'zsiz, o'qituvchi qanchalik mahoratli bo'lmasin, u o'z yutug'ini auditoriya bilan baham ko'rishga majburdir. SHuning uchun, talabalar keys-stadini qo'llab o'tkaziladigan mashg'ulotlarga tegishli ravishda tayyorlanishi juda muhimdir.

Muayyan vaziyat usuli aprobatsiyasi doirasida talabaning keys bilan ishi quyidagilardan iborat:

- keys-stadini individual tahlil qilish;
- keys-stadini kichik guruhda tahlil qilish;

- keys-stadini auditoriyada o'qituvchi bilan muhokama qilish.

Aprobatsiyada keys-stadi bilan tanishishni bir necha bosqichda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Birinchi marta butun keys-stadini juda tez o'qib chiqish kerak. Bunda o'qish tezligi, uni qayta aytib berish imkoniyati bilan aniqlanishi zarur.

Birinchi o'qish davomida, talaba qanday keys-stadi bilan ishlayotgani va keys-stadi umumiy mavzusi hamda mazmunini tushunishi lozim. Keys-stadining tarkibi va mantiqiga alohida e'tibor qaratish lozim, bu esa keyinchalik matn bo'yicha tushuntirish va havolalarga qaytishga yordam beradi. Agar talaba nima uchun aynan shu keys-stadi berilganini tushunib yetsa, unda unga o'qituvchi auditoriyada qo'yishi mumkin bo'lgan savollarni aniqlashi oson bo'ladi. Birinchi o'qish talabani kichik guruhda ishlashga tayyorlashi lozim, u yerda talaba boshqalar bilan o'rtoqlashishi mumkin.

Keysning ikkinchi o'quvi, ancha diqqat va e'tiborli bo'lishi lozim, uning tezligi esa o'qilganga nisbatan anglashni amalga oshirish orqali belgilanadi. Katta keys-stadi uchun bu ikki soatdan to'rt soatgacha davom etishi mumkin. Keys-stadining tahlili, aynan shu bosqichda bo'lanadi. Buning uchun, talaba barcha muhim dalillarni tahlil etishi va ularni baholashdan ajratishi lozim. Tahlil, dalillarni topish, muammo qismlarini, hamda ularni o'zaro bog'liqliligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Samarali tahlil jarayonida ungacha ko'zga tashlanmagan ba'zi bir yangi hodisalar (narsalar) aniqlanishi mumkin. Dalil va voqealar tahlili talabalarga o'z qarorlarini tasdiqlash uchun yordam berishi kerak. Bu talabadan originallik va ijod talab qiladi. Ko'pchilik hollarda talabalar tahlil o'rniga dalil va voqealarni baholashga o'tib ketadilar. Ammo haqiqiy baholash, faqat puxta tahlildan so'nggina amalga oshirilishi mumkin.

Talaba ikkinchi o'qish davomida muammoga yetib borishi kerak deb faraz etiladi. Bu oson ish emas. Talaba, muammo istak va natija orasidagi nomuvofiqlikda ekanligini tushunishi lozim. Muammolar faqat moddiy asosga (korxonalar, mashinalar, pullar, baholar va boshqalar) ega bo'lishi mumkin emas. Ular doimo inson va uning hatti-harakati bilan bog'liq bo'ladilar. Bu ko'pchilik hollarda tashkilot rahbariga tegishli, agar u keys-stadi "qahramoni" sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi o'qish talabaga o'qituvchi baholaydigan ya'ni qabul qilinadigan yechimning asoslanganligini ta'minlaydi. Buning uchun talaba dalil va

voqealar ketma-ketligidan iborat zanjir tuzishi zarur. Undan tashqari u sxema va jadvallarni diqqat bilan kuzatib, matnda tushintirilmagan ma'nolarni topa olishi kerak.

Keys-stadini uchinchi o'qishi yakuniy hisoblanadi. Buni mashg'ulotdan oldingi kunning kechasi bajarish yaxshidir. Keys-stadini avval boshlanishini o'qish, so'ng oxiridan boshlab hammasini oldinga "qaytarib" dalil va voqealarni kichik guruhda muhokama qilgandan keyin, qayta tekshirish va aniqlash foydadan xoli bo'lmaydi.

Keys-stadi bilan ishlashning ushbu bosqichi, keys-stadining jiddiy ma'naviy tahlilidan va ushbu tahlilni auditoriyada taqdim etishning samarali shaklini aniqlashdan iborat. SHuni ta'kidlash lozimki, ko'pchilik hollarda keys-stadi muhokamasi muammo, muqobil yechimlar va tavsiyalar atrofida kechadi. Keys loyihasini birinchi muhokamasida o'qituvchi talabanning har bir bosqichda sarf etgan vaqtini qayd etadi. Qo'shimcha axborotlar bilan ta'minlashning murakkabligi, uni o'qish qiyinchiliklari, rejalashtirilgan bilim va malakalarni o'zlashtirishdagi foydalilik darajasini aniqlaydi. SHu bilan birga fan bo'yicha rejalashtirilgan mavzularning keys loyihasida to'la qamrab olinganligi tekshiriladi.

Keys matnining oxirgi ko'rinishini shakllantirish (bosqichlar bo'yicha yo'riqnomaga bilan birgalikda). Ushbu bosqichda aprotatsiya natijalari bo'yicha kiritilgan kamchiliklarni hisobga olib keysning tuzatilgan matni tayyorlanadi. Keys ustida talabalar bilan ishni tashkil etish uslubini yoritishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu uslubiyot kelajakda o'qituvchi bo'lmoqchilar uchun juda foydali bo'ladi.

Tayanch iboralar:

Avtoritar o'qitish texnologiyasi, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi, insonparvarlik, hamkorlik, erkin tarbiyalash, muammoli o'qitish texnologiyasi, muammoli vaziyat, tabaqalashtirilgan o'qitish, o'qitishni tabaqalash, gonogen guruh, individual o'qitish, individual yondashish, individuallashtirilgan o'qitish, individual o'qitish texnologiyasi, kompyuterli o'qitish texnologiyasi, axborot banki, ishbilarmonlik o'yinlari, imitatsion o'yinlar. Operatsion o'yinlar,

rolli o'yinlar, psixodrama va sotsiodrama, keys – stadii, keys – stadii tuzish texnologiyasi.

Nazorat savollari:

1. An'anaviy o'qitish jarayonida talabanning o'rnini izohlab bering.
2. SHaxsga yo'naltirilgan o'qitish jarayonida talabanning o'rnini izohlab bering.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimining milliy modelida «shaxs»ning o'rni to'g'risida aytib bering.
4. Insonparvarlik tamoyilini tushuntirib bering.
5. Hamkorlik tamoyilini tushuntirib bering.
6. Erkin tarbiyalash tamoyilini tushuntirib bering.
7. Al_Buxoriyning shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalar to'g'risida fikrlarini aytib bering.
8. An'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarida o'qitish natijalarni izohlab bering.
9. Muammoli o'qitish texnologiyasini ta'rifi va mohiyatini tushuntirib bering.
10. Muammoli o'qitishning maqsadga yo'nalishlarni aytib bering.
11. Muammoli o'qitishni kontseptual qoidalarini aytib bering.
12. Muammoli vaziyatlarni yaratishning uslubiy yo'llarini tahlil eting.
13. Muammoli o'qitishda pedagog faoliyatini izohlab bering.
14. Muammoli o'qitishda talaba faoliyatini izohlab bering.
15. Muammoli o'qitishning asosiy shakllarni tushuntirib bering.
16. Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasini ta'rifini va mohiyatini aytib bering.
17. Tabaqalashtirilgan o'qitishni maqsadga yo'nalishlarni tushuntirib bering.
18. Tabaqalashtirilgan o'qitishni kontseptual qoidalarni aytib bering.
19. Gomogen guruhlarini tashkil etish usullarni namoyon eiting.
20. Tabaqalashtirilgan o'qitishning texnologik sxemasini izohlab bering.
21. Individual o'qitish, individual yondashish, individuallashtirilgan o'qitish, individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi iboralarni ta'rifini aytib bering va mazmunini tushuntirib bering.
22. Individuallashtirilgan o'qitishni maqsadli yo'nalishlarini aytib bering.
23. Individuallashtirilgan o'qitishni individual o'qitish kontseptsiyasini tushuntirib bering.
24. Talabalarning individual-psixologik xususiyatlarni tushuntirib bering.

25. Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasining o'qitish tamoyillarni aytib bering.
26. Gomogen guruhlarni tuzishini namoyon eting.
27. Individuallashtirilgan o'qitishning texnologik sxemasini izohlab bering.
28. Kompyuterlashtirilgan o'qitish texnologiyasini ta'rifini va mohiyatini aytib bering.
29. Axborot banki tushunchasini izohlab bering.
30. Kompyuterli o'qitishni maqsadli yo'nalishlarni aytib bering.
31. Kompyuterli o'qitishni ishlatish sohalarini aytib bering.
32. Kompyuterli o'qitishni kontseptual qoidalarni tushuntirib bering.
33. Kompyuterli o'qitishni mazmunning xususiyatlarini aytib bering.
34. Kompyuterli o'qitishni uslubiy xususiyatlarni izohlab bering.
35. Kompyuterli o'qitishda pedagogni funktsiyalarni namoyon eting.
36. Kompyuterli o'qitishning texnologik sxemasini tushuntirib bering.
37. Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasini ta'rifini va mohiyatini aytib bering.
38. Ishbilarmon o'yinlarini shakllarni aytib bering va mazmunini tushuntirib bering.
39. Ishbilarmon o'yinlar texnologiyasini yaratishning bosqichlarini izohlab bering.
40. Ishbilarmon o'yinlarni kontseptual asosi va qo'llanish sohasini namoyon eting.
41. Keys – stadii, yordamida o'qitishning mohiyatini tushuntirib bering.
42. Keysni o'rganish maqsad va vazifalarini ishlab chiqishni aytib bering.
43. Keysning maqsad va vazifalariga muvofiq materiallarni aytib bering.
44. Materiallarni birlamchi qayta ishlashni tushuntirib bering.
45. Keys turini aniqlashni izohlab bering.
46. Keys maqsadi va vazifasiga muvofiq materialni moslashni tushuntirib bering.
47. Keys matni va unga qo'yiladigan savollarini texnik tuzishni tushuntirib bering.
48. Keys aprobatsiyasi (sinab ko'rish)ni mohiyatini aytib bering.
49. Keys matnining oxirgi ko'rinishini shakllantirish mohiyatini tushuntirib bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. An'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarni taqqoslash.
2. Muammoli o'qitish texnologiyasini maqsadini va mazmunini yoritish.
3. Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasining maqsadini va mazmunini yoritish.
4. Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasining maqsadini va mazmunini yoritish.

5. Kompyuterlashtirilgan o'qitish texnologiyasining maqsadini va mazmunini yoritish.
6. Ishbilarmon o'yinlarni texnologiyalarining maqsadlarini va mazmunini yoritish.
7. Keys – stadii, texnologiyasini moxiyatini va tarqibini ochib berish.

11- Mavzu: O'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi pedagogik texnologiya

14. PIRLS va TIMS ta'lim sifatini Xalqaro monitoring

TIMSS xalqaro monitoring asosida o'quvchilarning tabiatshunoslik sohasidagi savodxonligini baholashga oid topshiriqlar ustida ishlash (2 soat amaliy)

Tayanch tushunchalar: tabiat, tadqiqot, TIMSS, bilish, qo'llash, mulohaza qilish, standart, shkala, xalqaro assosiyatsiya.

1. “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” qarori bilan tanishtirish
2. Boshlang'ich ta'lim jarayonida maktab tabiiy fanlar ta'lim sifatining Xalqaro monitoringi (TIMSS)ga oid topshiriqlar ustida ishlash.

Mashg'ulot maqsadi: TIMSS xalqaro monitoring asosida o'quvchilarning tabiatshunoslik sohasidagi savodxonligini baholashga oid topshiriqlar ustida ishlash bo'yicha ko'rsatmalar berish.

1-topshiriq.

“Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” qarori mazmuni bilan tanishtirish

2-topshiriq.

TIMSS Xalqaro tadqiqot natijalari tahlilini o'rganish

3-topshiriq.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida maktab tabiiy fanlar ta'lim sifatining Xalqaro monitoringi (TIMSS)ga oid topshiriqlar mazmuni bilan tanishtirish, topshiriqlar ustida ishlashga o'rgatish

Amaliy mashg'ulotni o'tkazish uchun tavsiya etilayotgan materiallar:

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash [tizimini takomillashtirish](#), shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

TIMSS – 4- va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish;

PISA – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

Ushbu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunga qadar Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi o'rtasida imzolangan kelishuvlarga muvofiq 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro dasturlarida ishtirok etish rejalashtirilgan.

Mazkur tadqiqotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi o'quvchi-yoshlarining savodxonlik darajalari ilk bor sinab ko'rilar ekan, bunga o'ta mas'uliyat bilan tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Buning uchun, xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba sinovlar o'tkazish, o'quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o'quvchilarda maxsus ko'nikmalarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, umumta'lim [muassasalari rahbarlari](#), pedagoglar, o'quvchilar foydalanishlari maqsadida o'quvchilarning matematik, tabiiy-ilmiy fanlar va o'qish savodxonligini baholashga qaratilgan topshiriqlar tarjima qilinib, to'plam ko'rinishiga keltirildi hamda foydalanish uchun taqdim etilmoqda.

TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi maktabning matematika va tabiiy fanlar ta'limi sifatiga solishtirma baho berish.

Har 4 yil davomida 4- va 8-sinf o'quvchilarining ta'lim yutuqlariga baho berib boriladi va shu bilan birga, nafaqat ularning bilim va ko'nikmasi, balki ularning ushbu fanlarga bo'lgan munosabati, qiziqishi, hamda ta'limga bo'lgan motivatsiyasini solishirishga imkon beradi. Tadqiqotning asosiy rejasi: 4 yil davomida 4-sinf o'quvchisi 8-sinfga yetgunga qadar uning

matematika va tabiiy fanlar bilimining natijalari kuzatib boriladi. Shu yo'sinda maktabning boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilarining bilim yutuqlarining monitoringi amalga oshiriladi.

Tadqiqot o'tkazuvchi davlatlarda maktabda matematika va tabiiy fanlar ta'limning mazmun mohiyati va o'quv jarayoni, ta'lim muassasasi, o'qituvchilar, o'quvchilar, ularning oilalari bilan bog'liq omillar qo'shimcha o'rganiladi. Xalqaro testga qo'shimcha bo'lib tadqiqotda ishtirok etuvchi maktab ma'muriyati, o'quvchilar va o'qituvchilar so'rovnomadan o'tkaziladi.

Olingan ma'lumotlar test natijalariga ya'ni o'quvchilarning bilimiga ta'sir [etuvchi omillarni aniqlashga](#), tadqiqotda ishtirok etuvchi davlatlarning matematika va tabiiy fanlarning holatini ko'rsatib berishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotni olib borishda va majmua ishlanmasida dunyoning ko'plab ilmiy tadqiqot markazlari va professional tashkilotlar ishtirok etadi. Ta'limsohasidagitestxizmatlari: (ETS-Educational Testing Service SSHA), Kanadaning statistik markazi (Statistics Canada), ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining Sekretariati (IEA, Niderland(gollandlar)lar), ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining ma'lumotlar markazi (DPC IEA – Data ProcessingCenter IEA, Germaniya) va hokazo. Turli davlat mutaxassislarining koordinatsiyasini kuchaytirish uchun dunyoning yetuk mutaxassislaridan iborat bo'lgan maslahat qo'mitalari tashkil etildi. Hozirgi tadqiqot koordinatsiyasi Boston kollejida xalqaro koordinatsiya markazi tomonidan amalga oshirilgan. (ISC – International Study Center, Boston College SSHA) Rossiyada ushbu tadqiqot (ta'lim sifatini baholash markazi) Rossiya ta'lim akademiyasining fan, ta'lim mohiyati va uslubi instituti xamda fan va ta'lim vazirligi va regionlarning ta'lim boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tadqiqotning tasnifi TIMSS tadqiqotini ishlanmasiga asos qilib maxsus xujjat olingan “TIMSS Assessment Frameworks and Specifications”, unda ushbu yo'nalishlarga umumiy yondashgan xolda matematika va tabiiy fanlarga test va test topshiriqlariga tushuncha berilgan, shuningdek o'quvchi topshiriqni bajarayotganda o'rganish faoliyatining barcha turlari namoyish etiladi, so'rovnoma davomida olinayotgan ma'lumotlar o'quvchiga, o'qituvchiga va ta'lim muassasiga berilgan tariflarning sanab o'tilgan turlari va topshiriqlari ko'rsatiladi.

Yo'nalishlar bo'yicha har bir variantga baholash uchun matematika va tabiiy fanlardan savollar kiritilgan. Turli tipdagi topshiriqlar qo'llaniladi (qisqa, to'liq va mukammal javoblarni, amaliy topshiriqlarning javoblarini tanlagan holda).

4- va 8-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan baholashda test topshiriqlarning nazariyasidan foydalaniladi (inglizcha, ruscha). Ushbu nazariya cheklangan miqdorda 60-70 tadan topshiriqlarni o'z ichiga olib, har bir davlatdan ishtirok etgan o'quvchining, o'qituvchining va ta'lim muassasasining ko'rsatkichlarini (so'rovnomaga asosan) aniqlab beradi. Matematika va tabiiy fanlar natijalari 4- va 8-sinflarda alohida o'rganiladi va tahlil qilinadi. Statistik o'rganishlar natijasida har bir o'quvchini 1000 ballik shkala bo'yicha baholab, matematika va tabiiy fanlarga alohida ballar beriladi.

1995 yilda xalqaro shkalalar 4- va 8-sinflarda o'rnatilgan. Bunda tadqiqotda ishtirok etgan davlatlarning o'rtacha bali 500 ball deb hisobga olingan. Keyingi tadqiqot natijalari 1995 yilgi shkala bo'yicha o'rnatilmoqda, bu natijalarni solishtirishga va ularning o'zgarish tendensiyalarini aniqlashga yordam beradi.

50 dan ortiq mamlakatlar o'quvchilarining bilim, ko'nikma, malakalari darajasini aniqlashning global resursi jahonning eng ilg'or tajribasi asosida ishlab chiqilgan. TIMSS yordamida o'quvchilarning ta'limiy yutuqlari: bilish, qo'llash, mulohaza yuritish baholanadi.

“**Bilish**” bo‘limi o‘z ichiga matematikadan masalalar yechishni olgan bo‘lib, masalalar yechish o‘quvchilardan sonlarning xususiyatlari va oddiy geometrik jismlar haqidagi nazariy bilimlar, ta’riflarni [takroran aytib berish](#), standart grafik va diagrammalardan ma’lumot olishni o‘z ichiga qamrab oladi. O‘quvchilar tabiiy fanlardan alohida organizmlar va obyektlarning xususiyatlari, hodisa va jarayonlar, tabiiy-ilmiy atamalar va o‘lchov birliklari haqidagi bilim darajasini namoyish etishlari kerak.

“**Qo‘llash**” ga oid test topshiriqlarini bajarishda o‘quvchilar hayotiy vaziyatlarni o‘zida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiy masalalarni yechish, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni o‘tkazish ko‘nikmalarini namoyish etishlari zarur.

“**Mulohaza yuritish**”ga oid topshiriqlar o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining ko‘pligi, turli bo‘limlardan bilimlarni integratsiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin. O‘quv faoliyati turlari bo‘yicha o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholashga qo‘shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, o‘quv [muassasasi imkoniyati](#), o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillar ham o‘rganiladi. Ushbu ma’lumotlar belgilangan fanlarni o‘zlashtirish holatini ko‘rsatishda asos bo‘ladi. Tadqiqot to‘rt yilda bir marta dunyoning ko‘plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShning Ta’lim sohasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA)ning Sekretariati ishtirokida o‘tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qo‘mitalari tashkil etiladi.

O‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘quv faoliyati turlari (bilish, qo‘llash, mulohaza yuritish) bo‘yicha o‘quv yutuqlarini baholashda o‘tgan yillar davomida tadqiqotda ishlatilgan, biroq konfidensiallik rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida ta’lim jarayonida qo‘llashlari mumkin. Bu esa TIMSS xalqaro tadqiqotining o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholashning o‘ziga xos yondashuvlarini tushinishni ta’minlaydi. Muhimi, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlikni baholash vositalari ta’lim texnologiyalari va o‘qitish metodikasini takomillashtirishga imkon beradi.

Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»ning 13-bandida xalqaro tadqiqotlarda o‘tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o‘rganib chiqib, tahlil qilish belgilangan.

TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) Matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha xalqaro an’analar deb nomlangan xalqaro tadqiqotlari o‘quvchilarning o‘quv yutuqlari sifatini baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan har 4 yilda o‘tkaziladi. TIMSS matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha 4- va 8- sinf o‘quvchilari o‘quv yutuqlarini baholash orqali ishtirokchi mamlakatlarda bu fanlar bo‘yicha yutuqlarni kuzatib borish imkonini beradi. O‘quv yutuqlarini baholash uchun o‘quvchilar testdan o‘tkaziladi hamda o‘quvchilar, o‘qituvchilar va maktab ma’murlari so‘rov varaqalarini to‘ldirishadi, shuningdek bu bilan ta’lim natijalariga ta’sir ko‘rsatadigan omillar haqida ma’lumot olinadi.

Matematika va fanga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish ko‘plab mamlakatlarda ushbu fanlarning o‘quv dasturlarining eng muhim maqsadlaridan biridir.

Uyda topshiriqlar bajarish o'quvchilarga maktabda o'rganilgan materialni mustahkamlash imkonini beradi va o'qituvchilar uchun mavzu bo'yicha o'qitish vaqtini uzaytiradi. Natijada, ko'p miqdorda uy vazifasi olgan o'quvchilar kam miqdorda uyga vazifa olgan yoki umuman olmagan o'quvchilarga qaraganda yuqori natijalarga erishishi kutiladi. Uy vazifasini bajarish an'analari ko'p mamlakatlar tomonidan keng tarqalgan. Ba'zi mamlakatlarda 4- sinfda ular kamdan-kam hollarda uyda, asosan tuzatuv maqsadlarida, individual o'quvchilarni o'zlarining tengdoshlari bilan materiallarni o'zlashtirib olishlariga imkon berish uchun so'raladilar. Umuman olganda, uy vazifasining katta miqdori o'quvchilarning ta'lim yutuqlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

XXI asrda insoniyat oldida turgan muammolar ilmiy tafakkur va ilmiy kashfiyotlarga asoslangan innovatsion yechimlarni talab etishi shubhasiz. Jamiyatga [iqtisodiy](#), ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishda zarur bo'ladigan innovatsiyalarni rivojlantiradigan va ilmiy tadqiqotlar olib boradigan ilm egalari, olimlar kerak. Aytish mumkinki, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik tayanch kompetensiya sanalib, tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadidir. Tabiiy fanlarga asoslangan bilim hamda ko'nikmalar har bir shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega, ilm-fan va unga asoslangan texnologiyalarni tushunish esa "yoshlarni hayotga tayyorlash"da markaziy o'rinni egallaydi.

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g'oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog'liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi. Tabiiy fanlar bo'yicha savodxon bo'lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi.

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxon bo'lgan shaxsda quyidagi kompetensiyalar

shakllangan bo'ladi: hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish – **14** –

Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasi texnologiyalar, tabiiy hodisa-jarayonlarning [izohlarini bilish](#), taklif qilish va baholash. Bunda quyidagi

qobiliyatlar namoyish etiladi:

- ▶ tabiiy yo'nalishdagi fanlardan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish;
- ▶ izohlovchi modellar va tasvirlarni anglash, yaratish va ulardan foydalanish;
- ▶ tegishli bashorat (prognoz)lar qilish va asoslash;
- ▶ izohlovchi farazlarni taklif etish;
- ▶ ilmiy bilishning jamiyat uchun amaliy ahamiyatini tushuntirish.

berilgan ilmiy tadqiqotda o'rganilayotgan muammoni aniqlash ilmiy tadqiq etilishi

mumkin bo'lgan savollarni farqlash berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usullarini baholash berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usulini taklif etish ma'lumotlarning obyektivligi va ishonchliligini ta'minlashda olimlar tomonidan qo'llaniladigan usullarni tavsiflash va baholash

Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi – ilmiy tadqiqotlarni tasvirlash va baholash

hamda muammolarni ilmiy asoslangan holda hal qilish yo'llarini taklif etish. Bunda quyidagi qobiliyatlar namoyish etiladi. –

- - berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usullarini baholash:
- - Ilmiy tadqiq etilishi mumkin bo'lgan savollarni farqlash:
- - ma'lumotlarning obyektivligi va ishonchliligini ta'minlashda olimlar tomonidan qo'llaniladigan usullatni [tavsiflash va baholash](#);
- - berilgan muammoni ilmiy tadqiq etish usulini taklif etish;
- - berilgan ilmiy tadqiqotda o'rganilayotgan muammoni aniqlash.

Nazorat savollari:

1. TIMSS xalqaro tadqiqotlarida qaysi yoshdagi o'quvchilar ishtirok etadi?
2. TIMSS xalqaro tadqiqotlari kim tomonidan va qancha muddat oralig'ida o'tkaziladi?
3. TIMSS xalqaro tadqiqotlarida o'quvchilarning qaysi yo'nalishidagi fanlardan o'zlashtirish darajasi baholanadi?
4. TIMSS xalqaro tadqiqotlarida o'quvchilarning qanday ta'limiy yutuqlari baholanadi?
5. "Mulohaza yuritish" ga oid torshiriqlar o'quvchilarning qanday malakalarini aniqlaydi?
6. TIMSS xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishdan qanday maqsadlar ko'zda tutiladi?
7. TIMSS topshiriqlaridan namunalar ustida ishlang.
8. Tabiiy savodxonlik deganda nimani tushunasiz?

15-Mavzu: O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda interfaol metodlardan foydalanish

1. Ta'lim samaradorligini orttirishda tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash.
2. Test topshirig'i tarkibi, mazmuni va turlari.

Tayanch iboralar: *test, testologiya, kvalimetriya, gomogen testlar, geterogen testlar*.

15.1. Testologiya – (inglizcha soʻzdan olingan boʻlib, test — sinov), yunoncha logos — bilim) soʻzlari birikmasidan iborat. Testologiya fanlararo fan boʻlib, ilmiy asoslangan va sifatli diagnostik oʻlchov metodikasi haqidagi fan sanaladi. Testologiya fanining obʻekti:

1. Test topshiriqlarini tuzish jarayoni;
2. Test topshiriqlarini amaliyotga joriy etish va oʻtkazish jarayoni;
3. Test topshiriqlaridan olingan natijalarni umumlashtirish jarayoni sanaladi.

Testologiyani qoʻllashda umumiy xususiyatlar:

- testlar tuzish metodikasi,
- samaradorlik,
- variativlik,
- ishonchlilik,
- har bir fan sohasining oʻziga xos xususiyatlari,
- fanning taʼlim mazmuni,
- testlarning mantiqiy tuzilishi,
- test sinovining oʻtkazilish maqsadi,
- kasbiy va umumtaʼlim bilimlarni nazorat qilish va baholash tartibi va oʻlchovi eʼtiborga olinadi.

Test metodining keng tarqalishi, rivojlanishi va takomillashuviga uning quyidagi afzalliklari:

- Test topshiriqlari tadqiqot maqsadiga muvofiq respondentlarning bilim, koʻnikma va malakalariga aniq baholash imkonini beradi;
- Ijtimoiy soʻrovlarda ishtirok etgan koʻpsonli respondentlarning fikr va mulohazalarini aniqlash va umumlashtirish imkoniyati mavjud;
- Tahsil oluvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini aniqlash va baholash jarayoni obʻektiv amalga oshiriladi, baholovchi tomonidan subʻektivizmga yoʻl qoʻyish oldini oladi.
- Turli guruh respondentlaridan olingan maʼlumotlarni qiyosiy-statistik tahlilini oʻtkazishga zamin tayyorlashi kabilar zamin yaratadi.

Insonlar oʻrnatilgan psixologik farqlarni aniqlash 19 asr psixologiyasiga oid boʻlib, uni birinchilar qatorida F.Galʼton ishlatishga harakat qilgan. U “kvalimetriya», yaʼni oʻlchash degan tushunchani fanga kiritdi. Pedagogikada test asosida oʻlchashni oʻrganuvchi fan testologiya deb ataladi. 1864 yili birinchi marta pedagogik test DJ.Rays tomonidan orfografiya uchun ishlab chiqildi. T.Stoun tomonidan arifmetika fani uchun test ishlab chiqildi. 1902 yili E.Torondayk pedagogik testlarning nazariy asoslarini ishlab chiqadi.

1961 yili AQSHda 2000 dan ortiq standart testlar ishlab chiqildi. Jahon test kompaniyasi tashkil topdi (Educational Testing Service)

1925 yili Rossiyada “Maktab ishlari metodikasi” institutida test komissiyasi tashkil etildi.

1926 yili birinchi standar testlar yaratildi.

1936 yili "test" metodi burjuaziya elementi sifatida qabul qilinib, undan voz kechilgan. V 60- yillarda Rossiya pedagoglari yana testlarga murojat etishni boshladilar.

20 asrning boshida Amerikalik olim V.A.Makkoll psixologik va pedagogik testlarni ajratadi

1915-1930 yillarda Amerikada testologiya fani juda tez taraqqiy etadi va maktabdagi barcha fanlardan milliy testlar ishlab chiqiladi.

3.2. Pedagogik test bu – talabaning tayyorgarlik darajasini sifatli va samarali o'lchovchi, murakkablashib boruvchi maxsus topshiriqlar tizimining shaklidir.

Test topshiriqlari kamida quyidagi talabalarga javob bergan holda tuzilishi lozim:

- axborot materialining mazmuniga to'g'ri kelishi;
- test tuzish qoidalariga rioya qilgan holda tuzilgan bo'lishi;
- amaliyotda aprotatsiyadan o'tkazilgan bo'lishi;
- talabalar uchun tushunarli bo'lishi lozim.


Testlarni aprotatsiyadan o'tkazilayotganda uchta **kriteriy** hisobga olinishi lozim:

- **Ishonchlilik** (bir xil sharoitlarda natijalarning qaytarilishi).
- Validlik** (testlarning tanlab olingan ma'lum maqsadga qaratilganligi).
- Ob'ektivligi** (sharoit va talablarning bir xil qo'yilishi).

Test tuzish jarayonida quyidagi qismlariga alohida ahamiyat berish kerak:

1. Instruktsiya qismi (test topshiruvchi qanday belgilar qo'yishi testni ishlash tartibi aniq ko'rsatiladi).
2. Test topshiriqlari (test mazmuni o'quv axaborotini mazmuni bilan belgilanadi).
3. Javoblar qismi.

Bundan tashqari test kimlar uchun, qanday fan bo'yicha tuzilganligi, testni yechish uchun qancha vaqt ajaratilganligi, test tuzuvchini ismi, sharifi ko'rsatilishishi lozim. Testning shakliga ko'ra turlari mavjud (1-rasm).



1-rasm. Testning shakliga ko'ra turlari

Testning yopiq tipiga kiruvchi test shakllari kerakli so'z, raqam, formula yoki iborani yozib qo'yishni talab etadi. Testning ochiq tipida bir varinatli yoki birnecha to'g'ri javobli variantlarni aniqlash, elementlar o'rtasida moslikni o'rnatish, to'g'ri yoki noto'g'ri elementlarni ajaratib olishni hamda to'g'ri ketma-ketlikni o'zrnatish talab etiladi.

Test topshiriqlariga qo'yiladigan asosiy talab, har bir test topshirig'i:

- muayyan mazmun;
- tarkib;
- yaxlitlik va struktura;
- topshiriqni bajarish tartibi, qoidasi,
- topshiriqni bajarish natijasida tahsil oluvchining egallashi mumkin bo'lgan bali;
- test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'lishi zarur.

Test topshiriqlarining yaxlitligi u bir mavzu, bob, bo'lim yoki kurs mazmunini qamrab, ularni nazorat qilish imkoniyatiga ega ekanligida ko'zga tashlanadi. Testlarni tavsifi: Standart testlar, Nostandari testlar.

Pedagogik testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra: gomogen va geterogen testlarga ajratiladi.

Gomogen testlar bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, tahsil oluvchilarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bitta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi sanaladi.

Geterogen testlar bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, tahsil oluvchilarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bir nechta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi. Testlar xarakteriga ko'ra:

1. Integrativ testlar(Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, ta'lim muassasasining bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi).
2. Adaptiv testlar(Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, tahsil oluvchilarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida tahsil oluvchining egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi.) Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidali adaptiv testlar tashkil etib, qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlikdagi, tahsil oluvchining tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin.

Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit paradigmasida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Buning uchun pedagog bitta

mavzu, bob, bo'lim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim.

1. Mezonli-mo'ljal olish testlari (Mezonli-mo'ljal olish testlari tahsil oluvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur kursning o'qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi) (1-rasm).



Test topshiriqlari mazmunini tanlash printsiplari:

1. Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi printsiipi.
2. Nazorat va baholanayotgan bilimlarning muhimligi printsiipi.
3. Mazmun va shakl birligi printsiipi
4. Test topshiriqlarining mazmunan to'g'riligi printsiipi
5. Test topshiriqlari mazmunida o'quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi printsiipi.
6. Test topshiriqlari mazmunining fanning hozirgi zamon holatiga mosligi printsiipi.
7. Test topshiriqlari mazmunining majmuali va muvozanatlashgan bo'lishi printsiipi.
8. Test topshiriqlari mazmunining tizimlilik printsiipi.
9. Test topshirig'i mazmunining variativligi printsiipi

Test topshiriqlariga qo'yiladigan talablar:

- Test topshirig'i mazmunining to'g'riligi;
- Savolning mantiqiy jihatdan to'g'ri tanlanishi;
- Test topshirig'i shaklining to'g'riligi;
- Test topshirig'ining savol va javobning qisqaligi;
- Test topshirig'i elementlarining to'g'ri joylashganligi;

- Test topshirig'ining to'g'ri javoblari bir xil baholanishi;
- Tahsil oluvchilarga test topshirig'ining bajarish bo'yicha bir xil ko'rsatma berilishi;

Nazorat savollari

1. Testologiya nima?
2. Testologiyani qo'llashda qanday umumiy xususiyatlar mavjud?
3. Kvalimetriya nima?
4. Pedagogik test deb qanday testlarga aytiladi?
5. Testlarni aprotatsiyadan o'tkazilayotganda qayday mezon hisobga olinishi lozim?
6. Pedagogik testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra qanday bo'ladi?
7. Gomogen va geterogen testlarni farqlang.
8. Testlar xarakteriga ko'ra qanday tasniflanadi?

Foydalangan adabiyotlar

1. Современные образовательные технологии: учебное пособие/под ред. N.V. Bordovskoy. – M.: KNORUS, 2010.
2. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiiy asoslari – T.: 2006.

12-Mavzu: Pedagogik jarayonda foydalaniladigan axborot texnologiyalar, didaktik materiallar va faoliyat mazmuni

1. "Kompetentlik" tushunchasining mohiyati.
2. Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari
3. Pedagogik kreativlik asoslari.

Tayanch so'zlar: kompetentlik, layoqat, konstruktiv, kommunikativ, diagnostik, kreativlik, loyihalash, tashkilotchilik, gnostik, ko'nikma.

12.1. "Kompetentlik" tushunchasining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

Инглизча **"competence"** тушунчаси луғавий жихатдан

бевосита "қобилият" маъносини ифодалайди.

Мазмунан эса "фаолиятда назарий билимлардан самарали

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Касбий компетентлик – мутахассис томонидан касбий фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ва уларни амалда юқори даражада қўллай олиниши

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. SHuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o’rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi.


Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo’ladi:

- murakkab jaraёнларда;
- noaniq vazifalarni bajarişda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanişda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega бўла олиşда

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:

- ўз bilimlarini izchil бойитиб боради;
- yangi axborotlarni ўzlashtiraди;
- davr talablarini chuqur anglayди;
- yangi bilimlarni izlab topaди;
- ularni qayta ishlayди va ўz amaliy faoliyatida samarali қўlлайди

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi **sifatlar** aks etadi:



Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida angelay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;


6) kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

3. SHaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.


5. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

4.2. Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O'z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi:



2-расм. Педагогик компетентликнинг муҳим таркибий асослари (А.К.Маркова)

O'z kasbiy kompetentlikni o'rganishda ham pedagogga xos kasbiy kompetentlik, uning o'ziga xos jihatlari o'ranilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi:



3-расм. Педагогик компетентликнинг муҳим таркибий асослари (Б.Назарова)


Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo'lishda **o'z ustida ishlash** va **o'z-o'zini rivojlantirish** muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari **o'zini o'zi tahlil qilish** va **o'zini o'zi baholash** orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;

- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Pedagogning o'z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular:



4-расм. Педагогнинг ўз устида ишлаш босқичлари

...ниқ мақсад, шунинг асосида педагогик жарайонни такомиллаштириш,

- pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish;
- ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo'lida olib boradigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQSHda 60-yillarda paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A. Slastenin, A.I.SHcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazardan yoritilgan, X.Bamet, Dj. Basset, D. Gamilton, N.Gross, R. Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.CHen, R.Edem ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovator Ye.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Oliy maktab o'qituvchisining innovatsion faoliyati, oliy maktab pedagogikasining bosh muammolaridan biridir. SHu jihatdan ushbu qismda oliy maktab o'qituvchisi innovatsion faoliyatining shakllanish kontseptsiyasi, innovatsiyaning ijtimoiy-madaniy va hayot-faoliyati aspektlari haqida bahs yuritiladi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritishdir. A.I.Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir. Tadqiqotchilar (AL. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi. Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijasida birining o'rnini ikkinchisi egallashidir. Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi kontseptsiyasini farqlaydilar. Bu kontseptsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik kontseptsiyasini paydo qilish bosqichi. U kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobilik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi esa insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi. Yangilik kiritishning tizimli kontseptsiya mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar. Birinchi shaklga yangilik kiritish oddiy ishlab chiqish sifatida kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir. Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir. Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o'rin tutadi. SHuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi. Xususiy yangilik V.A.Slasteninining aniqlashicha, joriy

zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi. Mahalliy yangilik konkret obektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi. Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ekt uchun ob'ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir. Lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmua yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka, o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi. Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova innovatsion jarayon tuzulmasining uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok – pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi. Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi. Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- *faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl -metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;*
- *sub'ektiv tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;*
- *sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;*
- *mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;*
- *bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi - yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - yetuklik - o'zlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) - boyish (to'yinish) - qoloqlik - inqiroz — irradiatsiya(aldanish) — zamonaviylashtirish;*
- *boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalantirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;*

• *tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ega bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq yetuvchi.*

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayon kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- *pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;*
- *nihoyat amalga oshish qonuni;*
- *qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;*
- *pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;*

Ayovsiz bemaromlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo'linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va qimmatini keng yoyadi.

Nihoyat amalga oshish qonuni yangilikning hayotiyliigi bo'lib, u erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipga tushirish va amaliy harakatga o'tish tendentsiyasiga egabo'ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklarning amalga oshish yo'liga to'siq bo'lishga majbur bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar: Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi. Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir. Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;
- shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;
- ko'p sub'ektki (dialogik) yondashuv, ya'ni kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;
- individual - ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari asosida) yondashuv.

Oliy maktabda innovatsion faoliyatning sub'ektki o'qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi. S.M.Godninning ishlarida talabaning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning sub'ektki sifatida yoritiladi. Unga quyidagilarni kiritadi: o'qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv - tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning yangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a'lo darajada yenga bilish, o'sish va mustahkam o'rin egallashning

kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o'zining sotsial roli funktsiyasini bajarishida faol munosabatda bo'lish va hokazo.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini-o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish. Bunday yo'nalish talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi. Tayanch yo'nalishlar - ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning o'zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o'tish. SHunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yo'nalishi gumanistik aksiologiya ekan, degan xulosaga olib keladi. Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamul-jamini anglatadi. Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi. Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi. B.G. Ananayev, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan yo'g'rilgan inson hayotining eng ijodiy davrlari, yetuklik bosqichlari to'g'risida fikr yuritadilar. Ular yetuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga yetishdagi balandliklardan o'ta olish masalalari bilan shug'ullanganlar. V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'ektiv omillarga esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas'uliyatini, mutaxassislarcha yondashuvini kiritadi. Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- *iste'dod nishonalari;*
- *uquvlilik;*
- *qobiliyat;*
- *iste'dod;*
- *oila tarbiyasi sharoiti;*
- *o'quv yurti;*
- *o'z xatti-harakati.*

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- *ijodiy individuallik;*
- *o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;*
- *o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.*

O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- *intellektual - ijodiy tashabbus;*
- *bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;*

• *ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;*

• *axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayri odatiylikka va yangilikka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik (N. V. Vishnekova).*

V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- *ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;*
- *pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;*
- *samarali va ahamiyatli me'yorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;*

- *shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta'minlash;*

SHu tariqa o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi. Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglay olishi (V.A.Slastenin). Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

12.3. O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir. Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrning ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.)

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial-ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi. Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon - natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa sub'ekt - shartlilik tavsifidan foydalanadi. Ijod mezonlari, uning psixologik mexanizmlari, ijodiy tafakkurning rivojlanish texnikasi V.A.Kan-Kalik, Ya.A.Ponomarev, S.Yu.Stepanov, T.V.Frolov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan. D.B.Bogoyavlenskaya ishlarida ijod tahlili

birliklari belgilab berilgan. Bunday birlik sifatida muallif intellektual faollikni ko'rsatadi hamda uning uchta bosqichini ajratadi:

- SHaxsning bu bosqichiga, unga tashqaridan berilgan vazifalarni tashabbussiz qabul qilish xarakterlidir;
- intellektual faollikning evristik bosqichi. Bu bosqichda o'z faoliyati tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish davom etadi, yangilik ochish oqilona hal qilishga imkoniyat beradigan ayrim vazifalar qiyoslanadi;
- intellektual faollikning kreativ bosqichi. Bu bosqichda qo'lga kiritilgan empirik qonunlar kelgusi tadqiqotlar uchun maqsad bo'lib qoladi.

Rag'batlantiruvchi, samarali va evristik bosqichga qoloq (ekstensiv) aqliy faoliyat, kreativ bosqichga intellektual faoliyat xosdir. N.M. Gnatko kreativlik mexanizmlarini quyidagi bo'limlarga bo'lib o'rganishni taklif yetadi:

- potentsial kreativlik;
- faoliyatdagi kreativlik.

Potentsial kreativlik N.M Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faol kreativlikka aylanishga nazariy tayyor shaklda namoyon bo'ladigan individumning potentsial joylashishini anglatuvchi kreativ faoliyatdir. Potentsial kreativlik ijodning zaruriy sub'ektiv shartidir. Faoliyatdagi kreativlik - faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko'rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta'minlaydigan faoliyatning u yoki bu turi tavsifli potentsial kreativ individumning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning eng muhim sub'ektiv shartidir (N.M.Gnatko). Tadqiqotlar ko'rsatadiki, potentsial kreativlik, amalga oshirish mumkin bo'lgan kreativlikdir. Uni faoliyatdagi kreativlikka o'tkazish muayyan faoliyat turini tashuvchi (sub'ekt) tomonidan uning o'zlashtirilishida tub o'zgartirishlar qilish orqali amalga oshadi. V.A.Slastenin, N.M.Gnatkoning potentsial kreativlikni muntazam faoliyatdagi kreativlikka taqlid qilish asosida o'zgartirib borish haqidagi qarashlariga qo'shilgan holda uni to'ldirib, kreativlik taqlid qilish, nusxa olish yo'li bilan rivojlanadi hamda taqlid qilish asosidagi ijod, haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydilar.

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin: Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsianomalar tuzukkina ko'chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; uchinchi bosqichda g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; to'rtinchi bosqichda esa o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror kontseptsiyasi va metodikasi yaratiladi.

O'qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiya. Refleksiya o'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish deb qaraladi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an'anasi mavjudligi aytiladi:

- ob'ektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruktsiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;
- shaxslararo muloqot ma'nosini tushunish refleksiyasi; Bu bilan bog'liq ravishda pedagog olimlar quyidagi reflektiv jarayonlarni farqlaydilar:

- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;
- o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;
- o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Refleksiya (lotincha Refleksio- ortga qaytish) sub'ektning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi. Falsafa va pedagogikaga oid adabiyotlarda refleksiya shaxsning o'z ongidagi o'zgarishlarni fikrlash jarayoni, deb yoziladi. Psixologik lug'atda shunday izoh beriladi: «Refleksiya - faqat sub'ektning o'z-o'zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg'usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi. V.A.Lefevr ta'kidlagan ediki, inson o'zining xatti-harakatlariga, fikrlariga nisbatan kuzatuvchi, tadqiq qiluvchi bo'lib qolmasligi, balki boshqa personajlar, ularning xatti-harakatlarini o'rganuvchi mavqeini egallashi ham kerak. M.V.Klarin ijodiy tafakkur xususiyatlarini refleksiya bilan bog'laydi. Bunday o'zaro aloqalarda refleksiya o'zida xulosa chiqarish, umumlashtirish, analogiya, qiyoslash va baholash hamda muammolarni eslash, yenga olish va hal qilishlarni birlashtiradi. V.A.Petrovskiy refleksiya faoliyati tahlilida uning ikki turini farqlaydi:

- retrospektiv;
- prospektiv.

V.A.Petrovskiyning aniqlashicha, retrospektiv refleksiya bu «sodir etilgan faoliyat tarixining retrospektiv tiklanish shaklidagi refleksiyasidir». Prospektiv refleksiya - bu faoliyatning amalga oshishiga bo'lgan talabning hukm surish dinamikasi. S.Yu. Stepanov, I.N. Semenov ishlarida intellektual va shaxsiy refleksiyalar farqlanadi. V.V.Davidov o'z tadqiqotlarida formal va mazmun refleksiyasini asoslab berdi. I.S.Ladenko analitik va sintetik refleksiyani farqlaydi. Demak, ***o'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi motivatsion, kreativ, texnologik va reflektiv komponentlardan iboratdir.*** Innovatsion faoliyat tuzilmasi haqidagi muhim tizimli tasavvurlar, ularning vazifalarini asoslash, ularning shakllanganlik me'yorlari va sathlari ularni oliy maktab amaliyotiga tatbiq etishning zarur omili hisoblanadi.

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir. Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshishini ko'zda tutadi. O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi. O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti *muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir*. Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fanga, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi. Keyingi sharti - bu o'qituvchining *madaniyat va muloqotga shayligi*.

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usularini yechishni aniqlashga qaratilgandir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar, an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir. Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funktsiyalar bilan izohlanadi:

- *kasbiy faoliyatning ongli tahlili;*
- *me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;*
- *kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;*
- *dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;*
- *o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish.*

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, kontseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

• *ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi.*

• *Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;*

• *mazmunini insonparvarlashtirish, doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;*

- *pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.*

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurliqi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub'ektiv darajalarini farqlaydilar. Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi. Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiradi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi. V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- *mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;*
- *kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;*
- *yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishqlik darajasini aniqlash;*
- *yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;*
- *yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.*

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontseptsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi. V.A.Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchining innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

• *shaxsning ijodiy-motivatsion yo'nalganligi. Bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o'z kamolotiga intilish va boshqalar;*

• *kreativlik. Bu — hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo'lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha mushohada yuritish, refleksiya;*

• *kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik kontseptsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;*

• *o'qituvchining individual qobiliyati. Bu - ijodiy faoliyat surati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat'iyatlilik, o'ziga ishonch; mas'uliyatlilik, halollik, haqiqatgo'ylik, o'zini tuta bilish va boshqalar.*

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o'qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastenin):

- *innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;*
- *ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;*
- *shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;*
- *ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga shaylik;*
- *innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;*

- *innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;*
- *kasbiy refleksiyaga bo'lgan qobiliyat.*

Oliy maktabdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri o'qituvchi shaxsidir. O'qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, sevuvchi ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim. O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- *yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;*
- *yangicha harakat qila olishga o'rgatish.*

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega. Innovatsiya jarayonlari, ularning funktsiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Nazorat savollari

1. Yuksak professionalizmga erishishning qanday omillari bor?
2. Pedagogik kompetentlik nima?
3. Kasbiy kompetentlikning tarkibi nimadan iborat?
4. Pedagog nutq madaniyati va texnikasi nima?
5. Teatr pedagogikasi deganda nimani tushunasiz?
6. Pedagogning tashkilotchilik qobiliyati nimalarda namoyon bo'ladi?
7. O'qituvchi kiyinish madaniyati talablari qanday?
8. Ta'lim tizimini insonparvarlashtirish deganda nimani tushunasiz?
9. Kreativlik nima?
10. O'qituvchining ijodiy individualligi nimadan iborat?
11. O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning qanday bosqichlarini belgilash mumkin?
12. SHaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini qanday tadqiq etish mumkin?

Foydalangan adabiyotlar

1. Xoshimova M.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. (Ma'ruzalar matni). T.:TDIU.- 2012.- 50 bet.
2. Yo'ldoshev J, Xasanov S. Pedagogik texnologiyalar.T.: «Iqtisod-moliya», 2009.
3. Ishmuhammedov R. Ta'limda innovatsiya. – Toshkent: «Fan», 2010.

8-Mavzu: Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi

1. O'qituvchining pedagogik faoliyati va uning ijtimoiy tabiati. Pedagogik mahoratning asosiy komponentlari.
2. Pedagogik texnika - o'qituvchi xulqining boshqarish omili sifatida.
3. Pedagog imiji.
4. Pedagogik boshqaruv.

Tayanch so'zlar: mahorat, pedagogik texnika, pedagogik takt, pedagogik hamkorlik, avtoritar-byurokratik, demokratik hamkorlik uslublari, pedagogik boshqaruv, imij. nutq malakalari, mimika, pantomimika, o'z hissiy holatini boshqarish.

8.1. “Pedagogik mahorat” tushunchasi o'tgan asrning 80-90-yillarida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanib, OTMda mustaqil fan sifatida o'qitila boshlagan. “Pedagogik texnologiya” fani o'qitila boshlagach esa “Pedagogik mahorat” fanining asoslari uning mazmuniga singdirib yuborildi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida “Pedagogik kompetentlik va va kreativlik asoslari” moduli negizida tinglovchilarni pedagogik mahorat asoslar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Zero, tinglovchilar tomonidan pedagogik mahoratning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish, ularda pedagogik texnika, nutq madaniyati, pedagogik deontologiya, kommunikativ qobiliyat, pedagogik nizo, shuningdek, zamonaviy pedagogning imidji to'g'risidagi ma'lumotlarning o'zlashtirilishi va mazkur bilimlar negizida zarur malakalarning o'zlashtirilishi OTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlashni kafolatlaydi.

“Pedagogik kompetentlik va va kreativlik asoslari” moduli bo'yicha tinglovchilarni pedagogik mahorat va uning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi: tinglovchilarni pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga doir nazariy bilimlar bilan qurollantirish; ularda pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish, pedagogik jarayonni samarali yo'lga qo'yish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish; tinglovchilarning pedagogik va nutq texnikasiga ega bo'lishlarini ta'minlash; ularda pedagogik deontologiya va pedagogik madaniyat sifatlarini tarkib toptirish, pedagogik qobiliyatni rivojlantirish; tinglovchilar tomonidan pedagogik muloqot, pedagogik nazorat (takt) va pedagogik ta'sir ko'rsatish malakalarini yetarli darajada o'zlashtirilishini ta'minlash; ularda pedagogik madaniyat sifatlarini shakllantirish.

Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kasbiy mahoratlari haqida so'z yuritishdan avval “mahorat” va “pedagogik mahorat” tushunchalarining mohiyati bilan tanishib olish maqsadga muvofiqdir.

Маҳорат (а. “маҳорат” – моҳирлик, усталик, эпчиллик) – бир иш ёки фаолиятни юксак даражада, ҳеч бир қийинчиликсиз, ўта моҳирлик билан бажариш.

Педагогик маҳорат – педагогнинг педагогик жараёни ташкилий, методик, руҳий ва субъектив жиҳатдан ўта моҳирлик, усталик билан

Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. SHu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim.

Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi.

Pedagogik mahorat yaxlit tizim bo'lib, uning tarkibida bir qator sifatlar ko'zga tashlanadi. Jumladan:



Педагогик маҳоратнинг муҳим таркибий қисмлари

Pedagogik mahoratning asosini pedagogik bilimdonlik tashkil etadi.

Педагогик bilimdonlik – педагогнинг касбий фаолиятни мавжуд ижтимоий талаб, ҳуқуқий меъёр ва стандартларга мувофиқ ташкил этишга бўлган қобилиги,

Bilimdon pedagog mutaxassis sifatida pedagogik jarayon va munosabatlarni maqsadga muvofiq samarali shakl, usul hamda vositalarini yetarli darajada o'zlashtira olgan bo'lishi zarur. Quyidagi sifatlar bilimdon pedagogga xos sanaladi:

Билимдон педагогга хос сифатлар:

- ижтимоий субъектлар билан ўзаро алоқада, маданий мулоқотда бўлиш;
- мутахассислик йўналиши бўйича ахборотларни излаш, топиш, уларни таълим мазмунига таянган ҳолда қайта ишлаш ва касбий фаолият жараёнида
- улардан самарали фойдалана билиш;
- ўқув ахборотларини талабаларга етказиб бера олиш

Pedagogning kasbiy bilimdonligida talaba bilan sub'ektiv munosabat o'rnatish; pedagogik jarayonlar mohiyati, pedagogik voqelikni izchil idrok qila bilish; jahon pedagogik madaniyati asoslarini hamda milliy pedagogik tajribani o'rganish, ularni integratsiyalashtirish asosida o'z faoliyatiga tatbiq etish; innovatsion yangiliklar bilan doimiy xabardor bo'lish; shaxsiy tajribalarni umumlashtirish va talabalarga uzatish; kasbiy fidoiylik hamda pedagogik texnologiyalarni egallash borasidagi BKMning o'zlashtirilganligi namoyon bo'ladi.

Pedagogik bilimdonlik negizida, yana shuningdek, pedagogik refleksiya (lot. "reflexio" – ortga qaytish, aks etish) ham ko'zga tashlanadi. Manbalarda "refleksiya" tushunchasi "kishining o'z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati", "shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash" sifatida talqin etiladi.

Педагогик рефлексия – педагогнинг шахс онги моҳияти, вазифалари, кадриятлари, қизиқишлари, рағбатлантирувчи омиллар, фикрлаш, идрок, қарорлар қабул қилиш, ҳиссий таъсирланиш, хатти-ҳаракатлари ва бошқаларнинг моҳиятини англаб етиши

Pedagog faoliyatida uning odobi ham yaqqol aks etadi. Qolaversa, pedagogik odob ta'lim va tarbiya jarayonlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim talab hamda omillardan biri sanaladi.

Savol tug'iladi: Pedagogik mahorat nima o'zi?

Pedagogik mahorat bu – fahm-farosat va chinakam ilmiy bilimlarning, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan obro'li rahbarlikning, o'quvchilar qalbining qandayligini his qilish mahorati (impatiya), ichki dunyosi, nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga mohirona, avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, hayol va fantaziyaga boy bo'lgan qobiliyat majmuasidir.

Pedagogik mahoratning tuzilishi. Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- 1.O'qituvchi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi.
- 2.Pedagogik iste'dod, qobiliyat.
- 3.Pedagogik texnika (san'at)
- 4.O'qituvchining shaxsiy intilishi.

Pedagogik mahorat nazariyasi metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o'z-o'zicha, paypaslab ijodiy izlanish olib boradi: ta'lim oluvchilar bilan, pedagogik jamoa bilan qanday qilib yaqindan til topish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ichida talabalar o'rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq mumkin? degan savollarga javob izlaydi.

Bu savollarga beriladigan javoblar har bir mohir pedagogning faoliyati uchun zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, mazkur muammoni hal qilish pedagogdan odatdan tashqari kuch-g'ayrat, qat'iyat,

tirishqoqlik, ijodiylikni, o'z faoliyatini to'g'ri baholay bilish, shuningdek, bolalar, tarbiyalanuvchilarga nisbatan insonparvarona munosabatda bo'la olishni talab etadi. Ibn Sino "Tadbiri manzil" asarida bola uchun o'qituvchi tanlayotganda uning to'g'ri so'z, halol, toza-ozoda va bolalarni sevuvchi kishi bo'lishiga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaganida o'qituvchining insonparvarlik sifatini nazarda tutgan edi.

Har bir insonda u yoki bu kasbga qobiliyat mavjud bo'ladi. Ba'zi taniqli ruhshunoslarning fikricha (F.Gonobolin, N.Kuzmina), pedagogik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi:

- 1.O'rta tusha bilish
- 2.Tashkilotchilik
- 3.O'zini idora eta bilish
- 4.Mo'ljallay olish, chamalay bilish
- 5.Kuchlilik, zehnlilik
- 6.Faoliyatga ijodiy yondashish.

Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo'lgan, insonparvarlik nuqtai-nazaridan turib yondashilgan taqdirdagina pedagogik qobiliyat tarkibiga kirishi mumkin.

5.2. Pedagogik texnika - pedagogik mahoratning asosiy qismlaridan biri bo'lib, u o'qituvchidan o'quvchilar bilan muomala qilganda zarur so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o'tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi. Haqiqiy pedagog ta'sir ko'rsatishni o'qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir paytda yaqqol ko'rinadi. Nutq, imo-ishora, mimika harakat bilan birga sodir bo'ladi.

Pedagogik texnika malakalarining shakllanish darajasi ma'lum darajada pedagogning umumiy tayyorgarlik darajasini, ya'ni shaxsning pedagogik imkoniyatlarini aks ettiradi. Pedagogning nutqi tartibsiz, qashshoq bo'lsa, o'zi jizzaki bo'lsa, didi past, madaniyatsiz bo'lsa, eng topib gapirgan to'g'ri so'zi ham tarbiyalanuvchilarga ta'sir etmaydi, balki teskari natijaga olib kelishi mumkin. SHuning uchun ham, tarbiyachi avvalo o'zi tarbiyalangan, o'tirib-turish, suhbatlashish madaniyatini qon-qoniga singdirgan bo'lishi lozim.

Pedagogik texnika tushunchasi va uning tuzilishi. Ustoz-pedagoglar erishgan muvaffaqiyatlarning sirini bilishga harakat qilar ekanmiz, biz ularning pedagogik ta'sir usullaridan ustalik bilan foydalangan holda turli tuman amaliy ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni ustalik bilan hal etishlariga guvoh bo'lamiz. Bunda muhim rolni maxsus ko'nikmalar egallaydi: o'quvchilarni ijtimoiy foydali o'quv faoliyatiga safarbar eta bilish, muammo qo'ya bilish, jamoa va alohida shaxs bilan til topish, kuzata bilish, o'z kechinmalarini boshqacha bilish: ovoz, nutq, mimika, harakatlarini erkin boshqara bilish va h.k.

Pedagogik texnika – o'qituvchi faoliyatining botiniy mazmunini hamda zohiriy ifodasining garmonik biriligidan iboratdir. Pedagog mahoratining ma'naviy madaniyati hamda pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan zohiriy ifodasi sintezidan iboratdir.(N.N.Tarasovich)

SHunday qilib texnika – usullar majmuasidir. Uning vositalari esa – nutq va muloqot vositalaridir. "Pedagogik texnik" tushunchasi o'z ichiga 2 guruh tarkibiy elementlarni oladi:

1. O'qituvchining odob-axloqiy ko'nikmalari bilan bog'liq bo'lgan elementar: o'z jismini (mimika, pantomimika) boshqara bilish; his-tuyg'u, hayajon, ta'bini boshqara bilish (ortiqcha ruhiy zo'riqishlardan osonlik bilan xalos bo'la olish, ijobiy muhitni to'g'richa bilish): diqqat qila bilish, kuzatuvchanlik, tasavvurning kengligi; nutq texnikasi (nafas,ovozni boshqarish, diktsiya, nutq tezligi (tempi)).

2. SHaxs va jamoaga ta'sir ko'rsata bilish texnikasi ta'lim-tarbiyaning texnologik tomoni bilan bog'liq bo'lib, bularda: didaktik, tashkiliy, ijodiylik, muomala ko'nikmalari; talab qila bilish, pedagogik muloqotni boshqara bilish, jamoatchilik ijodiy faoliyatini tashkil eta bilish va boshqalar kiradi.

Quyida biz pedagogik texnikaning, pedagogning odob-ahloqi bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini qarab chiqamiz.

5.3. Pedagogik maqsadga qaratilganlik va pedagogning tashqi qiyofasi.

Tarbiyachining tashqi qiyofasi estetik jihatdan ko'rimli bo'lishi lozim. O'qituvchi juda ham bashang va juda ham pala-partish kiyinmasligi lozim. Uning tashqi qiyofasi kiyim-kechaklari - tarbiyachi shaxsini shakllantirish vazifasini hal etishga bo'ysindirilgan bo'lishi lozim. Zamonaviy kiyinish normalaridan keyinda qolmagan holda u o'rtacha me'yorga amal qilgani tuzuk. Tarbiyachining estetik did bilan kiyinishi, uning o'zini erkin tuta bilishi, nutqi, mimik va pantomimik harakatlariga mos bo'lishi lozim. Chunki uning xar bir harakati: auditoriyaga qay tahdidida kirishi, stulda qanday o'tirishi, yurish-turishi – barchasi tarbiyalanuvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. U o'zini xotirjam, jiddiy, o'rni kelganda esa bolalarining yoshiga mos ravishda xushchaqchaq tuta bilsa, tarbiyalanuvchilarga ta'siri talab darajasida bo'ladi.

Emotsional holatni boshqarish. Boshlovchi pedagog birinchi marta o'zini juda ishonchsiz sezadi. O'ziga qarab turgan ko'zlarning taz'yiqli natijasida uni titroq bosadi, nutqi uzuq-yuliy, pala-partish, o'zini yo'qotib qo'yadi (chunki u o'z ustidan kulishlaridan qo'rqadi). Bularning barchasi o'qituvchidan bo'lajak mashg'ulot oldidan o'zini ruhiy fiziologik jihatdan tayyorlashni, muloqot paytida o'z emotsional holatini boshqara bilishni talab etadi.

O'z-o'zini boshqarish qobiliyatini aniqlash uchun B.M.Cherniy tuzgan testdan foydalanish mumkin:

"Ha yoki yo'q" so'zlari bilan hissiyot-holatingizga tegishli bo'lgan savollarga javob bering:

- Har doim xotirjam, toqatlimisiz?
- Sizning ta'bingiz har doim tuzukmi?
- Auditoriyada mashg'ulot o'tayotganda, unga diqqat va saranjomlik sizni tark etmaydimi?
- Siz o'z his-hayajoningizni boshqara olasizmi?
- Siz o'z o'rtoqlaringiz va yaqinlaringizga nisbatan diqqat e'tiborli va mehribonmisiz?

- Siz o'rganish kerak bo'lgan materialni yengil o'zlashtira olasizmi?
- Sizda o'zingiz xalos bo'lishni istagan salbiy odatlar yo'qmi?
- Siz qaysidir vaziyatda o'zimni noto'g'ri tutdim, deb afsuslanasizmi?

“**Ha yoki yo'q**” javoblarni hisoblab, xulosa chiqarish mumkin. Agar barcha javoblar ijobiy bo'lsa, vazminlik, o'z-o'zini boshqara bilish, yoki o'ziga ortiqcha baho berishni ko'rsatadi. Agar barcha javoblar yoki ularning ayrimlariga salbiy javob to'g'ri kelsa, bu kishining notinchligi, o'ziga ishonchsizligi, o'ziga tanqidiy qarashidan dalolat beradi. Aralash javoblar (“Ha “ ham “ yo'q” ham) o'z nuqsonlarini ko'ra bilishni ko'rsatadi, bu esa o'z-o'zini tarbiyalash tomon birinchi qadamdir.

Pantomimika. Gavda, qo'l va oyoqning harakatiga – pantomimika deyiladi. Pantomimikada mohir pedagoglar o'z fikrlarining asosiy o'rnini ta'kidlash, obraz yaratish maqsadida foydalanadilar. O'qituvchi dars paytida o'quvchilar oldida to'g'ri turish malakasini egallashi kerak (oyoqlar oralig'i 12-15 sm, bir oyoq biroz oldinga tashlagan holda). Uning barcha harakatlari nazokatli, oddiy va tabiiyligi bilan ajralib turishi lozim. Gavdani tutish estetikasi salbiy odatlardan xoli bo'lishni talab etadi: orqa-oldga tomon chayqalish, bir oyoqdan ikkinchisiga og'irlikni tashlash, stul suyanchig'ini tutish, qo'lda darsga aloqasiz buyumlarni aylantirish, bosh qashish, burun qoqish, quloq kavlash va h.k.

Uning imo-ishoralari aniq tushunarli, ma'noli bo'lmog'i lozim. Imo-ishoralar tasviriy va psixologik turlarga bo'linadi. Tasviriy ishoralar fikr yo'nalishini tasavvur etish, chizib berish uchun xizmat qiladi, eng muhimi psixologik testlar bo'lib, ular his-xayajon, tuyg'ularni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, o'qituvchi to'g'ri javobdan mamnunligini boshini 3 marta ohista pastga egish orqali, javobdan qoniqmaganligini esa boshini ikki tomonga “sarak-sarak” qilib chayqash orqali ifodalashi mumkin. SHuni ta'kidlash joizki, ishoralar aytilmoqchi bo'lgan fikr to'g'risida oldindan ogoh etish uchun ishlatiladi, aytilgan fikrdan keyin ularni qo'llashning foydasi yo'q. O'quvchilarga aytiladigan fikr ta'sirini oshirish uchun oldinga qarab yurish, ularga dam berish uchun esa orqaga qaytish lozim.

Mimika. O'z fikri, hissiyoti, ruhiy holatini ifodalash san'atiga – **mimika** deyiladi. Ba'zan o'qituvchi yuz ifodasi u aytmoqchi bo'lgan so'zdan ham ko'ra kuchli ta'sirga ega. Imo-ishora va mimika axborotning emotsional kuchini oshirib yaxshi qabul qilishga sabab bo'ladi. O'quvchilar o'qituvchining fikrini uning yuz ifodasidanoq bilib oladilar. SHuning uchun ha o'qituvchi o'z kechinmalarini yashira olish ham lozim. Yuz harakatlari faqatgina o'quv tarbiya maqsadida qo'llanilishi lozim.

Yuz ifodasi butun qiyofa kabi o'zga ishonch, hayrihohlik, xukm, norozilik, xursandlik, faxrlanish, loqaydlik, qiziquvchanlik, xafalik kabilarni ifodalay olishi lozim. Insonning barcha hissiyotlari uning tabassumida mujassamlashgan bo'ladi, u kishining ma'naviy sog'lomligi va axloqiy qudratini o'zida ifodalaydi. Mimikani ifodalovchi detallar – qosh va ko'zdir. Qoshning yuqoriga ko'tarilishi xayratlanishni, chimirilishi – diqqatni to'plashni, qimirlatmasdan turish – xotirjamlikni, loqaydlikni, tez harakatga kelishi – tang qolishni ifodalaydi.

Ko'z kishining eng ta'sirchan organidir. O'qituvchi o'z yuz tuzilishining imkoniyatlarini yaxshilab o'rganib chiqishi lozim. U har bir hodisaga nisbatan o'z ko'z qarashlari bilan o'zining ijobiy, salbiy, betaraf munosabatini ifodalay bilishi lozim. Uning ko'zi "olma-kesak" termasligi, yoki "baliq ko'z" bo'lmasligi lozim.

Mana masalan, quvonchli holatni ifodalovchi belgilar: tabassum, ko'z yashnaydi, haddan tashqari imo-ishoralar, so'zamollik, boshqalarga yordam berish istagi ko'zga tashlanadi.

Qo'rquv belgilari: ko'zlar katta-katta ochilgan, gavda shalpaygan, qoshlar biroz ko'tarilgan, ovoz titraydi, ko'z olma-kesak teradi, harakatlar shiddatli, gavda titraydi.

O'qituvchining nazari o'quvchilarda bo'lishi lozim. Ular orasida ko'z aloqasi mashg'ulotlar davomida mustahkamlanib borishi kerak. Biroq shuni ham unutmaslik lozimki, katta yig'in, mitinglarda so'zga chiqqanda bunday aloqadan voz kechish lozim. Chunki ko'pchilik tomonidan hosil bo'ladigan biomaydon notiqqa salbiy ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ham olomonga xuddi devor yoki gulzorni kuzatgan kabi nazar tashlagan maqsadga muvofiq bo'ladi: olomon biomaydoni notiqqa salbiy ta'sir ko'rsata olmaydi.

O'qituvchi nutqi – pedagogik mahorat ko'zgusi sifatida. Olimlarning hisoblashlariga ko'ra o'quv uchun ajratilgan vaqtning taxminan 1/4-1/2 qismi o'quvchilarning o'qituvchi nutqini eshitishlari va tushunishlari uchun sarflanadi. Demak o'quv materialining o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishi o'qituvchi nutqining kamoloti va yorqinligiga bog'liq ekan.

Xaqiqatdan ham, A.Avloniy ta'kidlaganidek "So'z insonning daraja va kamoli, ilm va fazlni ulug'lab ko'rsatadurg'on tarozisidir. Aql sohiblari kishilarning fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilur". Ayniqsa, o'quvchilar o'qituvchi talaffuzi, nutq texnikasiga katta e'tibor beradilar. Duduq, kirish, tovushga taqlid kabi so'zlarning, masalan "aytaylik", "xo'sh", "anaqa", "o'tga-bo'tga", "demak" kabi so'zlarning o'rinsiz ravishda ko'p takrorlanishi o'quvchilarning ensasini qotiradi. Bunday hol faqat o'rta maktab o'qituvchilari va o'quvchilari orasidagina emas, balki oliy o'quv yurti professor- o'qituvchilari orasida ham uchrashi achinarli holdir. Maslan, sobiq ittifoq davridagi SamDUNing bir o'qituvchisi (muayyan sabablarga ko'ra u kishining ismini aytmadik) bir juft ma'ruza davomida 82 marta xech bekorga "xo'sh" va 172 marta "demak" so'zini ishlatgan. Bunday hol o'quvchi va talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarni so'ndiradi.

Kishining ovozi, tabiati o'zgarmas degan fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi. Hozirgi zamon fiziologiya fanining dalolat berishicha ovoz sifatini mutlaqo o'zgartirish mumkin. Bu tarixiy faktlar bilan ham isbotlangan. Masalan, buyuk notiq Demosfen o'z duduqligini mashq qilish tufayli yengib Qadimgi Rimning buyuk notig'iga aylangan.

Hozirgi kunda nutq texnikasiga doir mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Bu tizim teatr pedagogikasi tajribalariga tayanadi hamda nutq paytida to'g'ri nafas olish, tanaffus va diksiyani so'zlash kabi ko'nikmalar o'quv-uslubiy majmuasidan tashkil topgandir. Mazkur tizimni o'zlashtirish istalgan o'qituvchi o'z nutqi orqali

o'quvchilarda o'zi istagan bilim, ko'nikma va malakalarni singdira oladi, tarbiyalay oladi.

Muomala – pedagogik faoliyatning muhim kasbiy quroli bo'lib, olimlar A.A.Kovalev, N.B.Kuzmina, U.A.Kan-Kalik, A.A.Leontev, A.N.Mudrik, A.U.SHerbakovlar muomalaning o'qituvchi faoliyatida muhim rol o'ynashini isbotlashgan.

Pedagogik muomala – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari paytdagi qulay psixologik holat yaratish maqsadida olib boradigan kasbiy muloqoti.

Pedagogik muomala ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funktsiyalarga ega : shaxsni anglash, axborot almashuv, faoliyatni tashkil etish, rol almashtirish, hamdardlik, o'z qadrini bilish, ishtirokchilarni almashtirish, kechinmalar hosil qilish, o'zida ishonchni shakllantirish va hakoza.

Axborotlarning almashinish funktsiyasi materiallarning va ma'navi sifatlarni almashtirish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonni rivojlantirish , ichki ijobiy o'zgarishlarni hosil qilish, hamkorlikda bilishga oid qidiruv hamda ongli fikrlashga zarur sharoit yaratadi.

Pedagogik muomala tuzilishi.

1)Pedagog tomonidan sinf bilan bo'ladigan muomalani modellashtirish (prognostik bosqich).

2)Dastlabki o'zaro faoliyatga kirishuvdanoq bevosita muomalaga kirishuv (kommunikativ hukum).

3)Pedagogik jarayonda muomalani boshqaruv.

4)Kelajakdagi faoliyatni inobatga olgan holda qo'llanilgan muomala sistemasi va modellashtirishni tahlil qilish.

Noto'g'ri pedagogik muomala o'quvchilar qo'rquvini, ishonchsizligini, diqqati, xotirasini bo'shashtiradi, bilish qobiliyatini pasaytiradi, mustaqil fikrlashni susaytiradi va salbiy xulq-atvorini shakllantiradi. Natijada o'quvchida o'qituvchi va predmetga nisbatan munosabat shakllanadi. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligidagi uning samaradorligini ta'minlaydi. A.S.Makarenko o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlarida asosiy narsa talabchanlik va hurmat bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlangan. Suxomlinskiy quyidagi mahoratni o'qituvchi" Maktab partalaridan aytilgan har bir so'z o'ylantiradigan donishmandona, maqsadga yo'naltirilgan, to'la ma'noli bo'lmog'i kerak".

O'qituvchi munosabatida uslublar. Muloqotni 2 qismga bo'lish mumkin: ya'ni muomala va hamkorlikdagi harakatdan tashkil topadi. Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, o'qituvchilar doimo o'z o'quvchilari bilan emotsional – turg'un munosabatlarda bo'lganlari o'qishda, xulq-atvorida nuqsonlarni osoyishtalik bilan – teng va ishonch asosida hal etadi.

O'quvchilar bilan qo'pol muomalada bo'lgan o'qituvchilar esa o'quvchilar ishonchini yo'qotadi, tilyog'lamalik, o'zini ko'rsatish, sinfda masxaraomuz qiliqlarni shakllantirishga sharoit yaratadi. Bular o'quv-tarbiyaviy jarayonga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchilar o'qituvchining sinf jamoasi bilan munosabatlarida 3 ta uslub mavjudligini ta'kidlaydi:

1. **Barqaror ijobiy**(turg'un)

2. **Faol-ijobiy**

3. **Barqaror bo'lmagan** (turg'un bo'lmagan) uslub.

O'qituvchilarning o'quvchilar bilan bo'ladigan uslublarini A.A.Leontev xulosalab, beqaror o'ta salbiy uslubda bo'lganlari o'zlariga salbiy munosabatni yuzaga keltirishni ta'kidlaydi. Bunday o'qituvchi maktabga va jamiyatga ziyon keltiradi. Muomalada o'qituvchilarning ish uslublari 3 xil bo'ladi:

1. **So'zsiz bo'ysunishga asoslangan** uslub.

2. **Demokratik** uslub.

3. **Ko'ngilchanlik** uslubi.

V.A.Kan-Kalik aloqa uslublarini tubandagilarga ajratib ko'rsatadi:

- hamkorlikdagi ijodiy faoliyat asosidagi uslubi;
- do'stlikni xush ko'rish asosidagi aloqa uslubi;
- masofa saqlash asosidagi aloqa o'rnatish uslubi;
- do'qlash, qo'rqitish asosida aloqa o'rnatish uslubi;
- hazil yoki o'yin asosida aloqa o'rnatish uslubi;

SH.A.Amonashvili do'stlik asosida aloqa uslubi haqida shunday g'oyani ifodalaydi: (“Agar bola bizdan uzoqlashsa qanday qilib uni tarbiyalaymiz?”).

“Faqat ma'naviy birlik – bundan boshqa hech narsa bu birlikni buzishi mumkin emas”.

“Baqirish – insoniy munosabatlar madaniyati yo'qligining yaqqol ko'rinib turgan belgisidir. O'qituvchining baqirishi bolani dovdiratib, garang qilib qo'yadi”- degan edi Suxomlinskiy.

Takt so'zma-so'z tarjima qilinganda daxldorlik, aloqadorlik, taaluqlilik ma'nosini bildiradi. **Xushmuomalalik** ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlarini tartibga solishga yordam beruvchi ahloqiy mezon. Xushmuomala xulq-atvorli pedagog insonparvarlik printsipiga asoslanib, eng murakkab vaziyatlarda ham insonni hurmat qilish asosida ish tutadi. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida “ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi” ta'kidlangan.

Pedagogik xushmuomalalik pedagogning kasb sifati ya'ni mahoratining bir bo'lagidir. Pedagogik nazorat umumiy nazoratdan farqlanib, o'qituvchi shaxsning asosiy sifati bo'lib balki o'quvchiga to'g'ri malakali yondashishni nazarda tutadi. SHunday qilib, pedagogik xushmuomalilik – o'qituvchining maqsadga muvofiq o'quvchiga ta'sir ko'rsatish mahoratini belgilab beradigan, samarali uslubiy aloqasidir.

K.D.Ushinskiy, “*Maktabda hazilga yo'l qo'yishni jiddiy xukm surishi lozim, ammo hamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adolat tirnoq ostidan kir izlashga, yaxshilik, muloyimlikka, tartib bachkanalikka aylanib ketmasligi, eng muhimi doimo aqliy faoliyat hukmron bo'lishi kerak*”, - deb ta'kidlagan edi.

O'qituvchining o'quvchilarga qo'yadigan talablari me'yoridan ortiq bo'lsa, teskari natijalarni me'yoridan ortiq ko'ngilsizlik esa salbiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. O'qituvchi o'quvchini hurmatlab buni o'quvchilarga ko'rsata olishi zarur. Hurmat qilish ochiq ko'ngillikni, erkalatishni, talabchanlikni inkor

etmaydi, aksincha uni kuchaytiradi. Talabchanlik o'quvchi yoshining ortiq bo'lishi bilan orttirib boriladi.

O'quvchilar bilan o'quvchi o'rtasidagi tushunmasligining asosiy sabablaridan biri - o'qituvchining xushmuomila emasligi ya'ni o'quvchilarning tashqi ko'rinishi, aqliy rivojlanishi, qobiliyatlariga qo'pol ravishda e'tiroz bildirishlari natijasida ro'y beradi. Ba'zi o'qituvchilar sinfda, ko'chada, qaerda bo'lmasin o'quvchilarni ogohlantiradi. O'qituvchining xushmuomalaligi darsning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi kerak. Asosiy e'tiborni o'quvchilar uy vazifalarini tekshirish va baholashga qaratishi lozim. Bunda o'qituvchining nazorati mohirlik bilan ularning javoblarini tinglashi, mazmuni shakli, duch keladigan qiyinchiliklari va boshqalar. O'qituvchi o'quvchining javobidan kulimsirashi, yuz-qo'l harakatlari o'zgarishi, boshini irg'ishi, izoh berishi, javobni bo'lishi maqsadga muvofiq emas.

Takt so'zi ta'sir etish ma'nosini bildiradi. Bu kishilar o'zaro munosabatini boshqarishga yordam beruvchi axloqiy kategoriyadir. Taktik xulq insonparvarlik printsipligiga asoslanib, murakkab konflikt holatlarida ham kishiga hurmat saqlab qolishni talab qiladi.

Nazokatli bo'lish barcha kishilarga qo'yilgan axloqiy talab, ayniqsa pedagoglarga bu juda muhim. Pedagogik takt o'qituvchining kasbiy sifati, uning mahoratining bir qismi.

Pedagogik takt - bu o'qituvchining o'quvchiga maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir o'lchovi, muloqotning maxsuldor uslubini o'rnatish ko'nikmasi. Pedagogik takt o'quvchilar bilan muloqotda oxirgi holatga (choraga) yo'l qo'ymaydi. Hurmat erkalash va talabchanlikni ham talab etadi. O'quvchiga munosabat ularning yosh xususiyatlariga ham bog'lik bo'ladi.

Pedagogik takt talablariga amal qilgan o'qituvchilarga o'zida demokratik muloqot uslubini shakllantirish, talabalar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishishi mumkin. Takt so'zini aynan ma'niosi-tegib turish, daxldor bo'lish demakdir. U odamlar o'rtasidagi munosabatlarini sozlab turuvchi ahloqiy toifadir. Insoniylik printsipligiga asoslangan holda taktli ahloq-eng murakkab xolatlarida ham inson xurmatini saqlashni talab etadi.

Taktli (odobli) bo'lish-har bir inson, ayniqsa kamol topayotgan yoshlar bilan ishlaydigan pedagoglar uchun muhim ahloqiy talabdir. Pedagogik takt o'qituvchining professional sifati, pedagogik mahoratining muhim qismidir. Pedagogik taktning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u faqat o'qituvchi shaxsi xususiyatini (xushmuomalalik, talabani sevish, xurmat qilish) anglash, balki talaba ko'ngliga to'g'ri yo'l topa olishini ham bildiradi.

Pedagogik takt - bu o'qituvchining talabaga ta'sir etishi pedagogik jihatdan muvofiqlik o'lchovi, eng samarali muloqot uslub o'rnatishiga bog'liqdir. Pedagogik takt talabalar bilan muloqotda haddan oshib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Pedagoglar tomonidan turli tipdagi rahbarlarning aniq ijtimoiy-psixologik qiyofasi yaratilgan. Ularning jamoa bilan muloqot texnikasi doimo tahlil qilib boriladi. O'qituvchi ham rahbar sifatida tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqaradi, ular bilan turli xil muloqotda bo'ladi. Muloqotning o'zaro ta'sir etish funktsiyasini

e'tiborga olgan holda rahbarlik faoliyati uch uslubga bo'linadi. Bu uslublar A.N.Lutoshkin (O'zini qanday tutmoq kerak) kitobida quyidagicha bayon etilgan:

5.4. 1. Avtoritar uslub-tarang tortilgan kamon. Bunda talabalar faoliyati, kim-kim bilan o'tirishi va ishlashini faqat o'qituvchi belgilaydi. Talaba tashabbusini bo'g'adi, ularni o'ziga xos qiziqarli olamda yashashlarini tan olmaydi. Asosan buyruq, ko'rsatma, yo'llanma berish va hayfsan e'lon qilish bilan talabalarga ta'sir etadi. Hatto juda kam aytiladigan tashakkurnomani ham buyruq va nafsoniyatiga tegadigan ohangda aytiladi: «Bugun juda yaxshi javob berding, sendan buni kutmagan edim?!». Bunday o'qituvchi talabani xatosini ko'rganda uning ustidan kuladi va ko'p hollarda bu xatolarini tuzatish yo'llarini ko'rsatmaydi. Uning yo'qligida talabalar ish sur'ati pasayadi va xatto to'xtab qoladi. O'qituvchining fikri bunda ko'proq boshliqlik oxangida seziladi, boshqalar fikrini qabul qilmaydi.

2. Demokratik uslub (qaytuvchi bumerang). Bu uslubda rahbar o'qituvchi jamoa fikri asosida ishlaydi. O'qituvchi o'z faoliyati maqsadini har bir talaba ongiga singdirishga intiladi, muhokamada barcha talabalarni ishtirok etishlarini ta'minlaydi. O'z vazifasini faqat nazorat va to'zatishtan kiritishdan emas, balki tarbiyalashdan iborat deb tushunadi. Har bir talaba taqdirlanadi, unda o'ziga ishonch hislari tug'iladi. O'z-o'zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik o'qituvchi har bir talabani qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ish taqsimlashga harakat qiladi, faol talabalarni taqdirlab boradi, tashabbusga keng imkon beradi. Bunday o'qituvchi talabalarga asosan iltimos, maslahat berish bilan muloqot o'rnatadi.

3. Liberal (kelishuvchi) uslub. Bu anarxistik va ko'ra-bila turib indamaydigan, talabalarni bebosh, tarbiyasiz, yalqovlikka olib boruvchi uslubdir. O'qituvchi talabalar hayoti bilan qiziqmaydi, unga aralashmaydi, jonbozlik ko'rsatmaydi, masalalarni hal qilishga e'tiborsiz bilan yondoshadi, bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni ham ma'qullaydi, sodir bo'layotgan voqealarga javobgar bo'lishdan o'zini olib qochadi. Bunday o'qituvchiga ishonish va uning haqiqiy xurmatiga sazovor bo'lish mumkin emas. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib pedagogik muloqotni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- o'zaro ijodiy faoliyatga qiziqtirishiga asoslangan muloqot;
- o'zaro do'stlikka asoslangan muloqot;
- muloqot-masofa;
- muloqot-qo'rqitish;
- muloqot-hazil-mutoiba.

Muloqot madaniyati-boshqalarni tushunishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirish, o'zini tushunishga ehtiyoj tug'dirishdir.

Nazorat savollari

1. Pedagogik mahorat tushunchasini ta'riflab bering.
2. Pedagogik mahoratni oshirishda bilim va ma'lumotlarning mazmuni nimalardan iborat?
3. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?

4. Pedagogik muomala deganda nimani tushunasiz?
5. Empatiya nima?
6. Pedagogik qobiliyatni ta'riflab bering?
7. Pedagogik texnika tushunchasini tavsiflab bering.
8. Nutq malakalari nima?
9. Mimika va pantomimikani tavsiflang.
